



# PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMY JURNAL

The journal "Pedagog" covers the sphere of spiritual and educational thinking of a person, the socio-political life of a person, institutions of civil society, global problems, problems of education, new technologies produced today, reforming the education system and publishes scientific articles on open scientific popular analysis.

The journal is intended for students, masters, professional scientists and researchers, university professors. The publication publishes articles of a problematic and scientific-practical nature.



Exact  
Natural  
Medical  
Technical  
Economics  
Philological  
Pedagogical  
Social sciences  
and humanities





## «BEST PUBLICATION»

*Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©*

“PEDAGOG”

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

---

## MATERIALLARI TO‘PLAMI

15-AVGUST, 2022-YIL

5-JILD, 3-SON

O‘ZBEKISTON

2022

"**PEDAGOG**" mualliflar va o'qituvchilarga o'quv amaliyoti va boshqa sohalarda o'z ilmiy maqolalarini nashr etish imkoniyatini beradi. "PEDAGOG" jurnali uch oyda bir marta ko'rib chiqiladigan ochiq kirish jurnalidir. Jurnal axloqiy ochiq nashr etikasi va amaliyotiga amal qiladi. Nashr qilish uchun qabul qilingan barcha maqolalar, uslubiy qo'llanmalar va metodik tavsiyalar ikki tomonlama ko'rib chiqish jarayonidan o'tadi. Jurnal konstruktivizm, hamkorlik, yaxlitlik, aks ettirish va so'rovga asoslangan o'qitish hamda o'qitishning ko'p tarmoqli sohalarini o'z ichiga qamrab oladi.

**Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

MUNDARIJA:

SECTION: TEACHING PHILOLOGY AND FOREIGN LANGUAGES	
<b>Godirova Diyora, Muhtorova Muhlisa, To'rayeva Munajat</b> UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIGA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ULARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI OSHIRISHDA FOYDALANILADIGAN YANGI INNOVATSION METODLAR.	6
<b>Alixonova Dilbar Muxtarovna, Mamadrahimova Madina Nodirjon qizi</b> SOME EFFECTIVE APPROACHES FOR TEACHING ENGLISH FOR ESP	11
<b>Тангриева Умида Аллабергановна</b> ХОРАЗМ МАРОСИМЛАРИ ЛЕКСИКАСИНИНГ ТАДҚИҚ ҚИЛИНИШИ	15
<b>Махмادمurodova Nodira Abdirasul qizi</b> HOZIRGI O'ZBEK TILIDA BIRIKMALAR TASNIFI MUAMMOSI VA UNGA DOIR MULOHAZALAR	19
<b>Jalolova Shaxnoza Muxamedjanovna, Bobojonova Nazira Qaxramon qizi.</b> IN GENERAL VIEW POINT OF GRAMMATICAL CATEGORIES OF VERBS IN ENGLISH AND UZBEK	23
<b>Dilfuza Haqqulova</b> FONIY QASIDALARIDA ISLOMIY QARASHLAR	28
<b>Djurayev Avaz Akhmedjanovich, Qambarova Gulbadan</b> QUESTIONS OF YOUTH EDUCATION IN THE PHILOSOPHY OF KARL JASPERS	32
<b>Gulzar Dosbergenova</b> TEACHING ENGLISH FOR SCHOOL CHILDREN THROUGH COMPUTER TECHNOLOGIES.	38
<b>Azimova Nilufar Ravshanovna</b> IDENTIFYING THE CONCEPT OF "BILINGUALISM" AND ITS IMPORTANCE IN THE 21ST CENTURY	43
<b>Qurbonboyeva Nodira Yusufjon qizi</b> FUQAROLIK JURNALISTIKASINING PAYDO BO'LISH TARIXI HAMDA TARAQQIYOTI	47
<b>Jumagulova Dilafuz Xushmurot Qizi</b> "ALPOMISH" DOSTONINING ABDUNAZAR POYONOV VARIANTIDA "QULTOY" OBRAZI.	51
<b>Ким Елена Александровна</b> КИМ ХУН – НОВАТОР ЖАНРА ИСТОРИЧЕСКОГО РОМАНА	55
<b>Mamurova Mehrinoz Jamil kizi</b> TRANSLATION OF NATIONAL SPORT GAMES	61
<b>Matkarimova Feruzabonu Alijon qizi.</b> O'TKIR XOSHI MOVNING ASARLARI BILAN DUNYONI ANGLASH	66
<b>Sobirova Sadoqat Ikromiddin qizi, Davronova Farangiz Alisher qizi</b> ALISHER NAVOIY MEMUAR ASARLAR MUALLIFI SIFATIDA	69
<b>Saydirasulova Xolima Dilmurod qizi</b> ISMOIL HAQQIY BURSAYIYNING "RUHUL BAYON FI TAFSIRIL QUR'AN" ASARI TASAVVUFYI TAFSIRLARGA OID MUHIM MANBA	74
<b>Moydinova Shoxida Ismailjanovna</b> THE IMPORTANCE OF LESSON PLANNING IN TEACHING ENGLISH	79
<b>Muhammadiyeva Munira Aktamovna</b> UTKIR HOSHI MOV - GREAT DRAMATURGER	83
<b>Sabxon Jo'raboyeva</b> "DEVONI SHAVQIY"DAGI MUXAMMASLAR XUSUSIDA.	86
<b>Mirzaqo'ziyeva Xurshida Sohijon qizi</b> MOHLAROYIM NODIRA'S SKILL IN USING A SATELLITE	91
<b>Gulasal Toshqulova Shukhratovna</b> NOVELTY OF THE TERM "CORPUS" IN UZBEK LANGUAGE	95
<b>Shonazarova Go'zalxon Maqsud qizi</b> "SHERLOK HOLMSNING SARGUZASHTLARI" NOMLI ASARDA UCHRAGAN AFORIZMLARNING BO'LIMLAR BO'YICHA TAHLILI	99
<b>Soburov Hasanjon Shavkatjon o'g'li</b> FEATURES OF THE IMPLEMENTATION OF THE FUNCTION OF GOVERNMENT AGENCIES TO ENSURE PUBLIC ORDER	106
<b>Tursunboyeva Farangiz Sanjarovna</b> HOLY MEMORY IS ETERNAL COURAGE	111
<b>Xolnazarova Vazira Bozor qizi</b> PROBLEMS OF LOGICAL-EPISTEMOLOGICAL STUDY OF THE CATEGORY OF MODALITY.	115
<b>Набиева Зарина Набиевна</b> АСТРИД ЛИНДГРЕН АСАРЛАРИДА КИЧКИНТОЙЛАР РУХИЯТИНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИДА ОБРАЗЛИК	122
<b>Kadirova Yakifjan Buvabaevna</b> THE ROLE OF SOCIAL SCIENCES IN ENHANCING CIVIL LITERACY IN STUDENTS	126
<b>Хамдамов Бобур Бабамуратович</b> СПЕЦИАЛЬНЫЕ СПОСОБНОСТИ СТУДЕНТА-ФИЛОЛОГА КАК РЕЗУЛЬТАТ КОГНИТИВНО -КОММУНИКАТИВНОЙ ПОДГОТОВКИ	129
SECTION: PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL SCIENCES	
<b>Zulfiya Alimova</b> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TA'LIM DASTURLARI VA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI	135
<b>Akratov Xusniddin Muhiddinovich, Xusanboev Giyosiddin</b> O'QUVCHILAR TEXNIK IJODKORLIGI JARAYONI.	138
<b>Иброхимов Мақсаджон Ахмедович, Рустамова Зирутхон Фарходжон қизи,</b> <b>Рахимжоновна Мохира Дилмурод қизи</b> СИНЕРГЕТИК ЁНДАШУВ АСОСИДА БУЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА АХЛОҚИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.	142
<b>Axundjanova Saida Kadirovna</b> O'SMIRLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	149
<b>Хакимова Дилдора Машрабжоновна</b> ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА	164
<b>Назарова Дилфуза</b> БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР	170
<b>Фарух Аббасов,</b> ИННОВАЦИИ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ	174

<b>Rasul Hidralievich Kusherbaev</b> FIGHT AGAINST CORRUPTION IN HIGHER EDUCATION IMPORTANT ISSUES	181
<b>Юлдашева Нафиса Саидназаровна</b> ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР АСОСИДА БУЮК СИЙМОЛАРНИНГ ТАРИХИЙ, ИЛМИЙ-ПЕДАГОГИК ҚАДРИЯТЛАРНИ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ИНТЕГРАЛЛАШ	186
<b>Хайтбаев Диярбек Джанибекович, Каримов Хамид Атаханович</b> ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДИЗАЙН ПРОЕКТИРОВАНИЯ ОБУЧЕНИЯ В ВУЗАХ	191
<b>Фарух Аббасов</b> ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ	200
<b>Эрметова Наргиза Комильджановна, Ахмедов Мурод Убайдуллаевич</b> ЎҚИТУВЧИНИНГ КАСБИЙ СТАНДАРТИ – МИЛЛИЙ ТАЪЛИМНИ ХАЛҚАРО ДАРАЖАГА КЎТАРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА	207
<b>SECTION: SOCIAL SCIENCES AND HUMANITIES</b>	
<b>Abdullaev Hotamjon Hamroevich</b> AYOL TABIATI VA ERKINLIK TUYG'USI	214
<b>Ruziyev Farhod Shukhrat ugli, Qahhorova Zaytuna Abdugulom qizi, Nazirova Sitora Qamariddin qizi</b> PROTECTION IN THE TREATMENT OF PATIENTS WITH COVID 19	219
<b>Usmanova Dilfuza Ravshan qizi, Saloxiddinova Maxliyo Nurmuxammad qizi</b> HOMILADOR AYOLLAR UCHUN BANDAJ ISHLAB CHIQRISHNING AHAMIYATI	222
<b>Jalolova Dildora Jamolovna, Almasova Nargiza Sobir Qizi, Ibragimov Xojjakbar Muzaffarjon O'g'li</b> MARKETINGNI BOSHQARISH STRATEGIK POZITSİYALARINI TANLASH USLUBIYATI	226
<b>Ochilova Farida Kudratovna</b> THE ROLE OF THE FAMILY IN THE INTERNAL DEVELOPMENT OF THE CHILD	230
<b>Ollomova Rano Erkinovna.</b> THE ROLE AND IMPORTANCE OF INTERNATIONAL FINANCIAL RELATIONS IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY	235
<b>Po'latov Shoxrux Vahram o'g'li</b> PROKURATURA ORGANLARINING HUQUQIY MAQOMI TAKOMILLASHUVI	238
<b>Mustafayeva Madina Shaxriyovna</b> URBAN LANDSCAPE ARCHITECTURE DESIGN	244
<b>Азизова Дилноза Аҳхамовна</b> РОЛЬ ЧТЕНИЯ КНИГ В РАЗВИТИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В СОЦИАЛЬНО - ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ СТРАНЫ.	248
<b>Холматов Музаффар Нурмухаммад угли</b> ЙИРИК ВА КИЧИК БИЗНЕС КОРХОНАЛАРИ ҲАМКОРЛИГИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ШАКЛЛАРИ ВА УЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ	251
<b>Qaliqazarova G.G.</b> MYSTERIOUS LETTERS IN KARAKALPAK DECORATIVE PATTERNS	254
<b>Azamatova G.I</b> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	258
<b>Акбаралиева Мухайё Караматулло кизи</b> НАЗНАЧЕНИЕ БОЛЕЕ МЯГКОГО НАКАЗАНИЯ ПО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВУ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН	265
<b>Жумаев Бекзод Бахтиёр ўғли</b> КИБЕРЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШГА ДОИР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА ВА ХАЛҚАРО СТАНДАРТ	276
<b>Shimchuk Alyona Olegovna</b> APPLYING THE FLIPPED CLASSROOM MODEL IN TEACHING ENGLISH GRAMMAR ONLINE	265
<b>Boboyev Mirodillo</b> ARCHIVE WORK IN UZBEKISTAN DURING THE SOVIET PERIOD	280
<b>Haqqulova Dilfuza Choriyevna</b> FONIY QASIDALARIDA ISLOMIY QARASHLAR	285
<b>N.Abidova, E.Zoxidova</b> MAKTABGACHA YOSHDAGI ALALIYALI BOLALARDA YOZUV KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH	289
<b>Yakubov Azizbek Bahodir o'g'li</b> SIGNAL SO'NDIRUVCHI QURILMALARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	295
<b>Mardankulova Madinaxon Anvarjon qizi</b> QUR'ONI KARIMDAGI ILOHIY SON	299
<b>Sharipova-Usmonova Sokina</b> MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR MULOQOTIDAGI BOG'LANISHLI NUTQ TUZISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR	302
<b>Ваҳобов Хасан Набиевич</b> САЙИД ШАРИФ ЖУРЖОНИЙ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ ФАОЛИЯТИ	308
<b>Давранов Улугбек Джанибекович</b> ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ПРИМИРИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕДУР В ГРАЖДАНСКОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ	315
<b>Курбанбаев Ш.Э. Мухамедов И.И. Абдуллаев.Э.</b> СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РАБОТЫ ЗВЕНА ГАЗОДЫМОЗАЩИТНОЙ СЛУЖБЫ НА ОСНОВЕ СРЕДСТВ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ОРГАНОВ ДЫХАНИЯ И ЗРЕНИЯ	320
<b>С.Содиқов</b> ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИГА ДОИР ФАРБ НАЗАРИЯЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИ	326
<b>Сайдалимова Дилдора Жамолиддиновна</b> ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОГО ПРОИЗНОШЕНИЯ У ДЕТЕЙ С ЭКСПРЕССИВНОЙ АЛАЛИИ	329
<b>Собиржанов Абутолиб, Алимova Зебо Хамидуллаевна</b> ИССЛЕДОВАНИЯ МЕХАНИЗМА ДЕЙСТВИЯ ОЦЕНКИ ЗАЩИТНЫХ СВОЙСТВ ИНГИБИРОВАННЫХ СОСТАВОВ	333
<b>Шукурова Дилноза Асатхановна</b> УСТРАНЕНИЕ ЗАИКАНИЯ У ДОШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ ПАЛЬЧИКОВОГО ТЕАТРА	338
<b>Юсупова Г.Ю., Выборнов С.А.,</b> «ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПРОФОРИЕНТАЦИОННОЙ РАБОТЫ НА УРОКЕ ИНФОРМАТИКИ»	342
<b>Якубжанова Хилола Аҳхам кизи</b> ДИЗАРТРИЯЛИ МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА МАЙДА МОТОРИКА РИВОЖЛАНИШИНИНГ ЎЗИГА ХОС ТОМОНЛАРИ	350

# SECTION: TEACHING PHILOLOGY AND FOREIGN LANGUAGES

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ULARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI OSHIRISHDA FOYDALANILADIGAN YANGI INNOVATSION METODLAR.

**Qodirova Diyora**

*(NamDU Ingliz filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi)*

**Muhtorova Muhlisa**

*(NamDU Ingliz filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi)*

**To'rayeva Munajat**

*(NamDU Ingliz filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tillarni o'qitish jarayonida foydalaniladigan zamonaviy metodlar haqida ma'lumotlar beradi, hamda metodlarning afzalliklarini sanab o'tadi.

**Kalit so'zlar:** O'rta ta'lim maktablari, boshlang'ich ta'lim, "So'z zanjiri" metodi, "Rasmdagi gaplar o'yini" metodi, "Qiziqarli hikoyalar" metodi, "Rasmda nimani ko'ryapsiz" metodi.

Ma'lumki, chet tillarni o'rganish va o'rgatish barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamalakatlar qatori vatanimiz O'zbekistonda ham zamon talabiga aylandi[1]. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 1875-sonli PQ qarori qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda chet tillarini ayniqsa ingliz tilini o'qitish va o'rgatishga alohida e'tibor qaratildi[2]. Hozirda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishda turli metodlardan foydalanish va shu metodlar orqali maktab o'quvchilarning bilim saohiyatini oshirish, ularni o'quv jarayoniga jalb qilib o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish an'anaga aylanib bormoqda. Maktab o'quvchilari ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilariga eshitish, yozish, tinglash va so'zlash mahoratlarini oshirishda innovatsion metodlardan foydalanish shart va zarur.

Shuning uchun ham biz ya'ni maqolal yozuvchilar tomonidan ayrim metodlar ishlab chiqildi.

Hammamizga ma'lumki, til o'rganuvchilar ayniqsa kichik yoshdagi bolalar ma'ruza shaklida aytilgan ma'lumotlarga qaraganda yorqinroq ko'rgazmali va yangicha yondashuvga boy metodlar orqali ma'lumotlarni yaxshiroq yaxshiroq qabul qilishadi. Chunki o'quv sinfidagi barcha o'quvchilar ham bir xil o'rganish uslubida bo'lishmaydi, ya'ni ayrimlari eshitib-tinglab o'rganuvchilar; ayrimlari ko'rib o'rganuvchilar; bir qismi esa o'rganayotgan narsasini ushlab, his qilimaganlaricha ma'lumotlarni qabul qila olmaydilar. Shu tufayli ingliz tilini o'rganishda turli zamonaviy metodlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb topdik va ularga quyidagicha nom berdik:

- So'z zanjiri ( word chain)
- Rasmdagi gaplar ( sentences in pictures)
- Qiziqarli hikoyalar ( interesting stories)
- Multik videolar ( funny videos)
- Rasmda nimani ko'ryapsiz? ( what do you see in the picture?)

Dastlab biz maktab o'quvchilarini bilim salohiyatini oshirish uchun ishlab chiqilgan metodlarni e'tiboringizga havola etamiz. Ulardan biriga " so'z zanjiri" ( word chain) deb nom berdik. Ushbu metodda o'quvchilarni so'z boyligini oshirish va ularni og'zaki nutqini rivojlantirish asosiy o'rin tutadi. Xususan ushbu metod o'yin tarzida olib boriladi va har bir o'quvchi yakka tartibda qatnashadi. birinchi o'quvchi bir so'z aytadi misol uchun: clean va bu so'zni oxirgi harfiga keyingi o'quvchi so'z aytadi, masalam: nose. Keyingi o'quvchi esa E harfiga aytadi va o'yin shu tarzda davom etadi. Zanjirni uzgan ya'ni so'z topolmagan o'quvchi o'yindan chetlashtiriladi va o'yin bitta o'quvchi qolguncha davom ettiriladi.

"Rasmdagi gaplar" gaplar o'yini ( sentences in pictures) hammamizga ma'lum, har qanday xorijiy tilni o'rgatishda uning grammatikasiga alohid e'tibor berish lozim va grammatikani o'rgatishda rasmlil o'yinni qo'llash mumkin. Misol sifatida, Present Continuous tarkibini tushuntirishda quyidagi metoddam foydalanish mumkin. Ushbu metod ham sinf xonasida o'yin tarzida olib boriladi. O'quvchilar hali ko'rmagan rasmlardagi personaj nima qilayotganini topish taklif etiladi[3].

Bu o'yin grammatik formulalarni mashq qildirish uchun yaxshi vosita hisoblanadi. Kartalard olamni qandaydir harakatlarni ifodalovchi bir necha rasmlar bor, masalan: konkida uchayotgan, shaxmat o'ynayotgan, kitob o'qiyotgan rasmlar bor. O'qituvchi rasmlil kartalarni ko'rsatadi va so'raydi

What is he\she doing? O'quvchilar o'zlari shunday rasmni topadilar va javob beradilar: he is skating. O'yin shu tarzda davom etadi va eng ko'p javob bergan o'quvchi go'lib bo'ladi.

“Qiziqarli hikoyalar” (Interesting stories). Bu o'yin usuli o'quvchilarning o'qib tushunish mahoratini oshirish uchun samarali usul hisoblanadi. Bu usul ham qiziqarli o'yin tarzida olib boriladi. Birinchi navbatda o'quvchilarga kichik hajmli qiziqarli hikoya taqdim etiladi va u o'qituvchi tomonidan bir marotaba o'qib beriladi. Hikoya tinglanilgandan so'ng guruhlarga ham o'qib, uni tushunish uchun ma'lum bir vaqt beriladi. Vaqt tugagandan so'ng o'qituvchi tomonidan hikoya asosida tuzilgan savollar taqdim etiladi. Savollarga to'g'ri va aniq javob bergan guruh g'olib sanaladi. Bu o'yinni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlar rivojlanadi, tez va tog'ri xulosa chiqarish o'qib tushunish malakalari shakllanadi.

“Multik videolar” (Funny videos). Bu usul o'quvchilarning tinglab tushunish mahoratini rivojlantirish uchun ishlab chiqildi. Multik videolar tanlaganimizning asosiy sabablaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z yoshlaridan kelib chiqqan holda qiziqarli animatsion ravishda taqdim etilgan videolarni yoqtirishadi va bu ularning darsga bo'lgan qiziqishlarini ham ortishiga turtki bo'ladi. Bu metod o'quv jarayonida o'yin tarzida olib borilmaydi. Video subtitrlri display orqali o'quvchilarga namoyish etiladi va bu usul to'g'ri talaffuz qoidalariga amal qilishni rivojlantirishga ham hizmat



1 Complete the tables.



qiladi.

“Rasmda nimani ko'raypsiz?” (What do you see in the picture?) Ushbu o'yin yozish ko'nikmalarini shakllantirish uchun mo'lajallangan. O'quvchilarga display orqali rasm namoyish etiladi va ulardan rasmni tasvirlab berish talab qilinadi. Ajratilgan vaqt oralig'ida o'qituvchilar o'zlarining yozish salohiyatidan foydalanib rasmni tasvirlab yozishadi. O'qituvchi esa ularni o'qib grammatik va leksik xatolarini aniqlab, o'quvchilarga tushuntirish ishlarini olib boradi. Bu ularning to'g'ri yozish malasini oshiradi. Ushbu metodlar tajribasi sifatida Norin tumani XTBga qarashli 24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-“A”-sinf o'quvchilarining ingliz tili darsida Kodirova Diyora, Muhtorova Muhlisa va To'rayeva Munojat tomonidan olib borildi.

### WHAT IS HE DOING? WHAT IS SHE DOING?



She is combing her hair.



He is drawing.



She is brushing her teeth.

Yuqoridagi metodlarni tayyorlash jarayonida Windows 10 dasturi asosida o'rnatilgan kompyuter, Microsoft PowerPoint 2010 dasturi, kartochkalar, videolar oqimini uzatish uchun display ekrani kabi resurslardan foydalanildi.

Havola etilgan metodlardan umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tili darslarining barcha qismlarda foydalanish mumkin. Ushbu metoddan dars jarayonida video va audio fayllardan hamda ko'rgazmali materiallardan foydalanish imkoniyatini ochib beradi. Biz targ'ib qilayotgan metodlarning asosiy maqsadi sinf xonasidagi barcha o'quvchilarning dars jarayonlariga birdek faol qatnashishidir. Shuningdek, bu metodlar aytib o'tkanimizdek o'quvchilarning tinglash, gapirish, yozish va tinglash mahoratlarini oshirishda keng imkoniyatlarni beradi va o'quvchilarining dars jarayonidagi faol harakati, ziyrakligi asosiysi esa dars

qiziqarli tarzda va raqobat muhitida o'tkazishlarini ta'minlaydi. Ingliz tili darslarida innovatsion usullarini qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi[4]

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://library.Ziyonet.uz>>book
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875sonli qarori
3. Turdaliyeva Gulchehra Ne'matjonova "Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"
4. "Ingliz tili o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ShG'HO STM ingliz tili o'qituvchisi Bekmuratova U.B.

**SOME EFFECTIVE APPROACHES FOR TEACHING ENGLISH FOR ESP****Alixonova Dilbar Muxtarovna***A teacher of Kokand state pedagogical institute;***Mamadrahimova Madina Nodirjon qizi***A student of Kokand state pedagogical institute, faculty of philology,  
department of Russian and literature, group 204*

Annotation. This article illustrates some approaches for teaching English for ESP students. Moreover, some methods and ways of having interactive and interesting during the lesson as well as some examples of the methods and their role in teaching.

Key words: ESP (English for Specific purposes), methods, teaching strategies, assignments.

Teaching and learning English have been increasing for the last decades as it is really influential to communicate with all the other countries, nationalities easily around the world. The educational system of the republic of Uzbekistan is getting also advanced at a high speed as other spheres of life. The need for good communication skills in English has created a huge request for English teaching around the country. In order to teach ESP students effectively, teacher needs to use various types of effective methods and high peak activities during the lessons. The demand for an appropriate teaching methodology is therefore as strong as ever.

Currently, the English language is taught in a very orthodox manner. The basic teaching is needed. Teaching the alphabets and the formation of the words is essential and a must. The foundation to teach English can only be taught using the orthodox methods of teaching the alphabets and the words and the rules. But then teaching only the rules is found to be boring by most students and it is because of this that they lose interest in learning the language. Although there is no way other than the traditional one to teach the basics of the language these methods must be tweaked a bit so as to appeal to the students. When it comes to teaching English to students of higher classes who already know the basics the traditional methods generally tend to yield poorer results than innovative methods. This has already been proven by methods implemented like use of stories, poems, movies, books and newspapers etc. These methods help the students learn the language better without them actually realizing and also it keeps their interest.

Using stories to teach the students is an effective approach as stories form a very integral part of teaching a language. These stories help teach the students about the formation of sentences and how to express their thoughts and a lot of other things, furthermore, they help in keeping the students interest alive as the story's end is something that every student wants to know. It appeals to the inquisitive nature of the students. Any unfinished story always keeps the mind of the reader agitated. Although this method of using stories has been implemented the procedure of teaching the language through it is generally not right. The evaluation procedure of testing the students in their proficiency over the language is through questions based on the story. This is generally not that effective. Due to this the students generally tend to take up the stories as a chapter rather than looking at it as an interesting read. A story is supposed to appeal to the creative part of the brain. It helps us be more imaginative, by trying to visualize the things that are happening inside the story. It should not only teach them the language but it should also help them in extracting a lesson from the story. Keeping questions for evaluation kills the entire idea of imagination for the students look at the story as something that they need to learn for answers.

Teaching through conversation can be a great way of teaching too. Conversations are by far the most useful ways of teaching the language. When a child learns his or her mother tongue it is by the conversations that takes place between them and others or by listening to the conversations made by the others. The child is never taught the language but is still able to percept the meaning and learns it automatically to use it in day to day life. No one ever teaches the kid the characters of the language or how to make sentences or the grammar of that language. The participation and other aspects of the conversation can always be evaluated through points which will also push the students to take part in the conversation. These conversations have to be general. They have to happen as if friends are talking to each other. This way the students are comfortable in expressing themselves in the best possible way. This process may take some time but in the end it would be the most efficient one in teaching the language.

Adding to the mentioned methods, the following teaching strategies can be noticed as the useful interactive methods:

- teaching through different types of games. it gives a great number of fun and interest to lesson; word games should be mentioned separately here, as it improves student vocabulary skills;

- competitions, this method creates an enormous emulation among student and attracts to learn more;

- creative assignments; this method requires effort on the teacher's part. Assignments help the students learn something on their own and most of the times they have to research on something then write something up on it. This method although effective is most of the times very tedious. This method of approach is very appropriate for sciences and engineering although when it comes to languages the students should be given assignments in which they have to modify something that already exists.

- using visual aid, projectors, dynamics, multimedia slides. Multimedia sources like songs, movies, TV series, magazines, newspapers play a very vital role in improving our language. We don't even realize that they have helped us. We just wake up one fine day and realize that we are better than it than we were yesterday. Such sources can be used to help the students improve their language. But great precautions must be taken. This method should be used in the final stages of learning as that is the only place where there is no scope of damage as most of the movies and songs etc. use colloquial English most of the times which is grammatically wrong and it is very important that the students understand that fact so that they do not use that form of the language in their everyday usage.

In conclusion, the languages play a very important role in our lives. They help us express our emotions. They help us explain what we want. They help us to communicate and hence are the prime tools to express who we are. Thus the knowledge of a language and its proper utilization is very important as it defines us. If languages were not there to help us communicate there would be no difference in our communications and the way the animals communicate. Hence the ways the languages are taught play a very vital role in a person's life. Since English is the official language of this world it is of utmost importance that this language has to be taught in such a way that it will help us not just to speak and write and listen but to communicate. That is the purpose of the language and that is what it must be used for. Hence innovative methods help in bringing a change and most of the times for the better. It helps the students learn faster and in an efficient, interesting and an interactive manner and it is the teacher's responsibility to leave the traditional methods and make way for new and better methods for the students benefit.

Active learning techniques cause students to engage with the subjects rather than passively take in information. Examples of active

learning activities include brainstorming, discussing, teaching, journaling, group work, focused listening, formulating questions, note taking, annotating, and role playing are the best to mention.

### USED LITERATURES:

1. Kevin D. Besnoy, Lane W. Clarke, High-Tech Teaching Success! A Step-by-Step Guide to Using Innovative Technology in Your Classroom, Prufrock Press, Inc. October 1, 2009
2. Lynne T. Diaz-Rico, Teaching English Learners: Strategies and Methods Marlene D. LeFever , Creative Teaching Methods, Cook Ministry Resources; March 1, 1997
3. Edgar H. Schuster, Edgar H. Schuster, Breaking the Rules: Liberating Writers Through Innovative Grammar Instruction, Heinemann; February 13, 2003
4. Nicholas McGuinn, David Stevens, The Art of Teaching Secondary English: Innovative and Creative Approaches, Routledge; August 7, 2004
5. Paul Nation , New Ways in Teaching Vocabulary (New Ways in Tesol Series: Innovative Classroom Techniques); TESOL, January 1, 1995
6. R. Patrick Solomon, Dia N. R. Sekayi, Urban Teacher Education and Teaching: Innovative Practices for Diversity and Social Justice, Routledge; March 30, 2007
7. Patrick Schwarz, Paula Kluth You're Welcome: 30 Innovative Ideas for the Inclusive Classroom; Heinemann, August 17, 2007
8. Constance Leuenberger, The New Kindergarten: Teaching Reading, Writing, & More, Publisher: Teaching Resources, August 11, 2003
9. Judith S. Gould, Evan Jay Gould, Judy Mitchell, Mary Rojas, Four Square Writing Method : A Unique Approach to Teaching Basic Writing Skills for Grades 1-3,
10. Martha Bradshaw, Arlene Lowenstein, Innovative Teaching Strategies in Nursing and Related Health Professions; Jones & Bartlett: March 8, 2010 [11]. Susan Van Zile, Awesome Hands-on Activities for Teaching Grammar, Teaching Resources; December 1, 2003

**ХОРАЗМ МАРОСИМЛАРИ ЛЕКСИКАСИНING ТАДҚИҚ ҚИЛИНИШИ****Тангриева Умида Аллабергановна***УрДУ академик лицейининг она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси*

**Аннотация:** мақолада Хоразм маросим лексикаси, унинг тадқиқ қилиниши, маросим ва урф-одатларнинг ўзига хос жиҳатлари ҳақида сўз юритилади.

**Калит сўзлар:** маросим, урф-одат, анъана, этнография, маданият, удум, расм-русум, ирим-сирим, байрам, халқнинг турмуш тарзи, тарих.

Халқ шеваларида маросимлар лексикаси яшовчанлиги ва қадимийлиги билан ўзига хос хусусиятларга эгадир. Маросим ва унинг турли хил кўринишлари фольклор, яъни халқ оғзаки ижодида ҳам ўз аксини топган. Маросимлар лексикасида муайян халқнинг турмуш тарзи, этник тарихи, урф-одатлари, яъни унинг ўтмиши бутун ўзлиги билан намоён бўлади. Мустақиллик йилларида халқ этнографияси ва халқ оғзаки ижодида халқларнинг анъанавий маданияти, урф-одатлари ҳамда маросимларини ўрганишга эътибор кучайди. Бу ҳолат шевадар лексикаси, хусусан, этнографик лексикани кенг кўламда ўрганишни тақозо этади.

Дарҳақиқат, бундай тадқиқотлар ҳар бир халқ анъанавий маданиятининг тарихий асослари, тарихий тараққиёт йўллари оидинлаштириш билан биргаликда, ўша халқнинг этногенезисини ёритишга ҳам ёрдам беради.

Хоразм маросимлари ўзининг барқарор ва анъанавий характери билан ажралиб туради. Бу соҳадаги мавжуд материаллар мавсумий, оилавий-маиший маросимларни ўз ичига олади. Ўзбек маросимлари турли-туман ва ўзига хосдир. Адабиётшунослик ва этнография фанида бу соҳада анчагина сезиларли ишлар қилинган. Барибир, қандай ҳолатда бўлмасин шевадар ранг-баранглигини ҳисобга оладиган бўлсак, ўзбек маросимларида шу даражада ранг-баранглик мавжуд дейиш мумкин. Маросимлар лексикасини тадқиқ этиш жараёнида, дастлаб, унинг тарқалиш чегарасини аниқлаш лозим.

Сабаби маълум бир ҳудудда яшовчи ўзбекларнинг ҳам биридан фарқ қилувчи маросимлари кўп. Бу маросимлар бошқа ўзбек

шеваларида ёки ёндош қишлоқ шеваларида учрамаса, демак, улар лексикасида ҳам шу элементлар ишлатилмайди.

Урф-одат ва маросимлар узоқ аждодларимизнинг эътиқодий тасаввурлари билан боғлиқ ҳолда барқарор анъаналар тарзида яшаб келади ва улар ҳар бир даврда кишиларни ўз таъсирига олишга интилади. Маросим инсон моддий ва маънавий турмушининг талаб ва эҳтиёжи билан юзага келган ва келадиган, табиий хатти-ҳаракат, безак ва матнга эга бўлган ҳаётий бир кўриниш ёки “саҳна” асари дейиш мумкин.

Дарҳақиқат, ҳар бир ижтимоий-сиёсий, иқтисодий формация ўз талаб ва эҳтиёжларига мос келувчи маросимларни келтириб чиқаради. Бу ҳолат лексикада янги-янги тушунча ва атамаларнинг шаклланишига сабаб бўлади.

Биринчидан, маросим ижтимоий ҳодиса сифатида ҳамма вақт инсон ҳаётининг асосий бурилиш нуқталарида, кўпинча, ана шу нуқталарни қайд этиш, қонунлаштириш талаби билан туғилади. Инсон турмуши ижтимоий-иқтисодий тузум билан мувофиқ равишда доим миқдор ва сифат жиҳатидан қай даражада ўзгаришларга учраб бормасин, унинг ҳаётидаги бурилиш нуқталар, масалан, туғилиши, балоғатга етиши, меҳнат фаолияти, никоҳ даври, вафоти кабилар барқарорлигини сақлаб қолади.

Иккинчидан, маросим бевосита кишиларнинг табиат ҳодисаларига, ижтимоий воқеликка бўлган муайян муносабати асосида ётувчи турли-туман қараш ва тасаввурлари туфайли туғилади. Бундай қараш ва тасаввурлар қай даражада барқарорлик касб этса, уларнинг таъсири маросимлар анъанасида қай даражада мустаҳкам ўрнашиб олган бўлса, бундай маросимлар ниҳоятда узоқ яшовчан бўлади, бинобарин, тил, шева лексикасида ҳам лексик бирлик мустаҳкам ўрин олади.

Учинчидан, маросимнинг инсон ҳаётида катта ўрин тутиши, барқарорлигини таъминловчи муҳим омиллардан бири, унинг ижтимоий вазифани ўташи билан ҳам боғлиқдир. Жамиятда бирорта ҳам кераксиз, ҳеч қандай ижтимоий вазифа бажармайдиган маросим йўқ ва бўлиши ҳам мумкин эмас. Маросим таркибидаги бадиий сўзга хос унсурлар шу маросимнинг семантик табиати билан боғлиқ ҳолда унинг моҳиятини белгиловчи, ҳар қандай бадиийликдан холи матнлар сифатида юзага келиб, аста-секин инсон бадиий фикрлаш тарзининг ривожини билан чамбарчас боғлиқликда поэтик табиат касб эта боради



ва шу орқали маросим аста-секин эстетик вазифа бажаришга кўчади.

Маросим ва урф-одат атамалари кундалик нутқимизда тенг тушунчалардек қўлланилади. Бундай ҳолат, ҳатто бир қатор этнографик адабиётларда ҳам учраб туради. У ҳолда маросим ва урф-одат тушунчалари бир нарсами ёки фарқли тушунчаларми, деган савол туғилади. Бизнингча, улар бир-бири билан чамбарчас боғлиқ, аммо бир-биридан кескин фарқ қилувчи тушунчалар ҳисобланади. Бу ерда шуни айтиш лозимки, урф-одат тушунчаси ўта кенг бўлиб, у ўз ичига халқ ҳаётининг барча томонини - оддий кундалик удум, расм-русум, ирим-сиримлар, ўзаро муомала тарзи ҳамда барча маросимларни қамраб олади. Маросим тушунчаси нисбатан тор тушунча бўлиб, у шу халқ ҳаётининг маълум соҳаларида омма томонидан қабул қилинган, кўпинча рамзий характерга эга бўлган ва маълум кишилар томонидан махсус уюштирилган намоёишлардан иборат.

Маросим кишиларнинг табиат ва жамият кучларига таъсир ўтказиш орқали ўзларига тўкин-сочинлик, бахт-саодат, соғлиқ-саломатлик келтириш мақсадида махсус уюштирилган хатти-ҳаракатларидан иборат.

Бу фикр масаланинг тўлиқ моҳиятини англамайди. Фақат бир томонлама билдирилган фикр дейиш мумкин. Уни маросим ёки маросим лексикасига тўла татбиқ этиш учун, дастлаб, маросим лексикасини мукаммал тасниф этиш зарурияти пайдо бўлади.

Н.Кравцовнинг бу фикри фақат анимистик, сеҳр-жоду асосида маълум бир ирим-сиримларга асосланган маросимларгагина тўғри келади. Бундан ташқари, давр тараққиёти, ишлаб чиқаришнинг юксак даражага етиши, турли соҳаларида ҳам соҳалараро маданиятнинг юқори кўтарилиши натижасида "байрам" тушунчаси ҳам кириб келди. Энди шу ўринда маросим архаик тушунча эмас, балки байрам тушунчаси билан маросим тушунчасининг боғлиқлиги, унинг семантик хусусиятларида ҳам умумийлик ва хусусийлик борлигини кўрсатади.

Маълумки, ҳар қандай маросим муайян бир халққа тегишли бўлади ва унинг шеvasида тил бирлиги сифатида ўзини намоён қилади. Шундай экан, айрим олинган ҳар қандай маросим ўзи мансуб бўлган халқ урф-одатларининг таркибий қисмларидан бири ҳисобланади. Демак, маросимдан урф-одат элементларини излаш мумкин, аммо урф-одатдан маросимни излаб бўлмайди.

Хуллас, маросим халқ урф-одатларининг маълум қисмини ташкил этади, қолганлари эса маросимсиз риоя қилинадиган расм-русум,

ирим- сирим ва анъаналар ҳисобланади. Маросим ва байрам номларига аниқлик киритиб, уларнинг аталиш мотивларини чуқур илмий текшириш зарурдир.

#### **ФҲЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. I, Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1961.
2. Абдурахмонов Д., Содиқов Т., Носиров Ш., Туробоева Ш. Ўзбек шевалари лексикаси. Тошкент, “Фан” нашриёти, 1991.
3. Алиев А. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. Тошкент, “Фан” нашриёти, 1974.
4. Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. НДА, 1997.
5. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент, “Фан” нашриёти, 1985.

## HOZIRGI O'ZBEK TILIDA BIRIKMALAR TASNIFI MUAMMOSI VA UNGA DOIR MULOHAZALAR

**Maxmadmurodova Nodira Abdirasul qizi**

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyoti instituti "O'zbek tili va adabiyoti"  
kafedراسi stajyor-o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hozirgi o'zbek tilida mavjud birikmalar tasnifiga doir muammolar yoritib o'tilgan bo'lib, birikma ko'rinishidagi birliklarni tasniflashga doir mulohazalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *birikma, erkin birikmalar, barqaror birikmalar, oraliq birikma, birikmali termin, izofa, maqol, matal, ibora.*

Jahon hamjamiyatida munosib o'rinni egallash maqsadida bugungi kunda yurtimizda har bir sohaga, har bir yo'nalishga alohida e'tibor qaratilib, keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Xususan, ta'lim sohasida ilm-ma'rifatli yoshlar sonini ko'paytirish, ularni malakali kadr qilib tayyorlash maqsadida o'qitish tizimiga yangicha yondashuvlardan foydalanildi hamda bu tizimda yig'ilib qolgan bir qator ilmiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish ishlari bu sohada faoliyat yuritib kelayotgan bir qancha olimlarimiz tomonidan amalga oshirildi. Jumladan, o'zbek tilshunosligidagi bir qator muammolar o'z yechimini topmoqda, ammo ayrim ilmiy muammolar jahon va o'zbek tilshunoslari tomonidan keng ko'lamda o'rganilgan bo'lsa-da, hanuzgacha oliy va o'rta ta'lim tizimi o'qitish jarayonlarida o'quvchilarga tushuntirish, o'rgatish davomida bir qator noqulayliklarni yuzaga keltirmoqda.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi keyingi yillarda til hodisalariga uning milliy tabiatidan kelib chiqib yondashish oqibatida qator yutuqlarni qo'lga kiritdi. Birgina gap kesimining turkiy tillar gap qurilishi nuqtai nazaridan yangicha tadqiq etilishi oqibatida mavjud qator tushunchalar, jumladan, tobe gapli qo'shma gaplar, qo'shma gapning qurilish qoliplari, uyushgan gap, uyushiq kesim kabi hodisalar talqiniga ham yangicha yondashishni taqozo qildi. Xuddi shunday muhim masalalardan yana biri o'zbek tilida mavjud birikmalarni tasniflash va uni tavsiflash asoslari bilan bog'liq.

O'zbek tilida birikma deganda, asosan, so'z birikmasi tipidagi qurilmalar nazarda tutiladi. Ma'lumki, so'z birikmalarining aksariyati qo'shma so'zlardan kelib chiqqan. Nemis tilshunosi Y.Ris so'z birikmalari xususida mulohaza yuritganida ularni so'zga nisbatan mutlaqo boshqa maqomda ekanligini,

ammo ba'zi jihatlariga ko'ra qo'shma so'zlarga yaqin turishini qayd etgan. Haqiqatdan ham, ushbu birikmalarning qoliplari o'rtasida o'xshashliklar mavjud bo'lganligi sababli fanda bir qator chalkashliklarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababdan ham ba'zi misollar bugungi kungacha mavjud darslik va qo'llanmalarda o'z tasnifini topmasdan ilmiy muammolardan biriga aylandi. Ayni paytda qo'shma so'z, so'z birikmasi, barqaror birikmalar oralig'idagi talay qurilmalar mavjudki, ularning chegarasini aniq ajratish tilshunoslik kun tartibidagi masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu esa birikmani keng doirada tahlil qilish, ularni tasniflash va tavsiflash bizning oldimizdagi asosiy vazifalardan biri ekanligini anglatadi.

Bugungi kungacha tilshunoslarimizning tadqiqot ishlarida o'rganish manbai qilib olingan so'z birikmalari mazmuni va turlari, tobe so'zning hokim so'zga bog'lanish qonuniyatlari, birikmalarning boshqa qurilmalardan farqli tomonlari bayon va tavsif etilgan bo'lsa-da, lekin tobe aloqa ko'rinishidagi birikmalar o'rtasidagi chegara aniq yoritilmagan. Tilimizda shunday birikmalar ham borki, ularda tobe aloqa qisman yo'qolgan holda shakliy tomondan tobe aloqa ko'rinishi saqlanib qolgan. Biz ular o'rtasidagi chegarani aniqlab olish maqsadida birikma masalasini keng doirada o'rganib, ularni birikma tizimiga birlashtirdik va 3 guruhga bo'lib o'rgandik. Birikmalar quyidagicha tavsiflandi:

1. Erkin birikmalar;

2. Barqaror birikmalar;

3. Erkin hamda barqaror birikmalar o'rtasida turuvchi oraliq birikmalar.

I. Erkin birikmalar hokim va tobe qismlarning o'zaro erkin holda tobe bog'lanishidan yuzaga kelgan birikmalar bo'lib, qismlarining har biri alohida so'roqqa javob bo'ladi va alohida gap bo'lagi vazifasida keladi, tarkibidagi har bir so'z o'z atash ma'nosini saqlagan bo'ladi. Erkin birikmalarga quyidagilarni kiritamiz:

1. Qaratqich-qaralmishli birikma (cholning nabirasi, maktab bog'i);

2. To'ldiruvchi-to'ldirilmishli birikma (vazifani bajarmoq, sinfga kirmoq);

3. Sifatlovchi-sifatlanmishli birikma (chiroyli gul, temir tovoq, o'qiyotgan bola, uch kun, ushbu tong, oydek yuz, tog'dagi lola, eskiroq uy, qalingina mato);

4. Hol-hollanmishli birikma (arrang kelmoq, zo'rg'a gapirmoq, tez bormoq, dir-dir titramoq, ertalab bormoq).

5. Ta'kidlovchili birikma (mening o'zim, shaxsan o'zim).

II. Barqaror birikmalar ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topadi va nutq jarayoniga tayyor holda olib kirilib, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari birikib, bir umumiy ma'noni berish uchun xizmat qiladi. Shakliy tomondan tobe aloqa tarzida tursa-da, ular yahlit holda bir umumiy ma'noni ifodalab turadi. Barqaror birikmalar ham ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topgani sababli erkin birikmalar Barqaror birikmalarga quyidagilar kiradi:

1. Iboralar;
2. Maqol va matallar;
3. Tasviriy ifodalar;
4. Qo'shma so'zlar.

Birikma tarkibidagi birliklar erkinlikni yo'qotadi va yahlit tizim holida yangi ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Tilimizda shunday birikmalar ham borki, barqaror birikma va erkin birikma o'rtasida shakldoshlik hosil qiladi. Masalan, boshga ko'tarmoq.

Tilimizda shunday birikmalar ham borki, ular shakliy tomondan (ya'ni tuzilish tomondan) erkin birikmalarga o'xshasa-da, lekin mazmuniy, ichki tomondan barqaror birikmalarga doir xususiyatlarni ham o'zida qamrab oladi. Masalan, Qarshi davlat universiteti birikmasi tuzilish tomonidan, ya'ni egalik qo'shimchasining hokim so'z tarkibida borligi jihatidan qaratuvchi-qaralmishli erkin birikmasiga o'xshasa-da, lekin bu qo'shimchaning vazifasi qisman yo'qolib, erkin tobe aloqa yo'qola borib, birikma tarkibidagi birliklar bir umumiy ma'no atrofida birlashib, birgina atash ma'no ifodalayotgani bilan barqaror birikmalarga o'xshab ketadi. Ammo farqli tomoni bu birikmalar tarkibidagi har bir birlik o'z atash ma'nosini saqlagan bo'ladi. Shu sababdan bunday birikmalar erkin hamda barqaror birikmalardan farqlanib, ular o'rtasida turuvchi "Oraliq birikmalar" deb ataymiz va bunday birikmalarni quyidagicha tasniflash lozim:

1. Izohlovchi-izohlanmishli birikmalar (shoir Abdulla, Mirza terak, Shoiri opa, Yusuf sartarosh, Abdulla Avloniy, akademik Mo'minov, mayyor Saidov, Shoiri puchuq);

2. Izofali birikmalar (Qarshi davlat universiteti, Qarshi shahri, "Sog'lom avlod uchun" ordeni, Bog'ishamol mahallasi, "G'uncha" kinoteatri);

3. Fors tilidan kirib kelgan izofalar (nuqtai nazar, dardi bedavo);

4. Birikmali terminlar ( )

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda qo'llaniladigan birikmalar haligacha to'liq tasniflanmagan. Ularning tasniflanishi ta'lim

jarayonida izlanuvchilarga ancha yordam bo'ladi va tushuntirish jarayonida turli muammolarga duch kelmaslikka olib keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G'.A. O'zbek tili grammatikasi. Sintaksis. - T.: O'qituvchi, 1996. – 248 b.;
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili II tom – Toshkent, 1966.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 230 b.
4. Rahmatullayev SH. Hozirgi adabiy ozbek tili. -Toshkent: Universitet, 2006.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent, 2007.
6. Zamonaviy o'zbek tili.Sintaksis. – T., “Mumtoz so'z”, 2013.
7. O'zbek tili grammatikasi. I qism. – T., 1978.
8. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: O'qituvchi, - 1987. - 255 b.
9. Sharipov M.K. O'zbek tilida so'z birikmasi sintaksisi masalasi. – Toshkent, “Fan”. 1978, 88 b.

## IN GENERAL VIEW POINT OF GRAMMATICAL CATEGORIES OF VERBS IN ENGLISH AND UZBEK

**Jalolova Shaxnoza Muxamedjanovna**

*PhD, associate professor*

**Bobojonova Nazira Qaxramon qizi.**

*1st year master's degree student*

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek*

**Annotation:** *This article gives information about differences and similarities between English and Uzbek languages with exact examples and investigate structural discordances in English and Uzbek. In this article we learn how to use Grammatical categories of verb in both languages.*

**Key words:** *English, Uzbek, verb, suffixes, order, numeral, nouns, grammatical transformation, syntactical structures, pronouns, article, gender, tenses and other grammatical categories.*

We know that English declarative sentences are based on the following structure: Subject – Predicate – Object. As for Uzbek sentences, they are formed due to another scheme: Subject – Object – Predicate (at the end of a sentence). So, the word order in English and Uzbek sentences are totally different. Moreover, in Uzbek sentences we have a frequent use of suffixes: -ni, -ini. If we investigate structural discordances in English and Uzbek set expressions we can reveal three main types:

1. Full accordance. 2. Partial accordance. 3. Total discordance.

Under full structural accordance we mean accordance of structures, word combinations, and parts of speech which coincide both in the English and Uzbek languages. For instance, the category of number, which is similar in both languages: <sup>1</sup>

I would like to express my viewpoint – Men fikrimni aytmoqchiman

I would like to express my viewpoints – Men fikrlarimni aytmoqchiman

Let me introduce my friend – Do'stimni tanishtirishga ijozat bering  
Let me introduce my friends – Do'stlarimni tanishtirishga ijozat bering.

In these sentences, however, the word order is different: in English sentences predicate follows the subject while in Uzbek sentences predicate

---

<sup>1</sup> Rakhimov G.H. Theory and practice of translation. Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan, 2016. 176 P.

comes after the subject and object. Examples of English and Uzbek speech formulas which fully coincide in structural aspect are very rare. Usually such expressions consist of two or three components: an international telegram – xalqaro telegramma travelers' check – sayohatchilar cheki.

Partial discordances may appear in categories of tense, voice, case. In English there are two cases, in Uzbek – six. I heard much about your country – Sizning mamlakatingiz to'g'risida ko'p eshitganman. Two English words “your country” are rendered by one Uzbek word “mamlakatingiz”. Moreover, they vary from the viewpoint of category of cases. Another example: We are from Tashkent – Biz Toshkentdanmiz. As we see, three English lexemes “are from Tashkent” are combined in one Uzbek lexeme “Toshkentdanmiz”. We came here on the invitation of the government of... – Biz .....hukumati taklifiga binoan keldik. In this example the structure of the English expression “on the invitation of government” is different by word order in the Uzbek equivalent “hukumati taklifiga” (word order is vice versa). As we see in the examples above, set expressions with partial accordance are similar in meaning but differ in structure: one letter – bitta kitob five letters – beshta kitob.

As we see, English phrases consist of numeral and noun (singular and plural), but Uzbek phrases consist of numeral and noun in singular. Even in cases of total semantic accordance there may be revealed cases of partial structural discordance: a list of items – molar ro'yhati (word order differs + Uzbek suffix “i” in the word “ro'yhati”) customs restrictions – bojhona cheklovlari (same word order but Uzbek suffix “i” in the word “cheklovlari”) import license – import uchun ruhsatnoma (same word order + Uzbek postposition “uchun”). Total structural discordance is first of all vivid in the category of possession which is expressed by possessive suffixes in Uzbek and by possessive pronouns in English:

May I introduce you to my family? – Sizni oilamga tanishtirishga ruhsat bering. This is your invitation, please. – Marhamat, sizning taklifnomangiz.

So, on these common examples we can confirm that a communicant of English-Uzbek conversation should master all possessive pronouns of English and possessive suffixes (endings) of Uzbek. Total grammatical discordance is vivid also on the use of English articles which don't exist in the Uzbek language system but sometimes can be rendered with the help of another lexical means:

I'd like to present you with the gift – Men sizga mana bu sovg'ani topshirmoqchi edim. In the Uzbek variant the English definite article “the” is



Biz o'rganayotgan fuqarolik jurnalistikasi fenomenining kelib chiqishini esa XX asr boshlaridagi G'arb madaniyatida ko'rish mumkin. Jahon jurnalistikasi tarixida "fuqarolik jurnalistikasi" atamasi birinchi marotaba Amerika ommaviy kommunikatsiya nazariyasida qo'llanilgan bo'lib, u yerda ushbu atamaga ikkita leksik ta'rif berilgan: "civic journalism" va "citizen journalism". Aytish joizki, ikkala atamani ham o'zbek tiliga "fuqarolik jurnalistikasi" deb tarjima qilish mumkin, ammo ayni paytda ular bir-biridan tubdan farq qiladi.

“Civic journalism” — Internetgacha bo‘lgan davrda boshlangan bo‘lib, ushbu konsepsiya o‘quvchilarning fuqarolik faolligini rivojlantirish va ularni ijtimoiy hayotga jalb etishga qaratilgan professional jurnalistikani anglatadi. Shu bilan birga, bu tahririyat loyihalarini amalga oshirishda o‘quvchilarning ishtiroki bilan bog‘liq atama sifatida talqin etiladi.

“Citizen journalism” esa professional bo‘lmagan mualliflarning Internetdagi, xususan, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar, mikrobloglar, shuningdek, noan’anaviy media xizmatlarida olib boradigan faoliyatini nazarda tutadi.

Birinchi “fuqarolik jurnalistikasi” hodisasi sifatida Amerika “zinilari” (ingliz tilidan “Magazine” — jurnal) ni misol tariqasida keltirish mumkin. “Zini”lar rasmiy ommaviy axborot vositalariga qarshi “qo‘lbola” usulda ishlab chiqarilgan nashrlar bo‘lib, bunda matn yozuv mashinkasida terilgach, unga mos fotosuratlar yopishtirilib, odamlarga tarqatilgan. Birinchi “zinilar” XX asrning 30-yillarida Buyuk Depressiyadan so‘ng paydo bo‘lgan va 60-yillarga qadar faoliyat yuritgan. Ularda yirik noshirlar e’tibor bermagan hamda nashr etishdan bosh tortgan hayoliy hikoyalar va oddiy inson-mualliflarning yozishmalari aks etgan.

Agar AQShda “zinilar”ning paydo bo‘lishi iqtisodiy tizim bilan shartlangan bo‘lsa, sobiq ittifoq “samizdat”ining yaratilishi siyosiy rejim va senzura asoslanadi. Rossiyada “samizdat” atamasi shoir Nikolay Glazkov tufayli paydo bo‘ladi. 1950-yillarning boshlarida qo‘lda yozilgan kitoblarni chiqarishda shoir sarlavha varag‘ida “Samsebyaizdat” ( “Сам себя издатель” – “O‘zim uchun o‘zim noshir”) jumlasini yozib qo‘yadi. Vaqt o‘tishi bilan ushbu ibora “samizdat”ga qisqargan va SSSRdagi senzura xoli adabiyotlarni anglata boshlagan. Bunday analoglar ham xuddi yuqoridagi kabi prinsiplar bo‘yicha “ishlagan”: matnlar qo‘lda yoki yozuv mashinasida yozilgan va rasmlar yopishtirilgan. Aksariyat holatlarda “samizdat” hukumat tomonidan taqiqlangan adabiy asarlarni, diniy va jurnalistik matnlarni tarqatish usuli bo‘lgan.

Fuqarolik jurnalistikasi haqida 2000-yillarning o‘rtalarida, o‘zgalarning fotosuratlari, video va audio yozuvlarini ishlatishga imkon beruvchi “blogosfera”ning dunyo hamjamiyatiga ta’sirining tarqalishi va kuchayishi munosabati bilan muhim hodisa sifatida gapirila boshlangan. Bu yerda texnologik taraqqiyot muhim rol o‘ynagan, buning natijasida mobil qurilma va kompyuterning har bir egasi axborot makonining bir qismiga aylangan. Zero, ayni paytda inson qayerda bo‘lmasin, muhim voqeani kamera yoki telefonga yozib olishi, so‘ngra asl mazmuni bilan Internetda bo‘lishishi mumkin.



Ijtimoiy hayotda ham fuqarolik jurnalistikasi 2000-yillarning o'rtalarida, "Livejournal" kabi blog xizmati paydo bo'lganida faol rivojlana boshlagan. Fuqarolik jurnalistikasining "otasi" sifatida ba'zida AQSh prezidenti Jon Kennedining o'ldirilishini suratlariga muhrlagan amerikalik ishbiarmon Zapruder Ibrohim qayd etiladi.

Butunjahon o'rgimchak to'ri paydo bo'lishi bilan istalgan odam Internetda hamma uchun qulay bo'lgan axborotni yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan va 1999 yilda allaqachon bir guruh faollar fuqarolik jurnalistikasi tamoyillariga asoslangan "Indymedia" axborot tarmog'ini ishga tushirishgan. Ushbu manbaning paydo bo'lishi Sietldagi JSTga qarshi aktsiya bilan bog'liq bo'lib, an'anaviy ommaviy axborot vositalari ushbu mavzuni voqealarning mohiyatini to'g'ri ochib bermasdan yuzaki yoritgani bois faollar axborot tarqatish uchun o'zlarining resurslari bo'lishlari kerakligini anglashgan. Ushbu saytning yaratilishi boshqa odamlar uchun o'rnak bo'lgan va tarmoqda oddiy fuqarolar tomonidan tashkil qilingan yangi axborot saytlari paydo bo'la boshlagan.

Fuqarolik jurnalistikasi tarixidagi navbatdagi muhim voqea 2001 yil 11 sentyabr voqealari bo'lgan. Agar bundan oldin o'z bloglarida odamlar, asosan, biron bir voqea haqida o'zlarining fikrlari haqida gaplashishgan bo'lsa, 11 sentyabrdagi teraktdan keyin ko'plab fuqarolar yangi ma'lumotlar bilan faol almashishni boshlashgan. Guvohlar o'zlarining hikoyalarini Internetga joylashtirishgan va uni video hamda fotosuratlar bilan to'ldirishgan.

Mana shunday jarayonlarning samarasi va natijasi o'laroq bugungi kundagi fuqarolik ko'rinishi shakllangan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Бобрышова А. С. "Гражданская журналистика в Интернете: теоретические подходы и эффективные практики".
2. Марченков А., Гражданская журналистика: понятие, направления, субъекты / 60 параллель. №3(42). 2011
3. Халамбаджа И. "Фантастический самиздат", журнал "Если" №9, 1998.
4. Хлебникова Н. "Гражданская журналистика: к истории становления термина" // журнал "Медиаскоп" выпуск №3, 2011.
5. Торгашев Алексей, г. Москва статья «Каждый гражданин — репортёр», [электронный ресурс] URL: [http://yspu.org/images/Торгашев\\_А.Ф.\\_Каждый\\_гражданин\\_—\\_репортёр.pdf](http://yspu.org/images/Торгашев_А.Ф._Каждый_гражданин_—_репортёр.pdf)
6. "What is Citizen Journalism and How Does it Influence News?" <https://www.brandwatch.com/blog/what-is-citizen-journalism-and-how-does-it-influence-news/>

## “ALPOMISH” DOSTONINING ABDUNAZAR POYONOV VARIANTIDA “QULTOY” OBRAZI.

**Jumagulova Dilafuz Xushmurot Qizi**

*Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi 2-kurs*

**Annotatsiya:** “Alpomish” dostonining Abdunazar Poyonov varianti dostonchilikdagi an’anaviy syujetlar asosida yaratilgan, ammo o’ziga xos xususiyatlarni ham qamrab olgan. Bunda bir qancha dostonlarda bo’lgan syujetlarning birlashishi, shuningdek, voqealar sababining chiroyli dalillanishi kuzatiladi.

Ushbu maqolada Qultoy obrazini tahlil qildik. Abdunazar Poyonov Alpomishga ustozlik maqomidagi Qultoyni qul emas, balki aslzodalardan, ya’ni, Dobonbiyning farzandllaridan biri Bobinbiyning o’gli, Boybo’ri va Boysariga qarindosh – amakivachcha ekanligini ta’kidlangan.

**Kalit so’z:** Alpomish dostoni, variantlilik, Fozil Yo’ldosh o’g’li, Umir baxshi Safarov, Mardonaqul Avliyoqul o’g’li, Qultoy.

“Alpomish” dostoni ming yillardan buyon tillardan tillarga o’tib, baxshilar tomonidan kuylanib kelayotgan xalq og’zaki ijodi sanaladi.

Ma’lumki, har bir asarda yetakchi g’oya bo’ladi. G’oyani yuzaga chiqarishda syujet, motiv, qahramonlardan foydalaniladi. “Alpomish” dostoni xalqning asriy g’oyalari va intilishlarini o’zida mujassamlashtirgan. Har qanday yovuzliklarni yengib, ezgulik tantanasi uchun kurash, haqiqat va adolat g’alabasiga intilish, baxtiyor va farovon hayot orzusi, el-u yurtga samimiy muhabbat, dushmanga shafqatsiz g’azab va nafrat, mardlik va fidokorlik, vafo va sadoqat, do’stlik, qardoshlik, inson huquqi va nomusini ulug’lash qahramonlik dostoni – “Alpomish”ning asosiy g’oyasini tashkil qiladi. Bunday oliyjanob g’oyalarda dostonida qahramonlik va vatanparvarlik motivlari orqali dostonidagi xalq qahramonlari qiyofasida, ularning kurashida ifodalanadi.

“Alpomish” dostonining barcha variantlarida Qultoy obrazi uchraydi va voqealar rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Qultoy obrazi bir qancha variantlar, jumladan, Fozil shoir, Umir shoir variantlarida kelib chiqishi qul sifatida ko’rsatiladi va shu bilan birga Alpomishning ustoz sifatida ta’rif beriladi. Abdunazar Poyonov Alpomishga ustozlik maqomidagi Qultoyni quldan emas, balki aslzodalardan ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu variantda Qultoy qul emas, balki, Dobonbiyning farzandllaridan biri Bobinbiyning o’gli,

Boybo'ri va Boysariga qarindosh – amakivachcha sanaladi. Dostonda Qultoyning asl ismi Qulahmad, ya'ni xalqning emas, balki Allohning quli ma'nosida ishlatilgan va erkalash jarayonida Qultoy (Erkatoy qul) bo'lib ketganligi ta'kidlanadi. Bu ta'rif ham bejiz emas. Abdunazar Poyonovning individual mahorati shundaki, baxshi Qultoy obrazini shunchaki aytib o'tmaydi, balki Alpomishga munosib ustoz, diniy tasavvurlarga ko'ra qirq chiltandan biri bo'lgan Alpomishning piri sifatida ta'riflaydi.

Folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov "Surxon vohasi dostonchilik an'anasida "Alpomish" talqini maqolasida dostondagi Shohimardon pir bilan bog'liq jihatlarni izohlar ekan, uni dostondagi Qultoy obrazi bilan birlashtiradi. "Shohimardon pir bilan bog'liq o'rinlar, aslida o'zida ajdodlar kultini tamsil etgan Qultoy obraziga tegishli deb qarash kerak. Qultoy dostonda oddiy bir cho'pon emas, Alpomishga hamisha ko'mak beruvchi homiy ruh<sup>17</sup>. Olim fikrini izohlar ekan, yana dostondan misol keltiradi: "Dostonda Alpomishning Qultoyga tutingan o'g'il ekani aytiladi. "Bilmaganlar Alpomish Qultoyning uli der edi". Alpomishning yelkasidagi besh panja izining biri Qultoyga tegishli ekanligi ham, zindondan qaytgan, ya'ni qayta tirilgan Alpomishning Qultoy qiyofasiga kirishi ham bejiz emas<sup>18</sup>. Dostonda Alpomishning Qultoy obrazi bilan bog'liq o'rinlar juda ko'p uchraydi, ammo olim Jabbor Eshonqulov aytganidek, Shohimardon pir obrazini Qultoy deb tushunmaymiz, Qultoy ham Shohimardon pir kabi qirq chiltanning biri deb tushunishimiz lozim. Qultoyning ustozlik, pirlilik maqomi o'zgacha, Shohimardon pirdan g'oyibona so'ralsa, Qultoydan amaliy o'rganish hodisalarini uchratamiz. Masalan, ot tanlash payti ham Qultoy ot beradi. Abdunazar Poyonov variantida Alpomish Qalmoqqa birinchi safarida o'z otasi Boybo'ri ruxsat bermaydi. So'ng Qultoyga uchrab, undan oq yo'l so'raydi. Qultoy ot chaqirib shunday duo qiladi: "Ana, senga nasib qilgani shu ekan, nasib bo'lsa, ishing o'ngidan kelib, oydin yuz bilan yoringni olib kelasan"<sup>19</sup>. Alpomish uzoq safarga otasidan emas, balki Qultoy bobosidan duo olib yo'lga tushadi. Yetti yillik zindondan qutulib qaytganda ham tuya boqayotgan otasi, qo'y boqayotgan singlisiga o'zini tanitmay, birinchi bo'lib Qultoyga uchrab, undan duo so'rashi yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Alpomish Qultoyning yo'rig'i bo'yicha ish ko'radi:

– Menga duo bering, bir boshdan qirayin, – dedi.

– Bu ishing bo'lmaydi, ... Mening bir hiylam bor, shuni qilasan. Sen bilan

<sup>17</sup> Alpomish. Doston. Aytuvchi Abdunazar Poyonov. Nashrga tayyorlovchi Jabbor Eshonqulov Toshkent.: "Akademnashr" 2018. 9-bet.

<sup>18</sup> O'sha asar. 9-bet.

<sup>19</sup> O'sha asar. 121-bet

biz qarindosh, sening jasading mening jasadimga o'xshaydi. Mening kiyimlarimni kiyasan, soqol-mo'ylovni qo'yasan. Odamlar tanimaydi, Qultoy deydi. Elni oralab yuraverasan. Do'st kim, dushman kim ajratib olaverasan, so'ngra do'stni qoldirib, dushmanni boshini olasan, u yog'ini o'zing bilasan, – dedi”<sup>20</sup>.

Qultoyning Alpomishga ustozlik maqomining amaliy jihatini yuqoridagi fikrlar ham isbotlaydi. Bunday o'rinlar dostonida juda ko'p. Qultoy Alpomishni yoshligidan boshlab tarbiyalagan. Unga “ot minish, ot chopish, ko'pkari, qilichbozlik, nayzadastlik, olishish, ov qilish, yoy tortishni”<sup>21</sup> o'rgatib borgan. Hakimbek Qultoyni bobo deb chaqiradi. “Alpomish” dostonining deyarli barcha variantlarida Qultoy Alpomish tarafidan “bobo” yoki “ota” deb chaqiriladi. Xalqimizda “Ustoz otangday ulug'” degan naql bor. Bu o'rinda ustozlik maqomida bo'lgan kishining qul bo'lsa-da, ota kabi e'zozlanishi, darajasi ko'tarilishi haqida so'z boradi. Bu holat yozma adabiyotda ham uchraydi. Masalan, “O'tkan kunlar” romanida sotib olingan qul – Hasanaliga Otabek “ota” deb murojaat qiladi.

“Alpomish” dostoni variantlari umumiy syujet qurilishi bayoni bilan bir-biriga o'xshasa-da, voqealar tasvirining har biri o'ziga xosdir. Hatto ayrim motivlar, ba'zi epizodlar butunlay boshqacha yo'sinda talqin qilinadi. Bu dostonlar janubiy voha dostonchilik maktabining g'oyaviy-badiiy an'analarini o'zida aks ettirganligi bilan xarakterlanadi.

“Alpomish” dostonining Abdunazar Poyonov varianti Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti darajasida juda mukammal emasdek, ayrim o'rinlar atay cho'zilgandek tuyulishi mumkin, biroq “Alpomish” dostonining har bir varianti, shu jumladan, voha dostonchiligining eng go'zal namunasi bo'lgan ushbu variant o'zbek xalq epik ijodida o'z o'rni va badiiy qimmatiga ega. Zero, mazkur variant bugungi o'zbek dostonchilik san'atining shakllanishi, taraqqiyot tamoyillari, “Alpomish” dostonining bugungi jonli ijro jarayonidagi holatini tadqiq etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

---

<sup>20</sup> O'sha asar. 390-bet

<sup>21</sup> O'sha asar. 31-bet

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. “Alpomish”. Doston. O‘zbek xalq qahramonlik eposi. Aytuvchi: Abdunazar Poyonov. Nashrga tayyorlovchi: Jabbor Eshonqulov. – Toshkent.: “Akademnashr” 2018.
2. Alpomish. Doston. Aytuvchilar Umir baxshi Safarov, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchi Jabbor Eshonqulov. – Toshkent.: “Akademnashr” 2019.
3. Mirzayev. T. Alpomish dostonining o‘zbek variantlari. – Toshkent.: “FAN” 1968.
4. Turdimov Sh.G. Etnos va epos. Toshkent: O‘zbekiston. 2012.

**КИМ ХУН – НОВАТОР ЖАНРА ИСТОРИЧЕСКОГО РОМАНА****Ким Елена Александровна**

ТГПУ им. Низами, магистратура 2 курс

Ташкент, Узбекистан

Научный руководитель: **Ли Ю Ми** (ТГПУ им. Низами)

**Аннотация:** Интерес к корейскому языку с каждым годом растет среди русскоязычных студентов в Республике Узбекистан. Для глубокого изучения корейского языка нужно учитывать историю, культуру и литературу корейского полуострова. Однако на данный момент существует нехватка информации и учебного материала на русском языке по современной корейской литературе. Именно это приводит к затруднению среди студентов на занятиях по литературе Кореи. Мы попробовали рассмотреть одну из самых важных фигур на современном писательском поприще – деятельность романиста Ким Хуна. Романы Ким Хуна уникальны, именно благодаря им произошел «переворот» в сознании людей о жанре исторического романа.

**Ключевые слова:** корейский язык, современная корейская литература, русскоязычные студенты, жанр исторического романа.

**I. Введение**

Республика Корея 30 декабря 1991 года стала первой страной Азиатско-Тихоокеанского региона, признавшей независимость Республики Узбекистан, а дипломатические отношения между двумя странами были установлены 29 января 1992 года. С этого года непрерывно устанавливаются не только дипломатические отношения, но также ключевую роль играет сотрудничество в сфере культуры и образования.

В 2018-2019 учебном году в Республике Узбекистан осуществляют деятельность 12 школ, где преподают корейский язык. При этом число классов, где обучают корейский язык, увеличилось с 91 в 2017-2018 учебном году до 153 в 2018-2019 учебном году. Естественно, количество школьников, которые изучают корейский язык, в 2018-2019 учебном году составило 5466 детей. Данный показатель по сравнению с 2017-2018

учебным годом вырос на 2728 учеников<sup>22</sup>. Следственно, интерес к корейскому языку, истории и культуры Кореи среди школьников и студентов непрерывно растет, однако существует значимый пробел в знаниях современной корейской литературы. Причиной тому служит отсутствие литературных пособий и материала на узбекском и русском языках. Необходимо создание четкого представления о современной корейской литературе для иностранных, в нашем случае, русскоязычных студентов.

## II. Особенность современной корейской литературы

В современной корейской литературе, особенностью которой является разнообразие форм, смешение и перемешивание жанров и стилей, происходит реанимация многих жанров, в военные годы утративших свою актуальность.

Важной чертой современного литературного пространства является размывание границ между элитарной и массовой литературой. В отличие от литературы конца XX века, когда при всей пестроте картины и многообразии жанров и стилей все же можно было выделить стилевые тенденции и направления, новейшая литература — это литература авторских художественных моделей. Многообразие писательских стилей, авторских жанров в современной литературе свидетельствует о свободе ее развития и существующих перспективах.

Современная корейская литература XXI века существенно отличается от корейской литературы XX века, здесь нет жесточайшей цензуры, прозаики и поэты не разделяются на разные литературные школы. Здесь каждый пишет о своем, о наиболее интересующем его и читателей свободно, открыто, не завуалированно, если он сам того не желает.

## III. Литературный мир писателя Ким Хуна

Ким Хун (金薰, 1948년 5월 5일) - корейский писатель, очеркист, литературный критик, корреспондент. Долгое время работая газетным репортером, он научился распознавать психологию людей в экстремальных обстоятельствах. Способность Ким Хуна различать важные детали и значимые моменты в хаосе жизненных ситуаций,

---

<sup>22</sup> <https://www.uzdaily.uz/ru/post/43258> «Количество учащихся, изучающих корейский язык, в течение года выросло в два раза».



которую он усовершенствовал, трудясь на журналистском поприще, он вложил в свой первый роман «*빛살무늬토기의 추억*» («Воспоминания о глиняной посуде»). Герои, которых хочет передать на письме Ким Хун уникальны своей простотой. Это обычные моряки, которые тянут канаты на борту, это обычные путешественники на велосипедах, которые крутят педали, несясь навстречу неизвестному, однако именно таких людей берет писатель за эталон прекрасного. Будто под микроскопом он наблюдает за внутренним и внешним и пытается все чувства передать словами.

*«Ким Хун - один из немногих писателей, который может заинтересовать современных читателей событиями древнего периода»<sup>23</sup>.*

Ким Хун не просто отличный писатель, он человек чести. У него свои твердые принципы. Он не подражает большинству, только потому, что оно большинство, сохраняет среди людей свою индивидуальность. Это качество проявляется и в произведениях. Так в романе «*Песнь меча*» остро чувствуется критика современного корейского общества, на историческом фоне осуждается жадность и алчность людей XXI-го века. Конечно, Ким Хун такой же человек, как и все: ему присуще страх, печаль, злоба. Однако именно эти чувства помогают писателю бороться за высокие моральные устои. Главный герой в его исторических романах – это некий прототип самого писателя. Он также ищет смысла, также пытается понять конечную цель своего существования, и до конца непоколебим в своих убеждениях.

*«Люди, которые говорят, что литература может спасти человека, направить его душу в правильное русло – просто пытаются покрасоваться перед публикой. Я не верю высокопарным словам о том, что литература имеет чистейшую ценность, что она выше человеческого быта, и что она может управлять нашей жизнью. Я считаю, что литература не столь важна, как ее превозносят. В первую очередь нужно думать об охране нашего отечества, о том, чтобы не было голодающих. Нужно разрабатывать системы по устранению проблем в городах и селах, построить дома нуждающимся...и таких общественных проблем очень много. И самое последнее, о чем должны думать в данной ситуации - литература. Я имею ввиду не только литературу, а все то, что связано с болтовней. Есть такая фраза:*

---

<sup>23</sup> Литературный критик Нам Джину

«Человек с пером в руке, сильнее человека, с мечом». Однако это очень глупо. На самом деле никто не говорит, что меч сильнее пера, потому что это и так ясное дело. Но те, кто пишут, думают, что могут свысока диктовать и кричать что-то – вот это неправильно. Литература не превозносит существование человека, нельзя так думать и делать. Литература знает свое место в реальности, также и людям, связанных с литературой, должны знать свое<sup>24</sup>.»

На вопрос почему Ким Хун стал писать, он отвечает просто: «Захотелось проявить себя» и «Случайно появилось дело по душе, которое к тому же стало кормить меня».

Ким Хун – писатель реалист, он не приукрашает, не гиперболизирует действительность. Человек, ставящий моральные и нравственные ценности превыше всего. Работа журналистом помогла ему освоить навыки психолога, уметь распознавать крупные и мелкие крупинки человеческого поведения и анализировать их. Поэтому герои исторических романов Ким Хуна представлены в первую очередь обычными людьми с обычными проблемами и мыслями. Литература для него как способ самовыражения, дело, которое помогает выплеснуть свои идеи на бумагу, но никак не больше. Он не превозносит писательское поприще, не считает литературную деятельность чем-то особенным, наоборот, высмеивает тех, кто так поступает.

Почему же многие читают произведения Ким Хуна? Его стиль написания крайне сдержанный. Для начала нужно разобраться со стилем написания. **Первое**, при помощи коротких предложений появляется тесная языковая связь. Написание произведений строится из простых предложений. Также и Хемингуэй использовал для написания простые предложения. Простые предложения, состоящие в основном из подлежащего и сказуемого. Поэтому все предложения словно острие ножа врезаются в память. Предложения, состоящие не больше из 10 слов, добавляют еще большей напряженности.

«밤새 바람이 불었다. 새벽에 비가 내렸다. 배설을 잡지 못했다. 저녁 때 여종을 불러서 머리의 서캐를 잡게 했다<sup>25</sup>».

«Всю ночь дул ветер. К утру пошел дождь. А я так и не смог поймать Песоль. Вечером позвал рабыню, чтобы почистила мне голову».

<sup>24</sup> Ким Хун в интервью с изданием «월간조선»

<sup>25</sup> Ким Хун. «Песнь меча». 생각의 나무(2001)

Длинные предложения не дают возможности сосредоточиться. Здесь умеренность и сдержанность в стиле Ким Хуна дают читателю полностью окунуться в события, глубоко проникающие в душу.

**Второе**, умелое использование языка для затрагивания чувств. Стиль написания Ким Хуна строится таким образом, что он может затронуть 5 чувств человека. У читателя появляется заблуждение, словно он чувствует запахи, исходящие из книги.

«*멀치 젓국 썩는 냄새가 났다*<sup>26</sup>».

«*От нее пахло забродившим рыбным рассолом*» - так идет описание женщины, которая давно не купалась. Читая это, кажется, что мы находимся рядом, и тут же хочется прикрыть нос. В романе «Песнь струн» когда идет описание Хвимори (музыкальное произведение, исполняющегося в быстром темпе) нам кажется, что мы тоже слышим его.

«*소리는 귀로 들어왔고, 입으로 들어왔고, 콧구멍과 땀구멍으로 쏟아져 들어왔다*<sup>27</sup>».

«*Звуки разлетались по всюду, попадали в уши, рот, нос, в каждую клетку тела*».

Язык, который затрагивает чувства, имеет силу создавать живые предложения.

**Третье**, поиск основы через разделение (разрушение) языка. При нарушении языкового диалога, появляется другой навык. Например, задав вопрос наставнику, вы не получите ответа. Таким нарушением языкового диалога, вы поймете, что ваш вопрос не имеет смысла быть. Иногда такой метод служит хорошим способом передать нужную информацию. Ким Хун в своих романах использует именно такой способ.

#### IV Заключение

На данный момент существует необходимость создания четкого представления о современной корейской литературе у иностранных студентов. Имеется достаточно материала (русскоязычного), для изучения древней корейской литературы, а также литературы военного и послевоенного времени. Однако литература, как и любая другая наука, не стоит на месте. Преобразуются новые формы, читателей

<sup>26</sup> Ким Хун. «Песнь меча». *생각의 나무*(2001)

<sup>27</sup> Ким Хун «Песнь струн». *생각의 나무*(2004)

начинают увлекать жанры, до сих пор не привлекающие никакого внимания. Так и в случае с литературой начала XXI-го века, здесь читатели, как ни странно, с большим интересом углубляются в историю, исторические личности заново возрождаются на страницах. Эпический жанр, а именно исторический роман, является значимым для литературы XXI-го века. Особое место в ряду отечественных романистов занимает Ким Хун. Именно он выдающийся писатель, известный журналист, публицист, сыграл ведущую роль в воссоздании исторической эпопеи, и вывел исторический роман на новый уровень.

### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. <https://www.uzdaily.uz/ru/post/43258> «Количество учащихся, изучающих корейский язык, в течение года выросло в два раза».
2. Ким Г.Н. Современная корейская проза как историко-страноведческий источник. Вестник КазНУ. Серия Востоковедения. №2 (47). 2009.
3. Ким Хун «Песнь струн». 생각의 나무(2004)
4. Ким Хун. «Песнь меча». 생각의 나무(2001)
5. 김원규(2019)역사적 인간과 소설적 인간의 사이\_칼의 노래
6. 김주언(2010)김훈 소설의 자연주의적 맥락

## TRANSLATION OF NATIONAL SPORT GAMES

**Mamurova Mehrinoz Jamil kizi***Uzbekistan State University of World Languages**1st stage master*

**Annotation:** *This article deals with the translation of national sports games. Folk national games are an important activity and social pedagogical process, passed down from generation to generation. Translation is a spiritual activity that has been practiced since ancient times. It has played an important role in the translation of world culture and the culture of individual peoples. The translation of national sports games is related to culture and requires special attention in translation.*

**Key words:** *national sports games, translation studies, translation methods, culture, national mentality, translator, linguistics, terms.*

It is no exaggeration to say that times are changing rapidly, that great changes are taking place in every sphere, and that new reforms are a period of great change. The fact that in our independent Republic today the attention is paid to the field of translation, is a good example of this.

Speaking in a foreign language is aimed at shaping one's personality, that is, mastering the cultural heritage created by the learner. Listening comprehension, speaking, reading, writing enriches the student's previous experience, and mutual understanding of the interlocutors is the main criterion for knowing a foreign language.

Problems of translation are widely covered in the research of Uzbek translators J.Sharipov, G.Salomov, K.Karomatova, K.Tadjiev, I.Gafurov and other translators. In recent years, there have been studies by scholars such as K.Musaev, D.Gulamova, Sh.Sirojiddinov, G.Odilova on the theoretical aspects of translation methods and techniques, the skill of the translator.

Translation is a spiritual activity that has been practiced since ancient times. It has played an important role in the translation of world culture and the culture of individual peoples. In the early XX century, due to the growing ties of fraternal peoples, the work of translation has become unprecedented.

Translation is closely related to all stages of the learning process as one of the important conditions for the study of the languages of fraternal peoples and foreign languages, so that students can consciously master not

only the studied languages, but also the phenomena of the native language. promotes

Advances in all spheres of life and the scientific and technological revolution and the associated international cooperation and the impending demographic explosion and other important existing civilizations will lead to the development of interstate relations and a society of peoples and nations speaking different languages. Translation is a complex process. Not only sound education but his alertness and dedication too are most required. and many factors that cannot be ignored are often involved.

Differences in the semantic systems of different languages are, without a doubt, the source of many difficulties. The following problems occur during the translation process.

1. Lexical problem. Lack of alternatives to the units of the translated language (foreign language lexicon).

2. Stylistic problem. In addition to neutral words, there are some words and phrases that are used only within certain specific genres.

3. Grammar problem. No grammar tools in another foreign language.

As a result of peoples living in different natural, economic, socio-political conditions, their consciousness, worldview and various special concepts, norms and principles are determined, all of which are reflected in language. However, in terms of technical progress, terms that refer to concepts that have emerged in another country may not have an alternative in another language. Because every living language is constantly evolving and evolving. One of its most advanced components is the dictionary. Unlike other aspects of language, it has been proven, first of all, to expand and change and evolve through lexical dynamics.

An alternative lexicon is a word or phrase that expresses things, processes, and beings that appear in the stages of language development, and which have no alternative in translation. An alternative to non-existent lexicons is "National sports games".

Folk national games are an important activity and social pedagogical process, passed down from generation to generation. Among them are wrestling, all-around, racing and other equestrian games, as well as gatekeeping, stone lifting, various movement games. In their content and forms, along with almost all physical qualities, there are such qualities as friendship, cooperation, solidarity and mutual respect between people. These processes can be seen in the epics "Alpomish", "Gurugli", "Qirq qiz", "Kuntugmush" and dozens of others.

In the conditions of Uzbekistan, Navruz, the holiday of harvest and various national traditions, national games have been used as values. Especially in the current period of formation and stabilization of national independence, the attention to national games is growing. This is due to the fact that the President of the Republic Sh.M.Mirziyoyev and the Government of the Republic have made important decisions on the restoration of national values and the renewal of our spiritual and enlightenment. Socio-economic and cultural reforms are underway. At the heart of this is the upbringing of a healthy generation, a steady step towards a great future and the training of a working masses that meet the requirements of the times.

There is a lot of life science hidden in the game "Varrak". It develops the child's thinking, strengthens his health and at the same time helps him to reach maturity.

Rapid national exercises include double-rope pull-ups, arm wrestling, archery, brisk walking, javelin throwing, jumping over any obstacle, and one-legged strenuous movements. Examples of light national exercises include standing on a swing and swing, flying in a sitting and lying position, and sailing and boat riding.

Pedagogical observations, official interviews, questions and answers prove that in many schools, along with favorite sports such as football, wrestling and volleyball, "Chillik", "Oq suyak ", "Rope pulling", "Soldi", "Shoulder to shoulder", "National rope games such as "Tug of war", "Wrist strength test", "Stone lifting" are widely used in lessons and extracurricular activities. It is even becoming customary to organize special competitions in mobile games.

Nowadays, the content of national national games, such as national movement games, kurash kupkari, racing, dorboz stone-lifting, is also used in the history of their origin. But such activities are unfortunately only to a limited extent with the finger.

It cannot be said that sports organizations and public educators are doing enough to teach students the national games and integrate them into everyday life. This can be seen in the calendar of official sports competitions in districts and cities. In other words, there are no official competitions in national games. Some executives claim that tug-of-war, wrist-testing, and stone-lifting are part of the program and are national sports. These species have long been used as national games not only in Central Asia, but also in Europe and America. It should be noted that the

above-named species are common games that have become ingrained in the lives of the peoples of the world. The boys started wrestling with their brothers, neighbors and friends at a very young age. And girls from an early age are engaged in the national sports that prepare them for fatherhood, motherhood, labor, such as "Argimchak", "Tortishmachak", "Oq terakmi, kuk terak", "Bekinmachoq", "Otib kochar " and so on. Those involved in the application.

In short, every word translation has its place and function. Thus, the translation of Uzbek national sports games into English goes through two stages.

Giving the meaning of the word by means of Uzbek language, ie alternative; words without alternatives transcription, transliteration, transliteration, figurative translation.

As for which stage to use when translating lexical units without alternatives, it depends on many subject factors.

For example, it depends on the personality of the translator, his intellect, his ability and translation, his ability to work with abstract concepts, the process of translation and the style of the text.

The translation of national sports games is also done through transliteration and transcription, which are traditional translation methods. For example:

Arg`imchoq-Argimchok, Tortishmachoq-Tortishmachok, Chillik- Chillik.....

The translated examples are sufficient to show that the lexicon, which has no alternative in the translator, is translated by re-expression. The existence of a non-alternative variant is characterized by the absence of a corresponding word in the target language that conveys this concept.

## REFERENCES

1. Danilenko V. P. Russian terminology. - Explain the linguistic description. M., 1977, p. 73-75
2. Kungurov. R., Tixonov A. Reverse dictionary of Uzbek language. Samarkand, 2005. - 205 p. yazykoznaniiyu. -Lipetsk, 2000. - 388 p.
3. Lesnyx E.V. Otrajenie istorii naroda v slove // Materialy po slavyanskoy pismennosti i kulture. Issue XIX. - Lipetsk, 2001. - 273p.
4. Levtskaya T.R. Fiterman A.M. «Theory and practice of translation from English into Russian» M. 1963. p. 123



5. Muminov O. "A Guide to simultaneous Translation" Tashkent – 2005. 134 b.
6. Reformatskiy A. A. What is the term and terminology. M., 2000. p. 109.
7. Rosenthal D. E., Telenkova M. A. Dictionary of linguistic terms. Posobie for teachers. 2nd ed. M., 1976
8. Salomov G. Fundamentals of translation theory Tashkent - "Teacher" - 1983. 235 p.
9. Salomov G. Introduction to "Theory of Translation" "Teacher" Publishing House Tashkent-1978. 286 b.

**O'TKIR XOSHI MOVNING ASARLARI BILAN DUNYONI ANGLASH****Matkarimova Feruzabonu Alijon qizi,***Andijon viloyati, Ulug'nor tumani, O'SHMU talabasi*

**Anatatsiya:** *O'tkir Xoshimov, "Urushning so'nggi qurboni", "Muhabbat" hikoyalari, "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" asarlari, Dunyoning ishlari, Hakima aya.*

**Kalif so'zlar:** *"Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi mutassil nur sochib turuvchi sehri kuch bor. Bu-ona mehri! Aql kirishi uchun aql tishi chiqishini kutish shart emas", "Inson shu qadar buyukki, uning fazilatlarini o'lchash-dunyoning eng baland tog'ning eng baland cho'qqisiga emaklab chiqish zahmati bilan teng. Inson shu qadar tubanki, uning illatlarini o'lchash-dunyodagi eng baland tog'ning eng baland cho'qqisiga emaklab tushish zahmati bilan teng".*

O'tkir Xoshimovning asarlari kirib bormagan xonadon, asarning nomini o'zidayoq jalb etmagan kitobxon bo'lmasa kerak. Insoniyat yaralibdiki, badiiy adabiyotga bo'lgan oshnolik oiladan shakllanadi va u so'zlarda, harakatlarda namoyon bo'ladi. Ro'yobga chiqarish uchun esa harakat va mehnat, sabot kerak. O'tkir yoshligidan shunday muhitda o'sdi. Keyinchalik adibning o'zi keltirilgan bolalik xotiralari jamlangan "Dunyoning ishlari" qissasida onasi Hakima aya so'zlab bergan rivoyatlar, ertaklar ana shu shirin bolalikning, bevafo dunyoning ishlaridan hikoya qiladi. Asar katta-kichik hikoyalardan iborat, uzoq yillar davomida yozilgan va to'liq tarzda 2005-yil "Sharq nashriyoti" tomonidan nashr etilgan, kitobning so'nggiz bobida adibning quyidagi so'zlari keltirilgan; "Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi mutassil nur sochib turuvchi sehri kuch bor. Bu-ona mehri! Alloh Onani shunday yaratgan! Taqdir ba'zan juda beshafqat onalar farzandlarini bir uyda katta qiladi, ulg'aytiradi, yonma-yon bo'lsin deb, ketma-ket uyli-joyli qiladi, lekin ular katta xayotga qadam qo'ygach, hammasi har tomonga qarab ketadi, taqdir hech bo'lmasa, shu yerda onalarga shafqat qilmaydi". O'tkir Xoshimov 20-asr o'zbek adabiyotida o'z o'rni va uslubiga ega bo'lgan adib. Uning asarlari oddiy va xalqchil ekanligi bilan ham ajralib turadi. Dunyoning ishlari asari ham ana shunday xalqchil asarlar sarasiga kiradi. O'tkir Xoshimov hayot qozonida qaynagan, yozuvchi sifatida hayotdan bir qadam ham ajramay qalam tebratgan ijodkor edi. Adibning hayot yo'liga

nazar solsak, uning xat tashuvchi, muxbir, gazetada bo'lim mudiri, nashriyotda va jurnalda bosh muharrir kabi bosqichlarni bosib o'tganiga guvoh bo'lamiz. Umri davomida qalam tebratgan ijodkor sifatida: "Urushning so'nggi qurboni", "Muhabbat" hikoyalari, "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlarining nomiyoq kitobxonda qiziqish uyg'otadi. Ayniqsa, muallifning purma'no hikmatlarga boy "Daftar xoshiyasidagi bitiklar" asari o'zimizda va xorijda hozirga qadar sevib o'qilmoqda. Unda keltirilgan iqtiboslar, e'tiqodiy qarashlar, hikmatli so'zlar kishini chuqur mulohazaga chorlaydi. Xayotga chaqiriqqa undaydi. "Aql kirishi uchun aql tishi chiqishini kutish shart emas", "Inson shu qadar buyukki, uning fazilatlarini o'lchash-dunyoning eng baland tog'ning eng baland cho'qqisiga emaklab chiqish zahmati bilan teng. Inson shu qadar tubanki, uning illatlarini o'lchash-dunyodagi eng baland tog'ning eng baland cho'qqisiga emaklab tushish zahmati bilan teng", "Bu dunyoda ham, u dunyoda ham hech kimga bo'ysunmaydigan, oqni-oqqa, qorani-qoraga bexato ajratadigan Oliy xakam bor. BU-Tandrining xukmi". O'tkir Xoshimovning "Dunyoning ishlari" asari har bir syujeti hikoyalardan tashkil topgan. Undagi "Gilam paypoq", "Oq-oydin kechalar", "Tush", "Alla", "Oltin baldoq", "O'ris bolaning oyisi", "Iltijo" kabi hikoyalar kishini befarq qoldirmaydi. Ularda o'g'li uchun har qanday mashaqqatga, jon fido qilishga tayyor sharqona ma'naviyatni o'zida mujassam etgan ONA madh etiladi. Asar ortiqcha maishiy tafsilotlar, jimjimadorlikdan xoli. Shu tufayli ham u katta qiziqish va hayajon bilan o'qiladi. Bu qissa haqida O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad aytganidek, <<dostondек o'qiladi. Uni o'qib onalarimizni o'ylab ketamiz>>. Shu o'rinda qissadagi, "Gilam paypoq" hikoyasiga diqqat qilaylik. Unda ona o'z jigarbandini kasallik xavfidan tezroq xalos qilish uchun jonini berishga tayyor. Ona qattiq shamollab qolgan bolasini shoshib, Hoji buvining uyiga yuguradi. Bola darddan biroz yengil tortgach, ona o'z sog'ligini xavf ostiga qo'ygani-oyog'ini sovuqqa oldirgabi ma'lum bo'ladi. Adib mana shu lahzalarda o'zimdаn ko'p ranjib ketaman, deb eslaydi. Chunki, onasining sovuq tushishi bilan sovuq oldirgan oyog'i ishib og'riq beradi. Har safar Kavkazga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman, xanna issiq tutadi, deymanda. Tushmagur onam darrov qo'shnilarga maqtanib, yozuvchi bolam, menga Kavkaz degan joydan shuni ko'tarib kelibdi, deb maqtanadilar. Asardagi "Alla" deb nomlangan hikoyada nihoyatda ta'sirchanligi bilan kishini o'yga toldiradi. Alla-inson hayotidagi ilk tinglaydigan qo'shiq, u vujudimizga ona suti bilan singgan va umrbod unutilmasdir. Yozuvchi bu ezgu qo'shiqni ilohiy kuchga ega bo'lgan, ko'ngilni

eritadigan ohang sifatida ta'riflaydi. Ushbu bobini kitobxon hayajonsiz, entikmasdan o'qish qiyin. "Qarz" hikoyasida qissaning bosh qahramoni Hakima ayaning yana bir insoniy fazilati qalamga olinadi. Hakima aya kamtargina nafaqasini qo'shnilarning xursandchiligiga sarflaydi. Ularning biriga tufli olib bergan bo'lsa, boshqalariga uch oyoqli velesiped, ko'ylak sovg'a qiladi. O'g'illariga esa; "Qarz oluvdim, qarzimni uzyapman", -deya sirli gap aytadi.. Darhaqiqat, "Dunyoning ishlari" qissasini o'qigandan qalbimizni bir-biriga tutash iliq his chulg'aydi-u ham bo'lsa o'z onamizga va umuman, onalarga bo'lgan mehr hissi. Adib bu asarning oxirida yurakni o'rtovchi tuyg'ularga oshno etadi. O'ysining qabri uzra chuqur o'yga tolib "Ittijo" qiladi: "Oyi, esingizdami, xazillashib, bir marta atigi bir marta, meni yam kitob qilib yozsangchi, bolam?-degandiz, oyi, qiziqmisiz, sizni nimangizni kitob qilaman, degan edim. Yillar o'tib mana shu xaqiqatni endi anglay boshladim. Va bolalik chog'larimni esga oluvchi qissaga qo'l urdim, Esingizdami, oyi, ukamga alla aytardingiz. Men allaning ohangiga mast bo'lib uxlab qolardim. O'sha beshikda men ham yotganman. Allangizdan men ham orom olganman. Nima qilay, oyi, men alla aytishni bilmayman. Qabringizni silab qo'ysam, orom olasizmi.. Mana, oyijon, mana... Yo'q, yo'q yig'layotgandim yo'q. Hozir, hozir o'tib ketadi. Oyi, mana o'sha kitob. Yo'q, uni men yozganim yo'q. Uni siz yozdingiz. Meni uni qog'ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos." Muxtasar aytganda, O'tkir Xoshimovning asarlari hali ko'p yillar kelajak avlodning yoritadigan ulkan mayoq bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston xalq yozuvchisi, buyuk adib O'tkir Xoshimovning bir orzusi bor edi: "Shunday asar yozsang, umr bo'yi mayli, nechta roman yozasan, nechta qissa, hikoya, she'r, hech bo'lmasa, shularga teng keladigan, ko'nglingdan joy olgan asaring bo'larkan. Kitobxon kitobni qo'lga olsa-yu shu asar tugaguncha asar qahramonlari bilan birga yonsa-kuysa, ularga qo'shilib yig'lasa, kuyunsa, kechalari to'lganib chiqsa, shu mening-orzum".

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Faxriyor, <<Ayolg'u>>, Toshkent, "Sharq nashriyot-matbaa" Bosh Tahririyati, 2000.
2. Erkin Malik, <<Bir kuni Zulfiya Opa...>>, Toshkent, "Sharq Ziyo-Zakovat" nashriyoti, 2017.
3. O'tkir Xoshimov, <<Dunyoning ishlari>>, Toshkent, "Yangi Asr Avlodi",

## ALISHER NAVOIY MEMUAR ASARLAR MUALLIFI SIFATIDA

**Sobirova Sadoqat Ikromiddin qizi**

*Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahridagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.*

**Davronova Farangiz Alisher qizi**

*Samarqand Davlat chet tillar instituti roman-german tillari fakulteti ingliz filologiyasi yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Alisher Navoiy ustozlari, otaxoni Sayyid Hasan Ardasher haqida o'zining qator asarlarida fikr bildirgan. Ustoziga bag'ishlab "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asarini ham bitgan. Hasan Ardasherning vafotiga bag'ishlab marsiya ham yozgan. Bundan tashqari, "Soqiynoma"da, "Nasoyim ul-muhabbat"da, "Majolis un-nafois"da va "She'riy maktub"da ustoziga bag'ishlangan fikrlarini yozib qoldirgan. Bu holat shundan dalolat beradiki, Alisher Navoiy buyuk ustoz bo'lish bilan bir qatorda yaxshi shogird ham bo'lgan.

**Kalit so'z :** holot, so'fiylik mafkurasi, o'zbek nasri, memuar asar, Sayyid Hasan Ardasher, manoqib, tazkira, soqiynoma

XV asrning ikkinchi yarmida o'zbek mumtoz adabiyoti o'z taraqqiyotining eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Bu yuksalish asos-e'tibori bilan ulug' shoir va adib, ajoyib mitafakkir va olim, davlat arbobi va madaniyat homiysi Alisher Navoiy nomi bilan bog'langan edi.

Alisher Navoiyning "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asari uning eng yaqin kishilaridan biri, davrning yirik madaniyat arbobi, ko'zga ko'ringan shoir va mutafakkiri Sayid Hasan Ardasherning hayoti va faoliyatini yoritishga bag'ishlangan.

Navoiyning aytishicha, uning Hasan Ardasher bilan birinchi uchrashishi 860 hijriyda, 1455-56 milodiyda, ya'ni Navoiy 14-15 yoshlarida ekanida sodir bo'ladi. Ma'lumki, 1452-yilda G'iyosiddin Kichkina oilasi Iroqdan Hirotga qaytadi. 1456-yilda Alisher Mashhadga boradi va Xuroson shohi Abulqosim Boburning xizmatiga kiradi. Sayyid Hasan ham shu saroyda xizmatda edi.

Sayyid Hasan Navoiyni yoshligida va undan keyin ham g'oyaviy jihatdan yo'naltirib, ijod etishiga undar va qo'lidan kelganicha rag'batlantirib, uning ijodi rivojlanishiga yordam berar, hamdardlik va sirdoshlik qiladi. Navoiyning o'zi bu haqida shunday deydi:

"Va bu faqirni faqr tariqig'a dalolat va irshod qilurlar erdi, nazm

ayturg'a targ'ib ko'rguzurlar erdi".

Navoiyning Sayyid Hasan haqida xotira asar yaratishi tasodifiy emas, albatta. Buning uchun Navoiyning yigitlik davrida Sayyid Hasanga bitgan maktubini (Navoiy bu asariga "Masnaviy" deb nom beradi) eslash joizdir. Keyinchalik Navoiy Sayid Hasan haqida "Nasoyim ul-muhabbat", "Majolis un-nafois" va "Soqiynoma" da fikr yuritadi, uning vafotiga bag'ishlab har bandi 8 baytli yetti banddan iborat marsiya ham yozgan.

Alisher Navoiyning Sayyid Hasan shaxsining sifatlarini o'z ichiga olgan birinchi asari mohiyat e'tibori bilan ijtimoiy masalalarga, muallif duch kelib turgan muammolarga bag'ishlangan. To'g'ri, bu asarda shaxsan Sayid Hasanga bag'ishlangan misralar ham bor. Masalan,

Vafo anga pasha, saxo anga fan,

Vafou saxo koni Sayyid Hasan...

Lekin bu kabi misralar Sayyid Hasan xarakteridagi nozik jihatlarni ochib berishga qaratilmagan. Bunday vazifa yuklatilgan asar Navoiyning "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asaridir.

Navoiy do'stining nomini abadiylashtirish maqsadida Sayyid Hasanning vafotidan so'ng, ya'ni 896/1490-91 yillarda o'zining mazkur asarini yaratadi. Navoiyning xabar berishicha, Sayyid Hasan 73 yoshida vafot etadi. Demak, uning tug'ilgani 1425-26 yillarga to'g'ri keladi.

Navoiy "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" da o'z ustozining hayoti va faoliyatini kengroq va chuqurroq aks ettirishni, xulq-atvoridagi turli tomonlarni ochib berishini, ya'ni Sayyid Hasan nomi keltirilgan boshqa barcha asarlaridagi ma'lumotlarni umumlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Navoiy "Majolis un-nafois" ning ikkinchi majlisida Sayyid Hasan to'g'risida to'xtalib o'tadi. Bunda holotdagi ma'lumotlardan mustaqil bo'lgan fikrlar aytiladi. Tazkirada Sayid Hasanning fors-tojik tilidagi qit'asi keltiriladi:

Chi xush boshad sabuhi bo dilorom,

Labolab az kadah dam dar koshidan.

Chi g'uncha har du dar yak piraxoni tang,

Baham peshdanu dam dar koshidan.

Mazmuni: Dilorom bilan tongda

To'la qadahlarni shimirish,

G'uncha singari har ikkimiz tor ko'ylak ichida

Tirmashib quchushmog'imiz naqadar yoqimli.

Navoiy Sayyid Hasanbu qit'ani rindlik chog'ida yozgan deb aytadi.

"Ammo taqvo va zuhd chog'ida turkga bu bayt ham yaningdurkim

Ilohiy,nuri irfondin ko'ngulga bir safo bergil,  
Ki isyon zulmati ichra xarob ahvolu hayrondur."

Navoiy asarlari ichida Sayyid Hasan nomi zikr etilgan keyingi asar "Soqiynoma"dir.Soqiynoma Navoiygacha bo'lgan o'zbek adabiyoti tarixida mustaqil janr sifatida taraqqiy etmagan.Navoiyning o'ziga xos qurlishga ega bo'lgan bu asari 32 banddan tashkil topgan bo'lib,,458 baytdan iborat.Asarning har bir bo'limi ma'lum shaxs yoki mavziga qaratilgandir.Jumladan,XXVI bob Sayyid Hasanga bag'ishlangan.

Ayam, [19.05.21 19:01]

Navoiy "Soqiynoma"da Sayid Hasanni o'zining piri deb ataydi.

Manga zohirda atobu ustod,

Lek ma'ni aro piri irshod

Navoiy Sayyid Hasan vafotiga bag'ishlab har bandi sakkiz baytli yetti banddan iborat marsiya ham yozgan.Marsiyada Navoiy hayotining og'ir vaqtlarida unga madadkor bo'lgan do'sti,mehribon g'amxo'ridan judolik alamlari o'z aksini topgan.Shuningdek,marsiyada Sayyid Hasanning fazilatlarini,el-yurt orasidagi hurmati zo'r ehtirom bilan ta'rif etilgan.

Shuningdek,Sayyid Hasab Ardasherining nomi Navoiy asarlaridan "Nasoyim ul-muhabbat"da uchraydi.

Asardagi Sayyid Hasan haqidagi ma'lumot "Darvesh Sayid Hasan — Xuroson viloyatining ashrofidin edilar..." deb boshlanadi

Bu yerda Sayyid Hasanning Mavlono Muhammad Tabodg'oniyning etagini tutib,so'fiylik yo'lga kirganligi ta'kidlab o'tiladi.

Yuqoridagi olti asarda Sayyid Hasanning ta'rifu tavsifiga duch kelar ekanmiz,har bir asarda Sayyid Hasanningbma'lum bir sohadagi faoliyatini o'z aksini topganligini ko'ramiz."Holoti Sayyid Hasan Ardasher"da esa to'liqroq tasavvur va ma'lumotga ega bo'lamiz.Sababi epiktasvir o'zining keng qamrovli,qahramon xarakterini ochib berishda ruhiyat tahlili usullaridan keng foydalanish mumkinligi bilan ahamiyatlidir.

Navoiyning Sayyid Hasan Ardasher haqida asar yaratishi o'z qahramoni mansub bo'lgan ijtimoiy guruh faoliyatini yaxshi bilgani va hayotga bo'lgan munosabati,dunyoqarashi o'zining orzu-intilishlariga hamohang bo'lganligidir.

Holotda Sayyid Hasanning dunyoqarashi va insonparavarligi,shaxsiy hayoti va ma'naviy boyligi ,xatti-harakati va xulqi davrning ilg'or an'analari

bilan bog'lanadi.

Asarda Sayyid Hasanning ma'naviy dunyosini ochib berishga alohida e'tibor beriladi. Bu narsa asarda muallif tomonidan qayta-qayta ta'kidlanadigan asosiy ohang, yetakchi g'oyadir.

“Va rindlik tavrida necha nima alarg'a dast beeib erdikim, bu toifaning ozig'iga muyassar bo'lib erkan, biri saxon zotikim, bazm va ziyofat vaqtida oz va ko'pning tafovuti ko'runmagay va eldin o'ziga juzviy nima bag'oyat ko'p va quliy ko'runub birga o'n evaz yetkururning fikrida bo'lg'ay.

. Nazm:

O'zidan o'zga elga daryo— qatra oso,  
Vale eldin o'iga qatra—daryo”

Sayyid Hasan Ardasher ham o'z davrining ilg'or fikrli kishisi sifatida turli mazmundagi hayotiy muanmolarga o'zining munosabatini bildirgan.

Asarda keltirilgan yana bir fikr o'zida Sayyid Hasanning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini mujassam etgan:

“Alar der erdilarkim, dunyo johining mastligi chog'ir mastlig'iga o'xshamaskim, chog'ir mastlig'i ichgan kunidir, ammo joh mastlig'i agar sohib jog' yillar jog' ustidadurkim, mastdur, aning maxmurlig'i johdin ma'zul bo'lg'anidadur. Ne muskir xamrdurkim, badmastlig'i odamiyni yillar o'zidin bexabar qilg'ay”.

Yuqoridagi fikrlar Sayyid Hasanning faqrlig tariqatiga kirganligini ta'kidlovchi holotdagi fikrlar bilan hamohangdir.

Holotda keltirilgan ushbu bayt fikrimizning dalilidir:

Rindlardun bir aningdek yo'q erur ogoh rind,  
Shoh edi rind ahlig'a, balkum erdi shohi rind.

**Таянч сўз ва иборалар:** глобаллашув, цивилизация, синергетик ёндашув, бўлажак ўқитувчилар, ахлоқий компотентлик, ривожлантириш, педагогик мазмун, ўқув жараёни, халқаро таълим стандартлари, илғор педагогик технология, бўлажак мутахассислар, касбий-компотентлик.

Жаҳондаги глобаллашув ва таълимнинг интеграциялашуви жараёнларида бўлажак мутахассисларнинг касбий-компотентлигини ривожлантириш масаласи долзарб вазифалардан бири сифатида белгиланмоқда. Хусусан, АҚШнинг Гарвард университетида ташкил этилган Career Services маркази томонидан иш берувчилар ўртасида ўтказилган ижтимоий сўров натижаларига кўра иштирокчиларнинг 74,8% қисми малакали мутахассиснинг ахлоқий компотентлигини белгиловчи муҳим мезон сифатида креативлик ва ностандарт тафаккур тарзи билан боғлиқ сифатларни белгилаган. Сингапурдаги Нанъян технология университети Бизнес мактабида ҳам айнан шунга ўхшаш сўровнома натижасида 62,5% иш берувчилар битирувчининг креативлик сифатларини муҳим сифатлар қаторидаги учликка киритишган.

Ўзбекистонда кадрлар тайёрлашнинг сифат даражасини ошириш, халқаро стандартлар асосида олий малакали мутахассислар тайёрлаш учун зарур шарт-шароитларни яратиш, ҳар бир олий таълим муассасасини жаҳоннинг етакчи илмий-таълим муассасалари билан яқин ҳамкорлик алоқалари ўрнатиши, ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқув-услубий материалларини кенг жорий қилиш, талабалар, илмий-педагог кадрларни замонавий касбий билимлари ва креативлик қобилиятларини ривожлантириш, ёшлар аудиторияси билан иш олиб боришда интерфаол усуллардан самарали фойдаланиш масалалари Бугунги кунда жаҳонда таълимга компетентли ёндашув асосида битирувчиларнинг рақобатбардошлигини ошириш, педагогларнинг креатив компетентлигини ривожлантириш орқали ижодий таълим жараёнини лойиҳалаштиришнинг замонавий методик таъминотини яратиш, бўлажак ўқитувчиларининг ўз-ўзини тарбиялашда касбий фаолият соҳаларига йўналтирилган креативлик қобилиятларини ривожлантириш, шунингдек олий таълимнинг таълим сифатини таъминлаш жараёнидаги ижтимоий ролини ошириш масалалари долзарб йўналишлардан бири сифатида тадқиқ этилмоқда. Ана шу нуқтаи-назардан илғор хорижий тажрибалар асосида замонавий касбий таълим мазмунини интернационализациялаш ва модернизациялаш, компетенцияларга асосланган инновацион таълим муҳитини шакллантириш, интерфаол ўқитиш методлари ва технологияларини амалиётга кенг татбиқ этиш синергетик ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда ахлоқий компотентликни ривожлантиришнинг педагогик мазмунини ривожлантириш механизмларини янада такомиллаштириш муҳим ўрин тутди. Инновацион таълим ва ахборот-коммуникация технологиялари воситасида талабаларда ўз-ўзини ижодий фаолаштириш, креатив ишланмалар (маҳсулотлар)ни яратишга хизмат қилувчи шахсга йўналтирилган эркин таълим муҳитини ташкил этиш А.Абдуқодиров, Н.Азизходжаева, У.Бегимқулов, Ж.Йўлдошев, Н.Сайидаҳмедов, Ў.Толипов, Г.Чижаква, Б.Ходжаевларнинг илмий тадқиқотларида асосланган. Россия олимларидан Н.В.Горшунова, А.П.Манченко, Н.Б.Славина-Шкретова, В.Л.Федяев, М.С.Ельчанинов, А.Н.Гатвинский, О.В.Ковальская, Г.Ф.Ткач, В.М.Филиппов, В.Н.Чистохвалов ва бошқалар модернизация жараёни ва унда янги педагогик ғояларнинг татбиқ

этилиши, замонавий Россияда ижтимоий модернизация ва унинг маънавий-аксиологик аспекти, таълимнинг такомиллашувида сиёсий модернизациянинг тутган ўрни, таълимда математик моделлашни модернизация қилиш, модернизация жараёнининг синергетик аспекти, таълимни бошқариш хизматини модернизация қилиш, ҳудудий таълим тизимини модернизация қилишнинг иқтисодий механизми ва ривожлантириш омиллари, дунё таълимининг ривожланиш тенденциялари ва ислохотларни илмий-тадқиқот ишларида ёритиб ўтганлар.

Педагог олимлар томонидан талабаларнинг касбий тайёргарлигини шакллантириш, ўқитиш самарадорлигини оширишда инновацион таълим технологияларидан фойдаланиш муаммоси билан боғлиқликда илмий изланишлар олиб борилган бўлса-да, талабаларда креативлик қобилиятларини ривожлантиришнинг педагогикпсихологик аспекти, контрсуггестив, тезаурус ва интеракцион омилларини тадқиқ этиш; интерфаол таълим технологиялари ва методлари воситасида синергетик ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда ахлоқий компетентликни ривожлантиришнинг педагогик мазмуни педагогик механизмларини такомиллаштириш, ижодий йўналтирилган таълим дастурларини ишлаб чиқиш, олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларининг ўз-ўзини тарбиялашда креативлик потенциалининг ривожланганлик даражасини прогностик ва квалиметрик методларини ишлаб чиқиш долзарб илмийназарий ва амалий аҳамиятга эга масалалардан саналади.

XXI асрда жаҳонда гуманизм, инсон қадрқиммати, шаъни, ҳаёти, ор-номуси, дахлсизлиги ҳақидаги ғоялар энг олий қадрият даражасига кўтарилмоқда. Синергетика таълимоти XX асрнинг сўнги чорагида вужудга келган бўлсада, синергетик жараёнлар азалдан мавжуддир ва бундай жараёнларга хос қонуниятларни инсоният қадимдан таҳлил этиб келади. Синергетика таълимоти вужудга келиши натижасида оламнинг постноклассик манзараси шаклланди. Бу оламга янгича методологик нуқтаи назардан ёндашувдир. Олимлар, тадқиқотчилар борлиқ, жамият, инсон тўғрисида янгича фикр юрита бошлашди. Чунки бугунги кунда глобаллашув, тараққиёт жадал суръатлар билан кечаётган бир даврда янгича тафаккур тарзига эга бўлиш, ҳар бир тадқиқот объектини ҳар томонлама энг янги методлар орқали ўрганиш давр талабидир. [1:]. Синергетик ёндашув асосини тизимли ёндашув ташкил қилади. “Синергетика бир-биридан жуда



фарқ қиладиган фанларга таянади, уларга физика, кимё ва биология, лекин шунингдек социология ва иқтисод ҳам киради, шунинг учун синергетика томонидан кашф этилган ва изоҳлаб берилган қонуниятлар фаннинг турли соҳаларида тақдим қилинади, ва биз синергетика доирасида мозаика сингари кўплаб алоҳида фан йиққан фактлардан таркиб топган янги ягона олам манзарасининг юзага келишини кўриш имкониятига эга бўламиз”

Синергетика - грекча “сенергос” сўзидан олинган бўлиб, “ҳамдўстлик”, “ҳамкорлик” каби тушунчаларнинг илмий тилдаги ифодасидир. Синетик метод - ижодкорлик фаолиятини стимуллаштириш учун алоҳида шароит, муҳит яратиш, кутилмаганда янги аналогларнинг ва ассоциациянинг туғилиши ёки яратилишига шароит яратади. Синетика сўзи турли элементларни, кўрсаткичларни, параметрларни маълум қонуният асосида бирлаштирувчи маъносини англатади. Бугунги илм, фан, техника ва технологиялар шиддат билан ривожланаётган интеграция жараёнларида таълим тизимини инновацион ишлаб чиқариш соҳалари билан интеграциялашувини таъминлаш куннинг долзарб муаммоси сифатида қаралиши, таълим тизимида таҳсил олаётган мутахассисларнинг педагогик маҳорати ва креатив қобилиятларига нисбатан талабларнинг ортиб бораётганлиги, жамият олдига ҳар бир педагогни синергетик ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда ахлоқий компетентликни ривожлантириш ҳамда уни рўёбга чиқаришга қулай шароитларни яратиш муаммосини қўймоқда. Чунки бундай эҳтиёж синергетик ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда ахлоқий компотентликни ривожлантириш ишларни ташкил этишга тайёрлашнинг асосий вазифаларидан биридир. Синергетик ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда ахлоқий компотентликни ривожлантиришнинг энг асосий компонентларидан бири бу - Олий таълим тизимида тарбиявий ишларни ташкил этиш фаолиятини такомиллаштиришдан иборатдир.

Президент Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида “Биз Ўзбекистонни ривожланган мамлакатга айлантиришни мақсад қилиб қўйган эканмиз, бунга фақат жадал ислоҳотлар, илм-маърифат ва инновация билан эриша оламиз. Бунинг учун, авваламбор, ташаббускор ислоҳотчи бўлиб майдонга чиқадиган, стратегик фикр юритадиган, билимли ва малакали янги авлод кадрларини тарбиялашимиз зарур” деган эътирофлари таълим тараққиётининг кейинги истиқболи кўп жиҳатдан олий таълим тизимида

таҳсил олаётган кадрлар салоҳияти, уларнинг келажак истиқболлари, ижодкорлиги ва ташуубускорлиги билан боғлиқлигини ижтимоий ҳаётнинг ўзи кўрсатмоқда Қўйилган вазифалар асосида: – синергетик ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда ахлоқий компетентликни ривожлантириш, уларда эстетик дид ва касбий этика, ахборот таҳлили маданиятини шакллантириш; –бўлажак ўқитувчиларда ахлоқий компетентликни ривожлантириш негизида ватанга муҳаббат ва унинг тақдирига дахлдорлик, фидойилик ҳиссини қарор топтириш бўйича тарбиявий тадбирлар режасини ишлаб чиқиш; –талаба ёшларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш уларни амалий касб эгаси сифатида тайёрлаш ишларини ташкил қилиш ва тизимли равишда олиб бориш; – синергетик ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда ахлоқий компетентликни ривожлантириш индикаторларини ишлаб чиқиш; Бунинг учун эса синергетик ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда ахлоқий компетентликни ривожлантириш, таълим жараёнида маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш мазмунини тубдан ислоҳ қилиш муҳим педагогик аҳамият касб этади. Айтиш жоизки, синергетик ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда ахлоқий компетентликни ривожлантиришнинг педагогик мазмунини такомиллаштиришда қуйидагилар муҳим аҳамиятга эга - тарбия жараёнида узлуксизлик, узвийлик тамойилларига таянган ҳолда маънавий ишларни ташкил этиш бўйича асосий йўналишларни белгилаш; - ёшларда Ватанга садоқат, тадбиркорлик, иродалилиқ, мафкуравий иммунитет, меҳроқибатлилиқ, масъулиятлилиқ, бағрикенглиқ, ҳуқуқий маданият, инновацион фикрлаш, меҳнатсеварлик каби муҳим фазилатларни болалиқдан бошлаб босқичма-босқич шакллантириш; - бўлажак ўқитувчиларда ахлоқий компетентликни ривожлантириш, таълим жараёнида узлуксиз маънавий тарбияни амалга оширишда маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш жамоатчилигининг ўзаро самарали ҳамкорлиги механизминини ишлаб чиқиш ва ҳаётга жорий этиш; - оммавий ахборот воситалари, шу жумладан, Интернет жаҳон ахборот тармоғи орқали тарқатилаётган ғаразли ахборотлар, одоб-ахлоқни емирувчи иллатлар, ёшларни залолатга бошловчи бузғунчи ғояларга қарши соғлом дунёқарашни шакллантириш. Ҳақиқатдан ҳам барча соҳаларда жадаллик билан бораётган ислоҳотлар, бугунги кунда ёш авлодни ҳар томонлама камол топтириш, уларни маънавий-ахлоқий ва сиёсий онгли шахс этиб тарбиялаш, эстетик маданиятини тарбиялаш муҳим масалалардан бири бўлиб келмоқда. Айни вақтда ёш авлодни ҳар

томонлама камолотга етказиш борасида бир қатор ижобий ишлар амалга оширилмоқда, таълим мазмуни бутунлай қайта ишлаб чиқилганлиги ҳамда миллий қадриятлар, анъаналарни чуқур ўрганиш талаба ёшларнинг асосий бурчларидан бири бўлиб келмоқда. Ўсиб келаётган ёш авлодни маънавий-ахлоқий фазилатларини шакллантириш, тарбияни кенг кўламда олиб боришда халқимиз минг йиллар давомида тўпланган бебаҳо маънавиятимизни, маданий меросларимизни, миллий қадриятларимизни қайта тиклаш, уларни замонга хос мазмун билан бойитиш ишлари йўлга қўйила бошлади. Чунки, миллий маънавиятимизни, миллий ўзлгимизни, миллий тарихимизни қайта тикламай ва тўлиқ англаб етмай туриб, мустақиллик ўртага қўйган одилонга мақсадларга эришиш мумкин эмас.

Тарихдан маълумки, барча замонларда янги жамият қуриш ғоявий қурашлар замирида кечган. Улуғларимиз айтганидек маънавий-маърифий етуклик – огоҳлик гаровидир. Ёш авлодни маънавий-ахлоқий тарбиялаш, уларда ёт ғояларга қарши қурашчанлик кўникмаларини шакллантиришнинг самарали воситаларидан – уларга ўзи мансуб бўлган халқнинг бой тажрибасини ўрганиш ва уни амалиётда фойдалана олиш кўникмаларини шакллантиришдан иборат. Уларда ёшлардаги Ватан, ота-она, она-замин, жонажон ўлка, моддиймаънавий бойликлар, меҳнатга муҳаббат ҳиссини уйғотиш ва ривожлантиришга алоҳида эътибор берилган. Чунончи, асрлар оша авлоддан авлодга ўтиб келаётган мақолу маталлар, қўшиқлар, топишмоқ ва ашулалар ёшлар маънавияти ва маданиятини юксалтиришда ўзига хос ўрин тутди. Халқ томонидан яратилган ижод намуналарида ёшлар тарбиясига ижобий таъсир этувчи фикрлар ўз ифодасини топган. Хулоса қилиб айтганда, синергетик ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда ахлоқий компотентликни ривожлантириш омиллари – малакали мутахассисларни тайёрлаш, уларнинг касбий маҳоратини доимий равишда ошириб боришга эришиш эканлигидан ҳам англонадикки, ижтимоий, иқтисодий ва маданий ҳаёт бир-бири билан узвийлик, алоқадорлик ҳамда яхлитлик тамойили асосида ривожланиб боради. Жамият ижтимоий ҳаётида етакчи ўрин тутган ғоя ва қарашлар иқтисодий ишлаб чиқариш ривожига ўз таъсирини ўтказса, ўз навбатида, иқтисодий ўсиш аҳолининг маданий турмуш тарзининг яхшиланишига олиб келади. Бу узвийлик бўлажак ўқитувчиларда ахлоқий компотентликни ривожлантириш замирида танқид қилиш қобилияти, жамоада ишлаш қобилияти, шахслараро кўникмалар, фанлараро

жамоада ишлай олиш қобилияти, бошқа фан соҳаларида экспертлар билан ўзаро муносабат юрита олиш қобилияти, маданиятлараро фарқли ва ўзига хос жиҳатларни тўғри қабул қилиш қобилияти, халқаро миқёсда ишлаш қобилияти, ахлоқий қадриятларни эъозлаш.

### **ФҲЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2019 й. “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5847 Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)), 2019 йил 9 октябрь

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 31.12.2019 й. “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги N 1059 Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)), 2020 йил 3 январь

3. Д.Миралиева Аждодларимиз мероси воситасида талабаларда оммавий маданиятга қарши курашчанлик кўникмасини шакллантиришнинг педагогик тизими. П.ф.д.. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Тошкент 2015

**O'SMIRLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI****Axundjanova Saida Kadirovna***Toshkent viloyati Toshkent tumani 20-maktab amaliyotchi psixologi*

Shaxsning psixik yoki individual xususiyatlari deb ataladigan xususiyatlar: odamning temperamenti (mijozi), xarakteri (fe'latvori), qobiliyat, ehtiyoj, mayl va havaslari ham psixika sohasiga kiradi. Psixik (ruhiy) hodisalarning butun majmuyi odatda psixika degan bir so'z bilan ataladi. Psixika o'zga alohida bir olam emas: u organik hayotning yuksak shakllaridan bo'lib, faqat hayvonlar bilan odamlarga xosdir. Lekin, ma'lumki, hayvonlarning psixik hayoti odamning psixik hayotiga qaraganda soddaroqdir. Odam psixikasi hayvonlar psixikidan sifat jihatidan farq qiladi. Odamda psixik hayotning yuksak shakli - ong bor. Psixik hayot hodisalari juda xilma-xil, ammo bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Psixologiyaning vazifasi ana shu bog'lanish va millnosabatlarning qonuniyatlarini ochib berishdir. Psixik hodisalar va butun psixika rivojlanib kelgan va rivojlanmoqda. Shu sababli, psixologiya psixikaning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib berishi kerak.

Insonning o'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy etilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmokda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik Yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga etish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taallukli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu Yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Bo'yga o'sish bir tekis bormaydi: qiz-bolalar 5-7 sm o'ssalar, o'g'il bolalar 5-10 sm o'sadilar. Bo'yiga karab o'sish paysimon ilk suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro'y beradi. Og'iz bo'shlig'i va halqumdagi o'zgarishlar oqibatida tovush tembri ham o'zgaradi. Bu o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan

ko'prok darajada sodir bo'ladi. O'g'il bolalarning tovushi vazminrok bo'lib qoladi, do'rillaydi. Garchi bu davrda mushaklar tez sur'at bilan o'ssa ham, mustahkamlashsa ham, lekin baribir oyoq va qo'l suyaklarining o'sish sur'ati orqada qoladi. O'smirlarda bu xususiyat ularning beso'naqay xatti-harakatlarida, yurish-turishlaridagi qo'polikka, katta-katta odim tashlashlariga sabab bo'ladi.

Fiziologik o'zgarish jinsiy etilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon bo'ladi. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekretiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to'qimalarining o'sishi va muhim ichki sekretiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak usti bezi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo'y o'sishi tezlashadi, jinsiy balog'atga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo'lishi) amalga oshadi. Ko'krak qafasi ham gavdaning bo'y o'sishiga nisbatan sekin rivojlanadi. Buning natijasida ayrim o'smirlarning elkasi, ko'kragi tor bo'lib qoladi, bu esa o'z navbatida kislorod etishmasligiga, nafas qisishiga olib keladi. Kislorod etishmasligi natijasida ruhiy faoliyatga putur etadi. Bu davrda yurak kengayishi bilan qon tomirlari ham yo'g'onlashadi. O'smirda ro'y beradigan biologik-jismoniy o'zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. O'smirlik Yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni jinsiy etilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Jinsiy etilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir.

O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. O'smirlik davri «o'tish davri», »krizis davr», «qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu Yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida L.S. Vigotskiy bunday holatni «*psixik rivojlanishdagi krizis*» deb nomlagan. Kichik maktab davridan so'ng bola alohida olingan shaxs sifatida o'z-o'ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o'smirlik Yoshini ikki xil davrga - kichik o'smirlik davri va katta o'smirlik davrlariga to'g'ri keladi. Birinchi

bosqichda o'smir o'zini "bola"lardan ajratib, endi o'zini kattalar olamiga mansubligini ta'kidlamog'chidek bo'ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o'smirlarning asosiy xarakteristikalarini hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichda o'smir endi o'zining Yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O'smirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obro'larini ko'radilar hamda havas qiladilar. O'smirda *katta Yoshli odam bo'lishga yoki hech bo'lmaganda katta Yoshli odam bo'lib ko'rinishga qiziqish*, intilish paydo bo'ladi va bu xohishni amalga oshirish unga osondek bo'lib ko'rinadi. O'smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o'zaro mos kelmasligi o'smirlar bilan ota-onalari, o'qituvchilari va boshqa murabbiylari o'rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi.

O'smir o'zining juda ko'p istaklari, «xohlayman»larini amalga oshirishga intiladi: katta Yoshli odamlar ega bo'lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo'lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, ko'rqmas va epchil bo'lishga intiladi. Tarbiyachilar ham o'z tarbiyalanuvchilari xuddi shunday bo'lishlarini istaydilar, ammo ular ana shu fazilatlarining faqat «kerakligi» uchun shunday bo'lishini istaydilar. Ana shunday «xohlayman» va «kerak» o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ba'zan oilada, maktabda, keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Tarbiyalangan odamda «xohlayman» fakat «kerak»ni bajarish orqaligina amalga oshiriladi. Agar o'smir bola tushunishga o'rgatilmagan bo'lsa va «kerak» bo'lgan narsani bajarishga odatlanmagan bo'lsa, u o'zboshimchaligini namoyon qilish orqali tarbiyachilarning talablariga qarshilik qiladi hamda o'zining shaxsiy asoslanilmagan xohishlari asosida ish tutadi. O'smirning yangi huquqlarga da'vosi, avvalo, kattalar bilan o'zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo'ladi. O'smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko'rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo'naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashmaganda u juda xafa bo'ladi va norozilik bildiradi. O'smirda o'z qadrini bilish hissi paydo bo'ladi va u o'zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo'lmagan inson, deb biladi. Bolalikdagi kattalar bilan bo'lgan munosabat haqidagi fikrlari o'zgaradi va uning o'z kattaligi darajasi haqidagi tasavvurlari bilan mos

kelmay qoladi. U kattalar huquqini cheklaydi, o'zinikini esa kengaytiradi. Kattalarning o'z shaxsi va insoniylik qadrini hurmat qilishlarini xohlaydi, ishonch va mustaqillik namoyon etishga da'vo qiladi, ya'ni kattalar bilan ma'lum teng huquqlilikka va ularning shu narsani tan olishlariga erishishga harakat qiladi.

O'smirlik davriga kimningdir xatti-harakatini imitatsiya - qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar.

O'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. O'smir katta odam, Shuningdek, chekuvchi, ichuvchi singari yangi rollarda o'zini noqulay his qiladi. Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin bo'lgan o'smirda juda ko'p noqulay va tashvishga tushuvchi holatlar bo'ladi va ular o'smirde krizisni yuzaga keltirib chiqaradi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi, Shuningdek psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirde o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, Shuningdek, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo'ladi va o'smirlik davri krizisi yuzaga keladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg'izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o'jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning kechishida namoyon bo'ladi. Bunday paytlarda u o'zi singari katta fiziologik, psixologik o'zgarishlar kechayotgan o'rtog'i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do'sti o'smirga ijobiy ta'sir qiladimi yoki uni yo'ldan urib, yomon ta'sir qiladimi — bu narsa uning axloqiy qiyofasi bilan bog'liq. O'rtoqlarining ta'siri ostida o'smir o'zining ehtiyojlari va istaklarini qondirishi mumkin. Agarda bundan qanoatlanish unga katta mamnunlik bag'ishlasa, bunday hollarda uning ba'zi bir harakat yoki qiliqlarga nisbatan bo'lgan tasodifiy qiziqishlari dastavval ishtiyoqqa, undan keyin ehtiros yoki odatga aylanishi mumkin. Ana shunday yo'l bilan o'quvchilarda, masalan, matematikaga, fizika yoki ximiyaga, duradgorlik, slesarlik yoki qandaydir boshqa bir ishlarga nisbatan ishtiyoq yuzaga keladi,



ammo o'quvchilar xuddi shunday yo'l bilan yolg'onchilikka, bezorilikka va boshqa axloqsiz xatti-harakatlarga ham o'rganib qolishlarni mumkin.

O'smirlik davridagi barcha *nomunosib harakatlar bir onda o'tib ketadigan xohishlarning* ko'pligidan va kelib chiqadigan oqibatni nihoyatda yuza tarzda ko'ra bilishlikdan kelib chiqadi. Deyarli barcha zararli xohishlar oldin zararsiz va engillik bilan amalga oshiriladigandek bo'lib ko'rinadigan ko'ngil ochish tarzidagi ishlardan boshlanadi. Biroq, aslida esa bu ishlarni amalga oshirishga o'smirlarning imkoniyatlari etmaydi. Bunga shaxs taraqqiyotining tabiiy ehtiyojlari ta'sir qiladi. Agarda o'smir bolalar faqat bajara oladigan ishlarni qilganlarida edi, ular o'zlarining psixik xususiyatlarini rivojlantira olmagan bo'lar edilar. O'smirlar, o'zlarining turli xil xohishlarini bevosita qondirishdan bo'lak narsani ko'ra olmaydilar va bunday xohishlar xatarli oqibatlarga tomon yo'llaganda o'zlarini vaqtida to'xtatib qola olmasliklari ham mumkin. O'quvchilarni o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'ra bilishga va o'zlarini tuta bilishga o'rgatish tarbiyachilarning asosiy vazifasidir.

O'smirlar haddan tashqari g'ayratli va besaramjon bo'ladilar, *ular uchun bekorchilik juda og'irdir, bir xil tarzdagi ishlardan tezda toliqadilar*, bir xildagi ish bilan qiziqmay qo'yadilar, bu esa ularning ta'lim jarayonlari muvaffaqiyatiga kuchli ta'sir qiladi. Binobarin, o'smirlarga muvaffaqiyatli ta'lim va tarbiya berishda ularni turli faoliyatlarga qiziqtirish va har turli foydali mashg'ulotlarga jalb qilish hamda, qiyinrok, lekin kuchlari etadigan ishlar bilan shug'ullantirish nihoyatda muhimdir.

«O'smirlik Yoshining mohiyati shundan iboratki, o'smir birmuncha faolroq ijtimoiy muhitga etilgan bo'lib, bolalik chog'ida vujudga kelgan eski munosabatlarni buzib, ana shu muhit uchun kurasha boshlaydi». Har bir o'smir muvaffaqiyatli ishlar bilan tevarak-atrofdagi odamlar o'rtasida o'z shaxsini tasdiqlashga intiladi.

O'smirlar nihoyatda taqlidchan bo'lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo'ladi. Ular tashqi ta'sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladilar. Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay, o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. O'smirlarga farosatlilik, tejamkorlik, ehtiyotkorlik va uzoqni ko'ra bilishlik kabi psixik xususiyatlar hali etishmaydi. Tengdoshlari, Shuningdek, sinfdoshlari guruhida o'smir o'zining

kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. O'smir o'z guruhiga bog'liq va qaram bo'lgani holda shu guruhning umumiy fikriga qo'shilishiga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor bo'ladi. Guruh ko'pincha o'smirda «biz» hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustahkamlaydi. O'smir Yoshdagi bola uchun do'st tanlash juda katta ahamiyatga ega. O'smirlik davrida do'stlik juda qadri hisoblanadi. Do'stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj o'smir do'stlarning hol-ahvol so'rashishi va ko'rishishlarida (qo'l berib, quchoq ochib ko'rishish) birga o'tirish va birga yurishga harakat qilishlarida ko'rinadi. Ko'pgana ana shunday juda yaqin munosabatlar, o'smirlarning shaxs bo'lib shakllanishida, hamkorlikdagi harakatlarining izi inson qalbi va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi. *O'smir Yoshlarning xulq-atvori va faoliyatlarida ba'zan o'zlarining kuchlari etmaydigan qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi.* Asosiy qarama-qarshilik juda ko'p orzu-tilaklarni vujudga keltiruvchi, jadal ortib borayotgan jismoniy, ma'naviy va moddiy ehtiyojlar bilan ularni qondirish uchun nihoyatda cheklangan hamda ko'p jihatdan etarli bo'lmagan imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. O'smirning o'z kuchiga to'la ishonmasligi uni butun vositalar bilan shunchaki o'zini katta kishi bo'lib qolganligini ta'kidlashga majbur qilibgina qolmay, shu bilan birga bu tuyg'uni etarli baholay olmaslik holatini ham vujudga keltiradi. Bu o'z navbatida kattalarga qo'pol munosabatda bo'lish va agressivlikni hamda ota-onalar bilan o'qituvchilarning maslahat va talablarini pisand qilmaslik kabi xulq-atvor alomatlarini ham keltirib chiqaradi.

"Oltinchi sinf muammolari"ga bag'ishlangan tadqiqot ishida shu Yoshdagi bolalarning xulq-atvor xususiyatlari va turli xil fanlar bo'yicha o'zlashtirishning pasayishi bilan bog'liq bo'lgan muammolarning o'sib borishi quyidagicha namoyon bo'lgan: Oltinchi sinf o'quvchilari to'rtinchi sinfga nisbatan 6 marta ko'proq qaysarlik qilishlari, 10 marta ko'proq o'qituvchilarga qarshilik ko'rsatishlari, 7 marta ko'proq boshqalar irodasiga to'sqinlik qilishlari, 9 marta ko'proq boshqalar kamchiliklariga e'tibor berishlari, 5 marta ko'proq faqat o'z xohish-istaklariga bo'ysunishlari va nihoyat 42 marta ko'proq o'z xatti-xarakatlari motivlariga ega bo'lmashliklari aniqlangan.

Krakovskiy

A.P.

1970

)

O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga

qiziqib qolishlari xam mumkin. O'smir katta odam, Shuningdek, chekuvchi, ichuvchi singari yangi rollarda o'zini noqulay his qiladi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi, unda juda ko'p noqulay va tashvishga tushuvchi xolatlar bo'ladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, Shuningdek, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo'ladi va o'smirlik davri krizisi yuzaga keladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg'izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o'jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning yuzaga kelishi sifatida namoyon bo'ladi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi, Shuningdek, psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Bunday paytlarda u o'zi singari katta fiziologik, psixologik o'zgarishlar kechayotgan o'rtog'i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do'sti o'smirga ijobiy ta'sir qiladimi yoki uni yo'ldan urib, yomon ta'sir kiladimi — bu narsa uning ahlokiy qiyofasi bilan bog'liq.

O'smirlik davrida etakchi faoliyat shaxsiy -intim muloqotdir: O'rtoqlarining ta'siri ostida o'smir o'zining extiyojlari va istaklarini qondirishi mumkin. Agarda bundan qanoatlanish unga katta mamnunlik bag'ishlasa, bunday xollarda uning ba'zi bir harakat yoki qiliqlarga nisbatan bo'lgan tasodifiy qiziqishlari dastavval ishtiyoqqa, undan keyin extiros yoki odatga aylanishi mumkin. Ana shunday yo'l bilan o'quvchilarda, masalan, matematikaga, fizika yoki ximiyaga, duradgorlik, slesarlik yoki qandaydir boshqa bir ishlarga nisbatan ishtiyoq yuzaga keladi, ammo o'quvchilar xuddi shunday yo'l bilan yolg'onchilikka, bezorilikka va boshqa axloqsiz hatti-harakatlarga xam o'rganib kolishlari mumkin. O'smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadilar. Kattalarning o'smir Yoshdagilarga ta'sir ko'rsatishi, tarbiya berishi uchun eng qulay sharoit - bu umumiy mehnat bilan shug'ullanishdir. Agar kichik Yoshdagi bolalar yordamchi bo'lish rollaridan qoniqsalar, o'smirlar, ayniqsa katta o'smirlar kattalar bilan teng ravishda faoliyat ko'rsatayotganlaridan, lozim bo'lganda ularning o'rnilariga ham ishlay olishlaridan qoniqadilar. Kattalar o'smirlar bilan do'stona, uni to'la tushungan holda va aql bilan rahbarlik qilsalar, bunga o'smirlar ijobiy qaraydilar, lekin bu rahbarlik kattaning xohish-istagi ustunligida kechsa, unday holda ular to'la qarshilik ko'rsatadilar. Bu qarshilik ko'pincha salbiy natijalarga, ba'zan depressiya holatini ham yuzaga keltirishi

mumkin. Bu holat ko'pincha ota-onasi avtoritar munosabatda bo'luvchi o'smirlarning oilalarida uchraydi. Bunday oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlar hayotda mustaqil holda harakat qilishlari, o'z rejalarini amalga oshirishlari, qiyin mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari birmuncha qiyin kechadi. Ular ko'pincha intellektual xarakterdagi muammolarni ham qiyinchilik bilan engadilar. O'smirlik davrida bolalarning atrofda odamlar bilan shaxsiy va ish yuzasidan bo'ladigan munosabatlaridagi mavqei o'zgaradi. Endi o'smirlar o'yin hamda damga kamroq vaqtlarini ajratgan holda ko'proq jiddiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi. Aynan o'smirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo'ladi. Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi. J. Piagetning ta'kidlashicha, *«Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi»*. Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

11-12 Yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O'smir bu Yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o'rgana boshlaydi. O'smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko'tarila olishi, o'quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi. O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o'ta qiziquvchanlik hamda atrofda odamlarga o'z layoqatlarini namoyish etish, Shuningdek, ularda yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O'smirning kattalarga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan o'sha masala doirasida bo'ladi. Bu Yoshdagi bolalar turli farazlarni keltira oladilar, taxminiy fikr yuritib, tadqiqot o'tkaza oladilar hamda ma'lum bir masala bo'yicha muqobil variantlarni taqqoslay oladilar. O'smir tafakkuri ko'pincha umumlashtirishga moyil bo'ladi. Respublikamizning bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tishida kishilardagi amaliy tafakkurning ahamiyati oshmoqda. Amaliy tafakkur tizimiga quyidagi aqliy sifatlar kiradi: - tadbirkorlik, tejamkorlik, hisob-kitoblik, yuzaga kelgan muammolarni tez echa olishlik va boshqa shu kabi sifatlar mavjud bo'lgan taqdirdagina amaliy tafakkurni rivojlangan deb hisoblash mumkin. Bu sifatlarni 1-sinfdanoq rivojlantira borish nihoyatda muhim.

O'smirlik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi qimmatli va obro'li hisoblanadi. O'smir shaxsida va uning bilishga

qiziqishidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurni rivojlanishi bilan belgilanadi. O'smirlik davrida shaxsning shakllanishi: O'smirlik Yoshi dunyokarash, e'tikod, prinsip, o'zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakllanadigan davr hisoblanadi. O'smir ulg'aygan sari unda "Ideal Men", "Axloqiy Men" va "Haqiqiy Men" singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e'tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi o'zi to'g'risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo'lib qoladi. O'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai -nazari asosida tashkil kila boshlaydi. Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, o'smirlarning ko'pchiligi qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma'naviy, ahloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror e'tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axlokiy ideallar yuzaga kela boshlaydi.

Ma'lumki, o'smirlik davrida o'smirning «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofida gilari ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qizikishlari, qadriyatlarini yo'nalishi keskin o'zgaradi. O'qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o'smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham pedagogik nuqtai nazaridan ham muximdir. Bu davrni biz yana o'tish davri ham deb ataymiz. O'smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni 5-8 sinf o'quvchilarini. Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda o'smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda kiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo'lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o'zgarishi, hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bu davrda o'smirlarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo'yicha o'smirlarning psixik taraqqiyotini xarakteratga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug'iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir. Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik hususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdir. Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o'tiladi. Sana shu nuqtai nazardan

o`smirlik yoshini yanada oydinroq qarab chiqaylik. Bola boshlang`ich sinfni tugatadi. Bolaning o`rta maktabda o`qishga o`tishi uning hayotida burilish davri hisoblanadi. O`smirlarning yangi ijtimoiy jixatdan tashkil topgan va rang-baranglantirilgan faoliyatni uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos, sharoit va vosita xizmat qiladi. O`smirlik yoshining mazmuniy xarakteristikasi vaqt o`tishi bilan o`zgarib boradi, chunki inson hayotining xususan ijtimoiy sharoitlari o`zgaradi. Psixologiya taraqqiyotining biologik omillariga o`smirlar ongiga og`ir, ba`zan kuchi etmaydigan bo`lib tushadigan, ularni jiddiy psixik inqirozga va hayajonga soladigan, masalan: o`smirlar uchun xarakterli bo`lgan norozilik, qo`pollik, qaysarlik, o`z-o`zini analiz qilishga moyillik sub`ektiv olamga va shunga o`xshash hislatlarni keltiradigan jinsiy etilishga nixoyatda katta ahamiyat beradilar. Jinsiy etilish munosabati bilan paydo bo`ladigan yangi sezgilar fikrlar, maylliklar, kechinmalar guyo usmirlar ongida xukmron bo`ladi. Ularning xulki atvorini belgilaydi. Mana shu tarika oqibat natijada o`smirlarning psixologik qiyofalari asosan yolg`iz sof biologik omil deb qaraladi. Psixologlarning fikricha yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolg`iz biologik jihatidan etilishi va taraqqiyot etilishining natijasi bo`lmay balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o`zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo`lishi natijasida o`smirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta`lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o`smirlarning konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo`lmaydi. Boshqacha qilib aytganda ijtimoiy sharoitlar rolini konkret hayot sharoitlari va faoliyatlarining rolga almashtirib bo`lmaydi. Mana shu yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o`smirning yoshi va uning hususiyatlari absolyut ahamiyatli kasb etmaydi shu munosabat bilan o`smirlik yoshi mutloqo aniq ma`lum va absolyut chegara hamda xarakteristikaga ega emas bu erda ancha muhim bo`lgan ma`lum fikrlar bor. Bu farqlarni konkret ijtimoiy omillarning ta`siri bilan va o`smirlarga beriladigan turli ta`lim va tarbiya sharoitlarining ta`siri bilan tushuntirish mumkin. Taraqqiyotning asosiy yo`nalishi bolaning o`smirlik davridagi taraqqiyotining asosiy xarakteristikasini ajratish mumkin. O`smirlik davri organizmning jo`shqin o`sinh davridir. Bu davrda tananing intensiv ravishda rivojlanishi yuzaga keladi, Musqo`l apparatlari mutsahkamlanadi va skeletning suyaklanish jarayoni davom etadi. Bu davrda yurak qon tomirlari sitsemasining taraqqiyotida mos kelmaslik hodisasi kuchlaniladi. Bu paytda yurak xajmi jihatidan ancha kattalashadi, ancha kuchli ishlay boshlaydi. Ko`pincha qon aylanishining vaqtincha bo`zilishida qok

bosimining yoshga bog'liq xolda ko'tarilishiga, yurak faoliyatining zo'r berilishiga olib keladi. Natijada o'smirlarda uchraydigan bosh aylanishi, yurak urishi, bosh og'rig'i paydo bo'ladi. O'smirlarning yoshi ham jismoniy psixik hususiyatga egadir, organizm Pavlov ta'limotiga ko'ra, bir butun sitsemadan iborat bo'lib, bunda barcha to'qimalar va organlar fiziologik jarayonlar uzviy ravishda bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Lekin bir butunlikda nerv sitemasi va uning bilan bog'langan yuqori qismi I.P. Pavlov so'zi bilan aytganda organizmda sodir bo'ladigan barcha hodisalarni boshqarib turuvchi bosh miya po'tsi asosiy etakchi rolni o'ynaydi. O'smirlik yoshida nerv sitsemasining yuqori qismi sifat jihatidan o'sa boshlaydi va miya ichki to'zilishining murakkablashishga o'tadi. Katta yarim sharda nerv xujayralarning etishi tugallanadi. O'smir organizmining jismoniy taraqqiyoti uning organlari va to'qimalarining rivojlanishi bosh miya po'tsining boshqaruvchanlik roli otsida amalga oshadi, ammo o'sib borayotgan to'qimalar va organlar o'z navbatida nerv sitsemasining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. O'smirlik yoshida o'pkaning xajmi kattalashadi nafas olish ancha miqdorda tezlashgan va sayoz bladi. O'smirlik yoshida bola qancha toza havoda yursa shuncha foydalidir. Bu davrda ichki sekretiya bezlarining qayta qurishiga bog'liq bo'lgan jinsiy etilish davridir. Bu bezlarning etilishi kishi organizm faoliyatida xizmati juda kattadir. O'smirlik yoshining xarakterli xususiyatlaridan biri jinsiy etilish jarayonidir. Jinsiy etilishning boshlanishi ko'p jihatdan iqlimga va milliy epiografik omillarga va shuning bilan birga individual xususiyatlarga bog'liqdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki jinsiy etilishning boshlanish davri o'g'il bolalarda 12-13 yoshda, qiz bolalarda 11-12 yoshda boshlanadi. Ko'pchilik o'g'il bolalar hozirgi vaqtda jinsiy etilish 15-16 yoshda, qiz bolalarda 13-14 yoshlarda kuzatiladi. O'qituvchilar sinf rahbarlari datsavval shkni chuqur anglashlari lozimki, jinsiy etilish organizmning jismoniy taraqqiyotiga ta'sir qilishdan ularning psixik rivojlanishiga ham katta ta'sir kursatadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'ladi. Maktabda o'kitiladigan fanlar usmir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat kiladi J. Piajening ta'kidlashicha, "Ijtimoiy xayot uch narsaning ta'siri - til, mazmun, koidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurini yangi imkoniyatlarini yaratadi.

11-12 yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab xarakat kila boshlaydi O'smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng kamrovai taxlil etishni urgana boshlaydi. O'smir tafakkurning nazariy darajaga kanchalik tez ko'tarila olishi, o'kuv materiallarini tez va chukur egallashi uning intellektini xam rivojlanishini

belgilab beradi. O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farklanadi. Bu faollik o'ta kizikuvchanlik xamda atrofdagilarga o'z layokatlarini namoyish etish, shuningdek, ulardli yuqori baxo olish extiejining mavjudligi bilan belgilanadi usmirning kattalarga beradigan savollri mazmunli, muloxazali va aynan o'sha masala doirasida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar turli-farazlarni keltira oladilar taxminiy fikr yuritib, tadjikot utkaza oladilar xamda matlum bir masala buyicha mukobil variantlarni takkoslay oladilar. O'smir tafakkur ko'pincha umumlashtirishga moyil bo'ladi. Respublikamizning bozor iktisodi sharoitida utishda kishilardagi amaliy tafakkurning axamiyati oshmokda. Amaliy tafakkur tizimiga kuyidagi akliy sifatlar qiradi.

Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustakilligiga tayanadi, o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkuriy rivojlanishi bilan belgalanadi. O'smirlik davrida diqqat, xotira, tasavvur to'la mustakillik kasb etib, endi ularni o'z ifodasiga ko'ra boshkara oladigan bo'ladi. Bu davrda kaysi etakchi funktsiya (dikkvti, xotirami yoki t'savvur ustunlik kilayotgani yakkol namoyon bo'lib, Xar bir o'smir o'zi uchun axamiyatlirok bo'lgan funktsiyani e'tiborga olish imkoniyatiga ega bo'ladi, O'shbu funktsiyalarning rivojlanish xususiyatlarini kurib chikamiz. O'smirni diqqati yaxshi boshqariladigan va nazorat etiladigan darajada rivojlangan bo'lishi mumkin. Bolaning rivojlanayotgan ixtiyoriy diqqati o'kituvchi tomonidan doimo qo'llab-quvvatlanishi juda zarurdir. Pedagogik jarayonda ixtiyorsiz diqqatni ixtayoriy diqqat darajasiga ko'tgarish uchun bir kancha uslublar ishlab chikilgan, shuningdek, o'smirning dars jarayonida o'z tengdoshlari orasida o'zini ko'rsatashi uchun sharoitni yaratilishi xam usmirdagi diqqatni ixtiyorsizlak ixtayoriga aylanishida zamin bo'lib xizmat qilishi mumkin. Lekin, o'smirlik davrida juda kattik charchash xolatlari xam bo'ladi, Aynan 13-14 xamda 16 yoshlarda charchash chiziga keskin ko'tariladi. Bunday xolatlarda o'smir atrofdagi narsa va vokealarga to'lik diqqatini karata olmaydi, diqqatini ko'rnishlariga usmirlik erishish va yo'kotish bo'yicha tula karama-karshi bo'lgan davr xisoblanadi. Taraqqiyotning bu tiklangan tipi o'smirni yangi yosh bosqichi katta maktab yoshiga o'tishga tayyorlaydi. O'smirlik yoshi kishi shaxsining tarkib topish jarayonida alohida o'rin to'tadi. Bu davr asosiy davr hisoblanadi. Chunki bu yoshda g'oyat muhim psixologik o'zgarishlar paydo bo'ladi. Har xil psixologiya o'zgarishlar va shaxsning taraqqiyoti, eng avvalo, mana shu shaxsning faoliyat xarakteriga bog'liqdir. O'smirning faoliyati o'qish mehnat va o'yin jarayonlarini o'z ichiga



oladi. Mana shu jarayonga to'xtalib o'tamiz. O'smir kichik maktab o'quvchilaridan farq qilgan xolda birinchi bo'lib ilmiy bilishda ishtirok etadi. Uning oldida birinchi faqat ayrim narsa va hodisani emas, barcha narsa va hodisalar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni tushunish bo'lib olish uchun ishlatiladi. Agar kimki maktab yoshi asosan narsalar, tabiat va jamiyathodisalari to'g'risida gasvirlar to'plash yoshdan iborat bo'lsa, o'smirlik yoshida ana shu tabiat va jamiyat hodisalar to'g'risida sitsematik gushunchalar paydo bo'ladi. Odatda o'spirin muammolari va ularga qanday munosabatda bo'lish kerak1- Hissiy muammolar: Depressiv simptomatologiya o'spirinlik davrida keng tarqalgan. Shuningdek, o'spirinlar o'z tengdoshlari guruhi, ya'ni shu yoshdagi, shuningdek didi va qiziqishi bilan o'rtoqlashadigan guruh vakillari orasida o'zlarini qulayroq his qilib, kattalar bilan aloqa qilishdan qochishadi. Xonasida yashaydigan o'spirinning sahnasi odatiy holdir, shuning uchun uning eng yaqin qarindoshlari bilan aloqa qilishdan qochishadi. Shuningdek, his-tuyg'ularni noto'g'ri boshqarish uyqu va ovqatlanish muammolariga duch kelishi mumkin. Xuddi shu tarzda, siz ularning bosqini va savollariga javob bermasdan, ularning makonini va ritmlarini hurmat qilishingiz kerak. Shundagina o'spirin o'zini qulay his qiladi va o'zini namoyon qila oladi. Ovqatlanishning buzilishi :Ovqatlanish bilan bog'liq muammolar, natijada ovqatlanishning buzilishi kabi patologiyaga aylanishi mumkin. Anoreksiya va bulimiya holatlari tobora ko'proq o'spirinlarda ham, qizlarda ham, yoshlarda uchraydi. Ushbu muammolar o'z-o'zini past baholash va o'spirinlar o'zlarining tanasini qanday qabul qilishlari bilan chambarchas bog'liq. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun ovqatlanish vaqti atrofida tartibni yaratish va oziq-ovqat boy va xilma-xil bo'lishi muhimdir. Shuningdek, o'spirinlarga tana qiyofasi haqida salbiy xabarlar yubormang va ularni o'zlarini boricha sevishga o'rgating. Agar oila noo'rin xatti-harakatni aniqlasa yoki ular ovqatlanish buzilishidan azob chekishlariga shubha qilsalar, ushbu masala haqida gaplashib, bizni tegishli mutaxassisga yuboradigan birlamchi tibbiy yordam shifokoriga murojaat qilish kerak. Jinsiy aloqada himoyaning etishmasligi :Dastlab ko'rganimizdek, o'spirinlarda o'zlarining xatti-harakatlari ma'lum bir xavf tug'dirishini tushunishga qodir emaslar. Ushbu jihatlardan biri jinsiy aloqalardir. Har safar o'spirinlar jinsiy aloqada bo'lishdan oldin va ko'p hollarda har qanday himoya usulidan foydalanmaydilar, bu esa istalmagan homiladorlikni keltirib chiqarish ehtimoli va jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasallikni rivojlanish ehtimoliga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, jinsiy aloqani oldini olish va odatdagidek yondashish juda muhimdir. Shuningdek, o'smirlik davri yaqinlashganda, ular kontratseptsiya

During this period, great attention was paid to the organization of city and district archives. By 1936, the city archives of Andijan, Namangan, Kokand and 31 district archives were functioning.

Much attention has been paid to the organization of archival work in central and local government agencies. The archives of Uzbekistan are regularly replenished with documents. By 1941, the number of funds had reached 4,116, and the documents numbered 1,580,450 storage units.

There have also been some positive changes in the use of archival documents. Archaeological articles began to appear in the press, 5 collections of documents were prepared for publication, and exhibitions of archival materials were organized. Archival documents were also used for economic development. For example, work has been done to identify data on minerals and water resources. The results of this work were used in the development of industry, construction of new irrigation facilities, irrigation.

Archival documents are also widely used in scientific and historical research. From 1929 to 1939, 444 historians worked in the reading room of the Central Archives of the USSR. They reviewed 28,768 documents and used the information in their research.

The archives provided various information as required by organizations and citizens. Between 1934 and 1938, 2,100 such certificates were issued.

The intensification of traditional repression in the late 1930s had a negative impact on archives. The archives were transferred to the People's Commissariat of Internal Affairs (NKVD) in 1938. As a result, the activities of the archives were adapted to the interests of this punitive body. The social functions of the archives have been relegated to second place.

Thus, in the 1920s and 1930s, a wide network of archival outlets was established in Uzbekistan. The activity of archival institutions has improved. However, under the totalitarian regime, there were many shortcomings and problems in the work of archives.

Republican archivists continued to work on the preparation of collections of documents. Handbooks were prepared for ministries and agencies. Relevant certificates were issued at the request of organizations and citizens. Staff also worked extensively to promote archival documents. Between 1981 and 1985 alone, they published 843 articles, participated in 583 radio broadcasts and 29 television appearances. 243 exhibitions of documents were organized. 3906 researchers worked in the reading rooms of the archives. The decline in archival secrecy has also had a positive effect on the level of scientific and historical research. Between 1987 and 1990, 99.9 thousand previously secret collections were allowed to be used by researchers.

Thus, during the Soviet era, the state archive service was formed and developed in Uzbekistan. During this period, the archival system had a number of shortcomings and shortcomings. However, regardless of them, the archives of Uzbekistan have become large places that can meet scientific and practical goals and requirements.

#### REFERENCES:

1. Alimov I., Ergashev F., Botayev A. Archival science: Textbook. Tashkent, 1997
2. Theory and practice of archival affairs in the USSR. Pod red. F. I. Dolgix and I. K. Rudelson. Moscow, 1980
3. Archive // Historical encyclopedia. T. 1. Moscow, 1961,
4. Archives // National Encyclopedia of Uzbekistan. Volume 1 Tashkent, 2000
5. Kholmatova M. Cooperation of archives // People's speech. 2003. 19 June

## FONIY QASIDALARIDA ISLOMIY QARASHLAR

**Haqqulova Dilfuza Choriyevna**

*Buxoro viloyati Shofirkon tumani 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiyning forsiy merosida ilohiy-irfoniy qarashlarning mushtarakligi haqida fikr yuritiladi. Qur'oniy g`oyalarning badiiy talqini Foniya qasidalarining matniy-qiyosiy tahlili orqali namoyon etiladi.

**Kalit so`zlar:** „Devoni Foniya“, qur'oniy g`oya, „Ruh ul-quds“ tasavvuf.

Jahon adabiyotshunosligida milliy adabiyotning ilohiyotga ehtiyoji va undan oziqlanishi xususida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, musulmon mamlakatlarida adabiyotning Qur'oni karim va hadisi sharifning adabiyotga ta'siri, so'z san'ati orqali ilohiy va islomiy qarashlarning yoritilishini o'rganish muhim masalalardan sanaladi. Mustaqillikdan keyin, mamlakatimizda jamiyatning diniy-ruhiy asoslari va xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy-axloqiy merosini o'zida mujassam etgan islom madaniyatini o'rganish va uni hayotga tatbiq etish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, O'zbek mumtoz adabiyotining taraqqiyotiga zamin hozirlagan diniy, ma'naviy-ma'rifiy sarchashmalarni chuqurroq o'rganish hamda dunyoga tanitish bo'yicha tadqiqotlar yuzaga keldi. Binobarin, islom dini va mumtoz adabiyotimizning o'zaro ta'sir mezonlarini, jumladan, Qur'on oyatlari va hadislarning badiiy talqinini Alisher Navoiyning ijodini matniy-qiyosiy tahlil qilish orqali amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangandi. Alisher Navoiy ijodini o'rganar ekanmiz, irfoniy qarashlarning asarlarga singdirilib yuborilganining guvohi bo'lamiz. Bu qarashlar ba'zi o'rinda yaqqol hadis-u oyatlarni iqtibos qilinishida namoyon bo'lsa, boshqa o'rinda mazmun Qur'onga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" da fors tilida bir qancha qasida yozganini aytadi. Hamid Sulaymon qayd qilishicha, "Devoni Foniya" ning uch qo'lyozmasi (Parij Milliy kutubxonasi qo'lyozmasi, 285-raqam va Turkiya kutubxonasi qo'lyozmalari, 1952, 3850-raqamlar) muqaddimasida "Sittai zaruriya" ("Olti zaruriyat") va "Fusuli arbaa" ("To'rt fasl") sarlavhali ikki to'plam bo'lib, birinchisi olti, ikkinchisi to'rt qasidani o'z ichiga olgan<sup>57</sup>.

<sup>57</sup>Хамид Сулаймон. Алишер Навоийнинг форс тилидаги поэтик мероси тадқиқотидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965, № 5.

“Sittai zaruriya” to‘plamidagi qasidalarda Navoiyning diniy, falsafiy qarashlari aks etgan. Majmuadagi birinchi qasida “Ruh ul-quds” (“Muqaddas ruh”) deb atalib, ilohiy tavhid: olamning tanholigi, yagona abadiy va azaliy borliq, Yaratganning qudrati, eng kichik zarradan cheksiz koinotgacha uning izmida ekanligi madh etiladi. Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Zihy ba xomai qudrat musavviri ashyo,*

*Hazor naqshi ajib har zamon az o‘ paydo*<sup>58</sup>.

Mazmuni: (Ashyolarga surat beruvchi (Allohning) qudrat qalamiga tasannokim, Har zamon undan minglab ajoyib naqshlar paydo bo‘lgay).

Hamdning “xomai qudrat” (qudrat qalami) iborasi bilan boshlanishi bejiz emas. Hadisda keltirilishicha, Muhammad alayhissalomga nozil bo‘lgan ilk surada “Yaratgan Robbing nomi bilan o‘qi.O‘qing! Rabbingiz esa Karamlidir. U insonga qalam bilan (yozishni) o‘rgatdi” mazmunidagi oyatlar bor (“Alaq” surasi, 1-3–4-oyatlar). “Musavvir” so‘zi ham Allohning go‘zal ismlaridan biri bo‘lib, dastlabki misradayoq Parvardigorning uch sifati – Ilmi, Qudrati va Yaratuvchanligi hamd etilgan. Ko‘rinadiki, shoirning so‘z tanlashi asl manba – Qur‘oni karim oyatlari asosida bo‘lsa ham, qo‘llanilishida shoirona mahorat imonli insonning kechinmalari va irfoniy dunyoqarash asoslari bilan uyg‘un holda, ajoyib so‘z san‘ati namunasini vujudga keltirgan. Keyingi baytda Ollahning yaratuvchi qudrat ekanligi hamd etilgan.

*Chi xomaest,ki dar korgohi „kun fayakum”*

*Nagashta be raqami o‘ zi qatra to daryo*<sup>59</sup>.

Mazmuni: Ajib qalamdirki, (Haqning), “Bo‘l!” desa bo‘ladigan san‘atxonasida qatradin daryogacha uning raqamisiz paydo bo‘lmagan. Ushbu bayt mohiyatida iqtibos san‘ati asosida “Oli Imron” surasining 47-oyati “...Bir ishni iroda qilsa, “Bo‘l!” deyishi kifoya, bo‘laveradir”; “Yosin” surasining 82-oyatiga “Biror narsani (yaratishni)iroda qilgan vaqtida Uning ishi faqatgina “Bo‘l!” demoqlikdir. Bas, u (narsa) bo‘lur-vujudga kelur” ishora qiladi: “Innama amruhu iza aroda shay`an yaqula lahu kun fa yakun”. Irfoniy tasavvurga ko‘ra, inson ikki asos jism va ruhdan iborat. Inson o‘z ruhi bilan farishtalarga, jismi bilan esa tabiatga, borib taqaladi. Bular haqida Qur‘oni Karimning bir qancha oyatlarida xabar berilgan. “Vas-safat” surasi 11-oyati (“Biz insonlarning asli-avvali bo‘lmish Odam alayhissalomni yopishqoq bir loydan yaratgandirmiz”).

*Chu soz kardy zi tarkibi chismi insoni,*

<sup>58</sup> Алишер Навоий. Девони Фоний. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 20- жилд. – Т.: Фан, 2000-2003.

<sup>59</sup> Алишер Навоий. Девони Фоний. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 20- жилд. – Т.: Фан, 2000-2003

*Zi xok ta'biya soxti ba zebu baho*<sup>60</sup>.

Mazmuni: Insonni tuproqdan yaratding va unga ruh ato etding. Ana shu Ruh esa insonni ma'naviy kamolotga yetaklaydi. Chunki ruh g'ayb olamining "mulki", u insonga latif bir quvvat bag'ishlaydi.

*Ba xoki xismash boroni rahmat afshondy,  
K-az on muloimat ovard tinatash paydo*<sup>61</sup>.

Mazmuni: Tuproqdan yaralgan jismi ustiga Rahmat yomg'irini yog'dirding, o'shandan uning fe'l-atvorida muloyimlik paydo bo'ldi. Biroq, inson tabiati to'la poklanmadi...

Qur'oni Karimning "Al-Isro" surasi 85-oyatida o'qiyimiz: "Va yas'alunaka anirruh qulir ruhu min amri rob" (Ey Muhammad, Sizdan ruh-jon haqida so'raydilar. Ayting, "Ruh yolg'iz Parvardigorim biladigan ishlardandir"). Ruh ilohiy ma'rifat, hikmat-u donish bilan oziqlanadi. Demak, insonning mohiyati ham shu Ruhdadir, komillik belgisi ham pokiza ruhga bog'liqdir.

*Chu gasht paykarash orosta ba zeboy,  
"Nafaxtu fih min ruhy" on budash mabdo*<sup>62</sup>.

Ya'ni: Surati go'zal qiyofada paydo bo'lgandan so'ng (insonga), o'z (dargohingdagi) ruhdan jon ato qilgan mabda' (mansha') ham O'zingsan.

Bu baytdagi "Nafaxtu fih min ruhy" jumlasini Qur'oni karimning Hijr surasining 29-oyatiga, Sod surasining 72-oyatiga ishoradir. Bu oyatlarning matni shunday: "Fa-iza savvaytuhu va nafaxtu fiyha min ruhi faqa'u lahu sojidiyn" (Hijr surasidagi 29-oyat, Sod surasidagi 72-oyat), ya'ni bas, qachonki uni to'g'rilab bo'lganimda va ichiga O'z ruhimdan puflaganimda, unga sajda qilgan holingizda yiqilingiz". Bu bayt orqali Olloh insonni yaratgani va uning buyuk, muqaddas ekanligini, bularning barchasiga faqat yagona Olloh qodirligini ko'ramiz. Komil Inson insoniyatni boshqaradigan buyuk ruh ekanligi islomiy-irfoniy falsafiy g'oyalar bilan talqin etilgan. Ulug' shoir ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari ifodalangan bu kabi asarlarni bevosita ilohiy-islomiy sarchashmalardan bahra olgan asar sifatida e'tirof etish mumkin.

<sup>60</sup> Алишер Навоий. Девони Фоний. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 20- жилд. – Т.: Фан, 2000-2003

<sup>61</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. – Т.: Фан, 2003

<sup>62</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. – Т.: Фан, 2003, 199-б.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. – Т.: Фан, 2003
2. Қуръони карим ( таржима ва тафсирлар муаллифи Абдулазиз Мансур)-,, Тошкент ислом университети''нашриёт-матба бирлашмаси,2014
3. Ҳамид Сулаймон. Алишер Навоийнинг форс тилидаги поэтик мероси тадқиқотидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965, № 5



## MAKTABGACHA YOSHDAGI ALALIYALI BOLALARDA YOZUV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

**N.Abidova**

*Nizomiy nomidagi TDPU Logopediya kafedrası, PhD.*

**E.Zoxidova**

*Logopediya mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola maxsus pedagogika fanining dolzarb muammosi-maktabgacha yoshdagi alaliyali bolalarda yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning o'ziga xosligi yoritilgan. Maqolada muammoning yechimiga oid logopedik ta'sirning mazmuni, bosqichlari, usullari qisqa ta'rifi va tegishli xulosalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *alaliyali bolalar, yozuv, fonematik eshituv, fonematik idrok, fonematik analiz va sintez, ko'ruv- fazoviy idrok, rivojlantirish.*

To'g'ri nutq bolaning har tomonlama rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Bolaning nutqi qanchalik to'g'ri va lug'ati boy bo'lsa, unga o'z fikrlarini bayon qilish shunchalik oson bo'ladi, atrof – olamni idrok etish uchun imkoniyat kengayadi, kattalar va o'z tengdoshlari bilan bo'lgan munosabati to'liq va mazmunli bo'ladi, uning psixiq rivojlanishi ham faol ravishda amalga oshadi.

Alaliyali bolalarning bilish faoliyati, intellekti, eshitish qobiliyati saqlangan holda, nutqning to'liq rivojlanmaganligida namoyon bo'ladi, ya'ni fonetik-fonematik, leksik, grammatik tomonida ma'lum kamchiliklar kuzatiladi. Natijada 6-7 yoshga yetganda ular savod egallashga yetarlicha tayyor bo'lmaydilar. Umumta'lim maktabining boshlang'ich sinfida bunday bolalar orqada qoluvchi bolalar orasiga qo'shilib qolish extimoli ortadi.

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, yozuv ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonini optimallashtirish hisoblanadi.

Zamonaviy ta'limda o'quv jarayonini optimallashtirish tushunchasi ostida qisqa vaqt sarflash va bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, katta natijaga erishish imkonini beradigan metodikalar, vositalarni tanlash tushuniladi.

Shu tariqa, yozuv ko'nikmasini shakllantirish ta'limni maxsus tashkil etish yo'li orqali erishiladi:

- nutqiy nuqson tuzilishini hisobga oluvchi kompleks psixologo-pedagogik shartlar;

- umumiy va maxsus tamoyillar;

- yozuv ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllanishini ta'minlovchi maxsus metodlar va vositalar;

- o'z-o'zini nazorat qilish faoliyatini bosqichma-bosqich shakllantirish va olingan natijalarni yoyiq, qadamba- kadam nazoratdan to' ichkirejadagi nazoratgacha shakllantirish;

- yozuv ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha tizimli va ketma-ket olib boriladigan ishlar uchun joy va vaqtni ko'zda tutuvchi maxsus logopedik mashg'ulotlarni tashkil etilishi.

Logopedik ta'sir maqsadi: yozuv ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha qulay korreksion- logopedik ishlar tizimini tanlash.

Logopedik ta'sir vazifalari:

- maktabgacha yoshdagi alaliyali bolalarda yozuv ko'nikmalarini shakllantirishda logopedik ta'sirni amalga oshirishning ilmiy-metodik ta'minlanishini o'rganish.

Maktabgacha yoshdagi alaliyali bolalarning ta'lim ehtiyojlariga keyinchalik maktabda yozuvni egallashlari uchun, nutqiy va nonutqiy ko'nikmalarni shakllantirish zaruratini kiritishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Yozuv ko'nikmalarini shakllantirishda alaliyali bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish; yozuv ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini hisobga olib topshiriq va mashqlar tanlash; bolalarni nutqiy va nonutqiy ko'nikmalarni egallashga qiziqishini ta'minlash; topshiriqlarni mustaqil bajarilishini ta'minlash; o'z- o'zini nazorat qilishini amalga oshirish; ta'limning an'anaviy va innovatsion metodlarini birlashtirish.

Pedagogik talablarga ko'ra biz tomondan korreksion- logopedik ishlarining ishlab chiqishda umumiy va maxsus tamoyillar hisobga olindi: tashxis va korreksiyaning birligi, individual- differensial yondoshuv, tizimlilik, komplekslilik, nutqiy materialni asta-sekin murakkablashib borishi, aqliy faoliyatlarni bosqichma- bosqich shakllanishi, vizuallashtirish, o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarning bosqichma- bosqich mustahkamlanishi.

Ta'kidlovchi eksperiment natijalari tahlili maktabgacha yoshdagi alaliyali bolalarda yozuning nutqiy va nonutqiy ko'nikmalarini turli darajada shakllanganligini ko'rsatdi, shuning uchun nutqiy nuqsonga ega bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda yozuv ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha olib boriladigan ishlar belgilab olindi.

**I- yo'nalish. Fonematik jarayonlarni rivojlantirish.**

Eng avvalo, fonematik eshituv, fonematik idrok, fonematik analiz va sintez, fonematik tasavvur tushunchalarini aniqlashtirish kerak.

Fonematik idrok — bu fonemalarni aniqlash va farqlash, so'zning tovush tarkibini aniqlash bo'yicha aqliy faoliyat hisoblanadi.

Fonematik tasavvur – bu fonematik jarayonlarni amlga oshirish jarayonida yuzaga keladigan aqliy faoliyatdir.

Bolalarning fonematik tasavvurlarini rivojlantirish, uni ontogeneza shakllanishini hisobga olib, L.N. Yefimenkova, G.A. Kashe, R.I. Lalaeva, L.G. Paramonova, I.N. Sadovnikova, T.B. Filicheva, G.V. Chirkina, A.V. Yastrebova, M.Yu. Ayupovalarning metodikalari asosida, til analizi va sintezi ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq ravishda, shuningdek, lingvistik materialni murakkablashtirib borishni hisobga olgan holda tuzildi.

Korreksion-logopedik ish quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi:

- 1) nonutqiy akustik signallarni farqlash;
  - atrof-olamdagi tovushlarni ajratish malakasini rivojlantirish;
  - musiqali tovushlarni ajratish malakasini rivojlantirish;
- 2) turli akustik belgilariga ko'ra, nutqiy signallarni farqlash;
  - tovush tarkibiga ko'ra yaqin so'zlarni farqlash;
  - bo'g'inlarni farqlash;
  - unli va undosh tovushlarni farqlash;
- 3) Tovushlar analiz va sintezining elementar ko'nikmalarini rivojlantirish:
  - oddiy fonematik analiz va sintez;
  - murakkab fonematik analiz va sintez;
- 4) Fonematik tasavvurlarni rivojlantirish:
  - mustaqil ravishda berilgan tovush turli o'rinlarda kelgan so'zlar topish;
  - berilgan tovushlar soniga mos so'zlarni mustaqil o'ylab topish;
  - berilgan sondagi bo'g'inlarga mos so'zlarni mustaqil o'ylab topish;

Bolalarda nonutqiy akustik signallarni farqlash ustida ishlash jarayonida musiqa tovushlari va atrof - olamdagi tovushlarni ajratish malakasi rivojlantiriladi. O'yinli topshiriqlar asosida bolalar turli musiqa asboblari, hayvonlar ovozlari, transportlar ovozlari ajratishga o'rganadilar.

Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, korreksion ishni bolalarga yaxshi tanishovozlardan boshlab, tovushli materialni asta-sekin murakkablashtirib borish kerak.

**Fonematik idrokni rivojlantirish**

Ishning keyingi bosqichi fonematik tasavvurlarni shakllantirish bo'ldi.

Keltirilgan sxema maktabgacha yoshdagi alaliyali bolalarda fonematik tasavvur, anliz va sintezni shakllanish jarayonini aks ettiradi. Oddiy fonematik tahlil ostida bolalarning berilgan tovushni boshqa tovushlar, bo'g'inlar qatoridan topish, so'z tarkibida berilgan tovushni ajratish malakasi tushuniladi. Murakkab fonematik tahlil ostida tovushning so'zdagi o'rnini, uni ketma-ketligini ularning sonini aniqlash tushuniladi .

Fonematik tasavvur berilgan tovushga mustaqil so'zlar topish berilgan sondagi tovushlar, bo'g'inlarga mos so'zlar topishni ko'zda tutadi.

### **Oddiy fonematik tahlil**

Ta'limga individual- differensial yondoshishga tayangan holda har bir mashqlar moduli " Oddiy fonematik tahlil", " Murakkab fonematik tahlil" uchta darajadagi murakkablikka ega bo'ldi. Ushbu mashqlar nutqiy materialli so'zlarning bo'g'inli tuzilishini asta-sekin murakkablashib borishini (A.K. Markova bo'yicha) hisobga olib tanlanadi va bolalarga quyidagi ketma-ketlikda taklif etiladi:

Birinchi darajadagi murakkablik:

- kema-ket undoshlari yo'q bir bo'g'inli so'zlar;
- ikkita ochiq bo'g'indan iborat, ketma-ket kelan undoshlari yo'q ikki bo'g'inli so'zlar.

Ikkinchi darajadagi murakkablik:

- ochiq va yopiq bo'g'inlardan tashkil topgan ikki bo'g'inli so'zlar;
- ketma-ket kelgan ikki bo'g'inli so'zlar;
- so'z boshida ketma-ket kelgan undoshlari bo'lgan bir bo'g'inli so'zlar;
- so'z oxirida ketma-ket kelgan undoshlari bo'lgan bir bo'g'inli so'zlar .

Uchinchi darajadagi murakkablik:

- so'z boshida ketma-ket kelgan undoshlari bo'lgan ikki bo'g'inli so'zlar;
- so'z boshida va o'rtasida ketma-ket kelgan undoshlari bo'lgan ikki bo'g'inli so'zlar;
- uch bo'g'inli so'zlar.

### **Oddiy fonematik tahlil**

Bu mashqlar maktabgacha yoshdagi bolalarda tovushlar tahlilining elementar ko'nikmalarini rivojlantiradi va quyidagi mashqlarni qamrab oladi: «Birinchi tovush», " Oxirgi tovush", " Tovushning so'zdagi o'rnini", ularning har biri uchta darajadagi murakkablikka ega va bolalarda quyidagi malakalarni shakllantiradi:

- so'zdagi birinchi unli tovush;
- so'zdagi birinchi undosh tovush;
- so'zdagi oxirgi undosh tovush;

- tovushning so'zdagi o'rni ( boshida, o'rtasida, oxirida).

Bu mashqlar bilan ishlash murakkablik darajasini tanlashdan boshlanadi. Tanlov pedagog tomonidan bolalarning nutqiy ko'nikmalarini shakllanganlik darajasini hisobga olib amalga oshiriladi.

### **Murakkab fonematik tahlil**

Bunda quyidagi mashqlar beriladi : "So'zni top " ,, Yo'qotilga harf "," Rasmni tavsifla".Ushbu mashqlar bolalarda murakkab tovush analizi va sintezini shakllantirishga xizmat qiladi, aynan:

- so'zdagi tovushlar ketma-ketligini aniqlash;
- so'zdagi tovushlar sonini aniqlash;
- boshqa tovushlarga nisbatan berilgan tovushning o'rnini aniqlash .

Neyropsixologik nuqtaiy nazardan so'zni ritm bilan aytish usuli, shuningdek, bo'g'inlarga ajratish va ularni bir me'yorda orfografik varintdagi talaffuzi qo'llaniladi. Bu ham eshituv tayanchiga ko'ra, ham ko'ruv tayanchi orqali amalga oshirildi. Birinchi variantda bolalarga oddiy ohangda eshitgan so'zlarni bo'g'inlab takrorlash taklif etildi, ikkinchi variantda u ko'rsatilgan rasmdagi predmet nomini yoki o'qilgan so'zni bo'g'inlab aytish taklif etiladi. Bizning fikrimizcha , bola nafaqat ritmli so'zlarni aytishi , balki, logoped yoki boshqa bolalar tomonidan aytilgan ritmli so'zlarni eshitishi foydadan holi bo'lmaydi .

### **Ko'ruv- fazoviy idrokni rivojlantirish**

Bu yo'nalishdagi mashqlar bolalarda nafaqat harflarning aniq obrazini shakllantiradi, balki, ko'ruv xotirasi ko'lamini kengaytiradi va aniqlashtiradi, fazoviy idrokni, yozuvda almashtiriladigan harflarni farqlashni rivojlantiradi.

Ko'ruv- fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish Z.E. Agranovich, T.V. Axutina, JI.B. Benediktova, R.I. Lalaeva, N.M. Pilaevoy, I.N. Sadovnikova, A.B. Semenovichlar tomonidan ishlab chiqilgan metodikalarga asoslanadi.

Fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish o'z ichiga 1) tana tuzilishini aniqlashtirish, 2) fazoda mo'jal olish, 3) qog'oz yuzasida mo'ljal olishni qamrab oladi.

Ko'ruv gnozisini rivojlantirish: 1) predmetli gnozis; 2) harflar gnozisini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

1.Predmetlarning ko'ruv- fazoviy idrokini shakllantirish.

Bunda quyidagilar ishlar amalga oshiriladi:

- predmetlarning haqiqiy tasvirini aniqlash malakasini shakllanirish;
- predmetlarning chizma tasvirlarini aniqlash malakasini shakllantirish;
- predmetlarning andoza tasvirini aniqlash malakasini shakllantirish;

- xayoliy tasvirlarni aniqlash malakasini shakllantirish.
- 2. Harflarning ko'ruv- fazoviy idrok qilish:
  - harflarning bosma tasvirini ajratish malakasini shakllantirish;
  - harflarning chizma tasvirini ajratish malakasini shakllantirish;
  - harflarning andoza tasvirlarini ajratish malakasini shakllantirish;
  - harflarning xayoliy tasvirini ajratish malakasini shakllantirish;
  - tugallanmagan harflar tasvirini aniqlash malakasini shakllantirish.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Аюпова М.Ю. Логопедия. - Т.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2007.
2. Бабина Г.В., Сафонкина Н.Ю. Слоговая структура слова: обследование и формирование у детей с недоразвитием речи: логопед, технологии: учеб.- метод, пособие. М.: ПАРАДИГМА, 2010. -96 с.
3. Ефименкова Л.Н. Коррекция устной и письменной речи учащихся начальных классов: пособие для логопеда /Л.Н. Ефименкова. - М.: Гуманитар, изд. центр ВЛАДОС, 2006. - 335 с.
4. Садовникова И.Н. Нарушение письменной речи и их преодоление у младших школьников. — М.: « Владос» , 1995. — 256 с.

## SIGNAL SO'NDIRUVCHI QURILMALARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

***Yakubov Azizbek Bahodir o'g'li***

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti magistranti*

Hozirgi kunda turli xavfsizligi jihatidan yuqori darajani talab qiladigan korxonalar muassasa va tashkilotlarda fizik jihatdan qo'llanilgan himoya choralari video kuzatuv, turniket, yuzdan tanib olish va hokazolar aynan xavfsizlikni ta'minlashda ustuvor yechimlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari ma'lum bir hududda turli axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish, xavfsizlik talablarini qanoatlantirmaydi, shuning uchun ma'lum bir chegaralangan hududni xavfsiz qilishda signallarni so'ndiruvchi qurilma ta'minoti ishlab chiqish va loyihalash ko'zda tutilgan. Bunda FM va boshqa signallarni o'sha belgilangan hudud bo'yicha so'ndiruvchi qurilma ta'minoti bilan ish olib boriladi va FM signallarini so'ndiruvchi apparat ta'minoti ishlab chiqish va loyihalash maqsad qilinishi olingan.

Axborot xavfsizligi aloqa sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoyalashini anglatadi. Bu tushuncha mazkur subyektlarning axborot xavfsizligiga tashqi va ichki tahdidlar – manbaga ruxsatsiz kirish, ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi, o'g'irlanishining oldini olish, axborotning buzib talqin qilinishi va soxtalashtirilishiga yo'l qo'ymaslikni hamda axborot maxfiylikni ta'minlashni nazarda tutadi. Ana shunday sharoitda nafaqat shaxs yoki jamiyat, balki iqtisodiy va milliy xavfsizlikni ta'minlash g'oyat muhim ahamiyatga ega. Xizmatlarga doir hujjatlar va yozishmalar faqat milliy himoyalangan va rasmiy elektron pochta xizmatlari orqali olib borilmoqda. Axborot xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Davlat hokimiyati organlari, turli boshqarma hamda tashkilotlarda ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashda turli dasturiy va apparat ta'minotlarini qo'llanilishini ta'kidlashimiz lozim.

Hozirga kelib turli hil signal so'ndiruvchi qurilmalar mavjud bo'lib, ular vazifalariga qarab toifalanadi. Signalni so'ndirish tushunchasi harbiy sohada birinchilardan bo'lib qo'llanilgan. Har bir davlat o'z hududiy chegaralarini qo'riqlashni o'zining asosiy maqsadlaridan biri hisoblaydi bunda signal so'ndiruvchilarning o'rni juda ahamiyatlidir. Chunki oddiy qilib aytganda hozirgi kundagi eng zamonaviy masofadan boshqariladigan dronlar ham ma'lum bir chastotada ishlaydi. Asosiy maqsad chegara dahlsizligini saqlash

bo'lib, havo chegarasiga yaqinlashgan har qanday uchar va yuruvchi har qanday texnika o'zining bazasi bilan aloqasini saqlash uchun maxsus chastotalardan foydalaniladi. Shu payt signal so'ndiruvchilarning vazifasi umumiy spektrda keng polosali radio shovqinni tarqatish orqali uning aloqasini uzish bo'ladi.

Axborotni himoyalashning apparat himoya vositalari tahlil va loyihalashtirishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu ishda mavjud to'lqin to'suvchi apparat vositalar tahlil qilingan va FM to'lqin chastotalarini to'suvchi apparat vosita ishlab chiqilgan.

Eng dastlabki aloqa vositalarining paydo bo'lishi bilan diplomatlar va harbiy rahbarlar maxfiy yozishmalarni himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini va uni soxtalashtirishga urinishlarni aniqlash usullarini tushunishdi. Misol uchun, Yuliy Tsezar, miloddan avvalgi 50-yillarda ixtiroga kiritilgan. e. Qaysarning maxfiy xabarlarini o'qishga yo'l qo'ymasliklari kerak bo'lmagan kishilarning oldini olish uchun mo'ljallangan shifrlarni. Garchi ko'pincha himoya qilish maxfiy yozishmalarni ko'rib chiqish jarayonini nazorat qilish orqali ta'minlangan bo'lsa-da. Yashirin xabarlar ularni muhofazalangan va himoyalangan vakolatli shaxslar bilan ta'minlanganligi uchun belgilanadi, ular himoyalangan binolarda yoki kuchli qutilarda saqlanadi. Pochtani rivojlantirish bilan birga, hukumat tashkilotlari xatlarni to'xtatib, ochish, o'qish va o'chirishga kirishdi. Shunday qilib Angliyada 1653 yilda ushbu maqsadlar uchun maxfiy idora paydo bo'ldi. Rossiyada, hech bo'lmaganda I Peter I davridan boshlab, 1690 yildan beri chet elga yuborilgan barcha xatlarni Smolenskda ochish jarayoni o'tkazildi. Deyarli barcha xorijiy diplomatlarning yashirincha nusxa ko'chirish amaliyoti muntazam ravishda, XVIII asr o'rtalarida - «qora idoralar» deb nom olgan shubhali aldashchining mavjud emasligi. Otopsiyadan so'ng, xabarlarining kripto tahlilini amalga oshirish talab qilindi, bu vaqt uchun taniqli matematiklar qora shkaflarning faoliyatiga jalb qilindi. Eng yaxshi natijalarga olti oy ichida Prussiya va Frantsiya vazirlarining 61 ta maktubini o'rganishga muvaffaq bo'lgan Christian Goldbach erishdi. Ba'zi hollarda, maktub muvaffaqiyatli parollanganidan so'ng, uning mazmuni almashtirildi - birorta odam o'rtadagi hujum.

XIX asrning boshlarida Rossiyada Aleksandr I ning hokimiyatga kelishi bilan barcha kriptografik faoliyat Tashqi ishlar vazirligi idorasiga ko'chirildi. 1803 yildan boshlab taniqli rus olimi Pavel Lvovich Shilling ushbu bo'limning xizmatida edi. Ofisning eng muhim yutuqlaridan biri 1812 yilgi Vatan urushida Napoleon I buyurtmalarini va xatosizligini deklaratsiyalash edi. XIX asrning



o'rtalariga kelib, hukumatlar maxfiylikka asoslangan holda axborotni boshqarishga imkon beradigan, yashirin axborot uchun yanada murakkab tasniflash tizimlari paydo bo'ldi. Misol uchun, Britaniya hukumati 1889 yilda Davlat sirlari to'g'risidagi qonunni e'lon qilish yo'li bilan 1889 yilda ushbu tasnifni qonuniylashtirdi. Birinchi jahon urushi davrida ko'p sathli tasniflash va shifrlash tizimlari barcha urushayotgan tomonlarga axborotni etkazish uchun ishlatilgan bo'lib, bular shifrlash va kriptozanalizatsiya birliklarining paydo bo'lishi va jadal foydalanishiga yordam berdi. Shunday qilib, 1914 yil oxiriga kelib, Buyuk Britaniyaning etakchi kriptografik organi bo'lgan «40-xona» tashkil etilgan. 1914 yil 26 avgustda engil nemis kreyser «Magdeburg» Finlyandiya Ko'rfazining og'ziga Odenholm oroli yaqinidagi toshlarga o'tirdi va u keyinchalik Rossiya imperiyasiga tegishli edi. Nemislar barcha hujjatlarni vayron qilib, kemani portlatishdi, ammo rus dalgıçlari pastki qismini ko'zdan kechirib, ikkita nusxasini topdilar, ulardan bittasi inglizlarga topshirildi. Ko'p o'tmay, yordamchi kemalar uchun kodlarning kitoblarini, shuningdek, tashqi dengiz kemalari va dushman bilan birga kelgan kemalar orasidagi aloqa inglizlar dengiz qirg'oq kodlarini tushunishdi. Kodni buzish, dushmanning ushlangan radiogrammasini o'qish imkonini berdi. 1914 yil noyabr oyining oxiridan boshlab, Xona 40 nemis Filo radiogrammalarining muntazam parchalanib ketishini boshladi, bu esa deyarli barcha buyruq va yo'riqnomalarni uzatdi. Birinchi marta ushbu transkriptlar nemis harbiy kemasining Britaniyaning qirg'oqlariga hujumida 16 dekabr 1914 yilda foydalanishga harakat qilishdi. Urushdan keyingi davrda shifrlash tizimlari yanada murakkablashdi, shuning uchun 1920-yillarda nemis muhandislari tomonidan yaratilgan Enigma maxfiy xabarlarini shifrlash va parchalanish uchun maxsus mashinalar qo'llanila boshlandi.

1932 yilda Polsha razvedka shtrixlari byurosi Enigma shifrini teskari muhandislik yordamida chekishga muvaffaq bo'ldi. Ikkinchi jahon urushida Gitlarga qarshi koalitsion davlatlar tomonidan almashinadigan ma'lumotlarning miqdori milliy tasniflash tizimlarini va nazorat qilish va boshqarish jarayonlarini rasmiy tarzda uyg'unlashtirishni talab qildi. Hujjatlarni kim qaerga topshirishi mumkinligini aniqlaydi (qoida tariqasida, begonalar emas, balki xodimlar) va ular saqlanadigan joyda, tobora murakkab kassa va kassetalar paydo bo'lishini hisobga olgan holda, faqat boshlang'ichlarga ega bo'lgan maxfiy shtamplar tuzildi. Urush olib boruvchi tomonlar maxfiy hujjatlarning kafolatli tarzda yo'q qilinishi uchun protseduralar ishlab chiqdilar. Bunday tartib-qoidalarni buzishning ba'zilari butun urushning eng katta razvedka ma'lumotlari natijalariga olib keldi. Misol uchun, Germaniya

U-570 dengiz osti kemasining ekipaji uni qo'lga olgan inglizlarga yuborilgan ko'plab maxfiy hujjatlarni yo'q qila olmadi.

Axborot xavfsizligini qo'llashning yorqin namunasi yuqorida qayd etilgan «Enigma» dir, uning murakkab versiyasi 1938 yilda paydo bo'lgan va «Wehrmacht» va Uchinchi Reichning boshqa xizmatlaridan keng foydalanilgan. Buyuk Britaniyada Alan Turing boshchiligidagi guruh Enigma bilan shifrlangan dushman xabarlarini kriptanalizatsiyalashda muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan «Turing Bombe» kodirovkasi mashinasi (inglizcha «Turing bomba» dan) Gitlarga qarshi koalitsiyaga katta yordam ko'rsatdi va ba'zan ittifoqchilarning g'alabasida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qo'shma Shtatlarda AQShdan tashqarida bo'lgan til noma'lum bo'lgan Navajo nomidagi Hind qabilasining aloqa bo'limi xodimlari Tinch okeanidagi harbiy operatsiyalarda radio aloqalarini shifrlash uchun ishga yollanganlar. Yaponiyadagi ma'lumotlarning muhofazasi uchun ushbu ekzotik usulning kaliti topilmadi. SSSRda 1930 yildan boshlab yuqori chastotali signallarni ovozi modulyatsiyaga asoslangan va ularni keyinchalik aralashtirishga asoslangan HF aloqasi mamlakatning oliy hokimiyatini tinglashdan (shu jumladan, Oliy Qo'mondonligining Shtat idorasidan) telefon orqali so'zlashuvlarni himoya qilish uchun ishlatilgan. Shu bilan birga, kriptografik muhofazaning yo'qligi spektrometr yordamida, xabarlarining uzilgan signalida saqlanishiga imkon berdi.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlanishi telekommunikatsiya, kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minotining tezkor rivojlanishi va ma'lumotlarni shifrlash bilan ajralib turardi. Kichik, kuchli va arzon kompyuter uskunalari paydo bo'lishi kichik biznes va uy foydalanuvchilari uchun elektron ma'lumotni ishlov berish imkonini berdi. Tez orada kompyuterlar internet orqali ulangan, bu esa elektron biznesning portlovchi rivojlanishiga olib keldi. Bularning barchasi, kiber jinoyatlarning paydo bo'lishi va ko'plab xalqaro terrorizm hollari bilan birlashtirilib, kompyuterlarni va ular saqlaydigan, qayta ishlaydigan va uzatadigan axborotlarni himoya qilishning eng yaxshi usullarini yaratishga zarurat tug'dirdi. Axborot tizimlarining xavfsizligi va ishonchligini ta'minlashning umumiy maqsadlariga erishish uchun «Kompyuter xavfsizligi» va «Axborotni himoya qilish metodlari» kabi fan fanlari mavjud.

## QUR'ONI KARIMDAGI ILOHIY SON

**Mardankulova Madinaxon Anvarjon qizi***Muqumiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti  
magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qur'oni karimning matematik mo'jizalari, uning oyatlarida keltirilgan matematik hodisalar, takrorlanishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** oyat, ilohiy, kalima, shifr

Olam sir sinoatlarga boydir. Barcha sirlarni o'zida jamlagan Qur'on ham shunday. Qur'on boshidan to oxirigacha mo'jizadir, kichkinagina yuragi, qalbi bilan koinotni o'zida aks ettirgan kabi ilohiy bir mo'jizadir.

Qur'on ilohiy amrlarining kalomga, kalomidan ovozga, ovozidan qalblarga o'tishidir. Uning boshqa yozuvlar va so'zlardan farqi ham ana shunda. Inson til bilmasa ham, uni tinglaganida qalbi bilan ilohiy hikmatlarni sezadi, eshitadi va albatta ruhan Qur'on dunyosida yashaydi.

Qur'onda 19 raqamining katta hikmati bordir. Ko'plab oyatlarning kalimasi va harflari yig'indisi 19 raqamining karralariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari "Bismillahir Rohmanir Rohim" da ham 19 harflidir. Qur'ondagi "Yusuf" surasida insonning 19 xususiyati yashiringandir. Shu sababli 19 sonining juda muhim jihatlari bor, deb hisoblanashi bejiz emas. [3]

19 sonining Qur'onda keltirilishi

Ma'lumki, Qur'on nozil bo'lishi "Alaq" surasining dastlabki besh oyati bilan boshlangan. Bu besh oyat 19 kalimadan iboratdir va harflar yig'indisi ham 19 soniga karrali. ( $4 \times 19 = 76$ ). So'ng "Muzzammil", undan keyin "Muddassir" (73-va 74-suralar) ning dastlabki 30 oyati kalimalari nozil bo'ldi. Qurayshning eng aqlli kishisi bo'lmish Valid Ibn Mug'ayra dastlabki nozil bo'lgan oyatlarni eshitib o'tirib, undagi kalomlarning fenomenal (ya'ni ilohiy) xususiyatini e'tirof etgan. Afsuski, keyinchalik Quraysh kofirlari uni g'urur va kibru havo yo'lida ayblashdi va u oldingi so'zidan qaytdi, bu - inson kalomidir, dedi. Shunda "Muddassir"ning ilk 30 oyati inzol bo'ldi:

18-oyat: Innaqu faqqara va qaddara. Albatta, u tafakkur qildi va chamalab chiqdi.

19-oyat: Fa qutila kayfa qaddara! La'nat bo'lsin unga, qandoq ham chamaladi!

20-oyap Summa qutila kayfa qaddara. So'ngra yana la'nat bo'lsin unga qandoq ham chamaladi.

25-oyat: In hozu illo qavlul bashar. Bu bashar so'zidan o'zga hech narsa emas, dedi

26-oyag. Si usluxe Saqor. Tezda uni saqar (do'zaxi) ga kiriturman.

30-oyat: A'layho tis'ata a'shar. U (saqar) ning ustida 19ta (farishta) bor.[1]

Bu oyatlar birgalikda: "Tushuna turib, ilohiy ekanligini bila turib, Qur'onning ilohiyligini inkor qilsalar, bundaylar ustiga 19 lar sirini ag'daraman, Qur'onning Alloh kalomi ekanligini inkor etganlar bo'hrondan bo'hronga tushajaklar", degan ma'noni anglatadi.

Bu 30-oyati kalimadan keyin Qur'onning shifr hikmati kalitlari- "Bismillah" bilan "Fotiha" nozil bo'ldi. Lekin dunyo faqat avliyolar va anbiyolardan iborat emas. XX asrning so'nggiga qarab kelayotgan Amerikaning eng mashhur, tengsiz matematiklari ham Qur'onning bu sirlariga hayron qoldilar. Bu olimlarning olib borgan turli xil matematik tadqiqotlariga ko'ra, Qur'ondagi bu 19 soni va uning karralari hikmati bor bo'lishi va u  $616 \times 10^{25}$ dir, ya'ni 626 septrilliondan bir ehtimol. Shuning uchun ham Qur'oni karim faqat Alloh kalomidir.

Bismillahning 19 siri

Bismillah 19 harfdan iboratligi ma'lum, bismillahdagi to'rt kalima Qur'onda 19 sonining karralarida ko'rinadi: ISM 19 marta takrorlanadi, ALLOH  $19 \times 142 = 2698$ , ROHMAN  $19 \times 3 = 57$ , ROHIM  $19 \times 6 = 114$  marta takrorlanadi. (Qur'onning 9-sura 128-oyatida Payg'ambarimiz bo'lmish Muhammad alayhissalomga nisbatan ishlatilgan Rahim sifati, albatta, bundan mustasno). [3]

Qur'onda Bismillah  $6 \times 19 = 114$  marta takrorlanadi, faqat 9-suraning Bismillah kalimasi yo'q. Yo'qolgan bu Bismillah kalimasi 19 sura o'tgandan keyin "Naml"da (27-sura 29-oyat) keltirilgan. Bu yetishmagan Bismillah ham bizga Allohning Qur'on matematikasi ichida 19 raqamiga bergan e'tiborini bayonidir.

Bismillahning bu 19 lar hikmati siri nima ekan? Bu savolning javobi, ya'ni yashirilgan ma'no hikmatlari "Yusuf" surasida bildirilgan bo'lsa ajab emas.

"Yusuf" deb nomlangan 12-surada 19 shaxs mavjud. Va bular insondagi 19 xususiyatni tamsil etgan. Ular quyidagicha:

- 1- Yoqub hazratlari: RUH.
- 2- Yusuf hazratlari: QALB (KO'NGIL).
- 3- Zulayho: NAFS.

4- Binyamin: IYMON.

5- Qiftir: DUNYOGA HIRS (DUNYOGA BOG'LIQLIK).

6- Sulton: OQILLIK.

7- Sharobchi (soqiy): ILM.

8- Sharobchining yonidagi tutqun: MANTIQ.

9- Yusufni quduqdan chiqargan karvonchi: MANFAAT.

10 - Yusufning o'n akasi: XASISLIK, GINA, SHUBHA (GUMON), G'URUR, ZULM, SHAHVAT, EHTIROS, JAHOLAT, ZAIFLIK, SUYUQLIK. [3]

Shunday qilib, Bismillah insondagi bu xususiyatlarga har bir harfi bilan ta'sir o'tkazuvchi ilohiy bir kafolatdir. Chunonchi, Be harfi inson badaniga, Sin harfi nafsigaga, Mim - qalbiga, keyingi Alif - ruhiga biror kafolat sug'urtasidir.

Ramzlarda 19 sonining nazokati va boshqa hikmatlari

Qur'onning 7-surasida "Alif-Lom-Mim" shifri bor. Bu yetti surada uchragan "Alif", "Lom", "Mim" harflarining yig'indisi 19 ga karralidir ya'ni  $26676 = 1404 \times 19$  dir.

Qur'onning 7-surasida "Ho-Mim" shifri bor. Bu shifrlar uchragan suralardagi "Ho" va "Mim" harflarining yig'indisi  $2147 = 113 \times 19$  dir.

"Sho'ro" surasida 5 muqatta'a bor va ular ikki oyat holidadir: biri "HO-MIM", ikkinchisi "AYN-SIN-QOF".

Surada bu besh harf yig'indisi:  $570 = 30 \times 19$ , shuningdek, "Ayn", "Sin", "Qof" yig'indisi:  $209 = 11 \times 19$ , "Qof" yig'indisi:  $57 = 3 \times 19$ . 7-sura esa "Alif—Lom—Mim—Sod" bilan boshlanadi, bu harflar yig'indisi:  $5358 = 282 \times 19$  kabidir. 19-surada muqatta'a harflar: "Qof", "Ho", "Yo", "Ayn-Sod". Bu harflar yig'indisi esa  $798 = 42 \times 19$  dir. «Sod» shifriga ega bo'lgan 7, 19, 38-suralarda keltirilgan "Sod" yig'indisi:  $152 = 8 \times 19$ . [2]

Dunyoning mo'jizakor ko'rinishlari aslida Qur'oni karimda avvaldan bayon etilganligining o'zi ham bir mo'jizadir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol, birinchi juz. – Toshkent: «HILOL-NASHR», 2013.

2. Харун Яхья. Чудо Корана. Научные, исторические и математические феномены. Пер. с турецкого / М: Издательский дом «Культура Паблишинг», 2005

3. Qur'oni karimning ilmiy mo'jizalari. Onkolog-hakim Xoluq Nurboqiy. Turkchadan Miraziz A'zam tarjimai. Ikkinchi nashri Toshkent "Adolat" 2002

4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR MULOKOTIDAGI BOG'LANISHLI NUTQ TUZISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

**Sharipova-Usmonova Sokina**

*Nizomiy nomidagi TDPU, Logopediya kafedrası*

*1-boskich magistranti*

Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda bog'lanishli nutq tuzish bilan bog'liq turli-tuman kamchiliklar kuzatilishi qator mualliflar (V.K. Vorobeva, V.P. Gluxov, N.S. Jukova, Ye.M. Mastyukova, T.B. Filicheva, R.I. Spirova, A.V. Yastrebova va boshq.)ning ilmiy ishlarida ta'kidlab o'tilgan.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning bog'lanishli nutq tuzish bilan bog'liq eng asosiy qiyinchiliklari ularda til sistemasining asosiy fonetik-fonematik, leksik-semantik, grammatik komponentlarining shuningdek, nutqning talaffuz va mazmun jihatlarining yetarli darajada shakllanmaganligi natijasida kelib chiqadi. Bundan tashqari muhim psixik xususiyatlar (diqqat, xotira, tasavvur va boshq.)ning rivojlanishida kuzatiladigan ikkinchi darajali cheklanishlarning mavjudligi bog'lanishli monologik nutqni o'zlashtirish jarayonini murakkablashuvi uchun qo'shimcha sharoitlarni yuzaga keltiradi.

Odatiy nutqiy imkoniyatlarga ega bolalar bilan nutqi to'liq rivojlanmagan (intelektual qobiliyatlari me'yorida bo'lgan bolalar nazarda tutilmoqda) bolalarning ona tilini o'zlashtirish jarayonini taqqoslash vaqtida ularning barchasida umumiy jihatlar mavjudligi kuzatildi. Har qanday nutqiy potologiyaga ega bo'lgan (intelektual qobiliyatlari me'yorida bo'lgan) bolalar nutqining rivojlanishida A.N.Gvozdev tomonidan «Voprosy izucheniya detskoy rechi» (1961) nomli tadqiqotida qayd qilingan uch muhim davr mavjud bo'lishini taqazo etadi.

Masalan nutqiy rivojlanishning logopediyada "umumiste'mol muloqot vositalarining mavjud bo'lmasligi" bilan xarakterlanuvchi birinchi bosqichi A.N.Gvozdev tomonidan "Bir so'zli gap. Ikki o'zakli so'zdan iborat gap" deb nomlanuvchi birinchi davr bilan muvofiq keladi.

Nutq anomal rivojlanishining logopediyada "frazali nutqning boshlanishi" deb nomlanuvchi ikkinchi darajasi "gap grammatik strukturasi o'zlashtirilishi" deb nomlanuvchi davrga mos keladi.

"Leksik-grammatik va fonetik qurilishida muammolarga ega frazali nutqning amal qilishi" sifatida xarakterlanuvchi nutq anomal rivojlanishining

uchinchi darajasi o'zida bola tomonidan til morfologik tabiati o'zlashtirilish davrining o'ziga xos variantini ifodalaydi.

Taniqli filolog A.N.Gvozdev va izdoshlarining tadqiqotlaridagi materiallarga ko'ra zamonaviy olti yashar bola ona tili sistemasini to'liq o'zlashtirgan bo'lishi, ya'ni

- bog'lanishli gapirishi;
- o'z fikrini to'liq bayon qila olishi;
- murakkab yoyiq gaplarni osonlik bilan tuza olishi;
- qiyinchiliklarsiz ertak va hikoyalarni so'zlab bera olishi;
- barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishi;
- qo'shma so'zlarni osonlik bilan tuza olishi;
- lug'at boyligi 6-8 ming so'zdan iborat bo'lishi lozim.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda esa mazkur manzara o'zgacha ko'rinishga ega bo'ladi. U turli darajalarda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan: so'zlarni to'liq jumлага birlashtira olmaslik yoki alohida so'zlar o'rniga taqlid so'zlarni talaffuz qilish (mu-mu, av, tu-tu kabi), fonetik-fonematik, leksik-grammatik elementlarni qatnashtirib, bog'lanishli nutq tuza olmaslik. Biroq har qanday holatda buzilishlar til sistemasining barcha komponentlariga taalluqli bo'ladi (G.A. Kashe, R.E. Levina, L.F. Spirova, G.V. Chirkina, A.V. Yastrebova va boshq.). Shu munosabat bilan zamonaviy logopediyada nutqiy rivojlanish shartli ravishda uch toifaga ajratiladi. NTR (nutki tulik rivojlanmagan)ning davrlashtirilishi 1968 yilda R.E. Levina va uning hamkasblari tomonidan sistemali yondashuvga tayangan holda ishlab chiqilgan.

Nutqiy rivojlanishning birinchi darajasi rivojlanishi me'yorida bo'lgan bolaning nutqi deyarli to'liq shakllanib bo'lgan bir yoshda NTRli bolalarda mutlaqo yoki qisman muloqot vositalarining mavjud emasligi bilan xarakterlanadi. Bunday bolalarning faol lug'ati juda sodda, oson talaffuz qilinadigan kam miqdordagi so'zlardan iborat. Ayrim bog'lamalarni vaziyatdan kelib chiqqan holda bir so'zdan iborat gap deb hisoblash mumkin. Predmetlar va haraktlarni nomlashdagi differentsatsiya deyarli mavjud emas. Harakatni ifodalovchi so'zlar predmet nomlari bilan predmetlar esa aksincha, harakatlarni nomlovchi so'zlar bilan ifodalanadi (ochmoq –“eshik” va aksincha yemoq- “nonna” kabi). Ishlatiluvchi so'zlarning ko'p ma'noda qo'llanilishi xarakterlidir. Kam sonli lug'at zahirasi bevosita sodir bo'layotgan voqea-hodisalar va atrofdagi predmetlarni nomlaydi.

Vaziyatli belgilarni inobatga olmaganda bunday bolalar otlardagi birlik va ko'plikni, fe'llardagi zamon kategoriyalarini hamda kelishiklarning mazmunini yaxshi anglamaydilar va farqlamaydilar. Murojaat qilinganda asosiy e'tibor so'zning lug'aviy ma'nosiga qaratiladi. Bolalar munosabatlarni tushuntirish uchun morfologik birliklardan foydalanmaydilar. Ularning nutqini fleksiyadan yiroq bo'lgan bir o'zakli so'zlar tashkil etadi. "Jumla" o'zaro birlashtirilgan elementlardan iborat bo'lib, ular o'z navbatida vaziyatni izohlash jarayonida maxsus qo'l harakatlari bilan birgalikda davom etadi.

V.P. Gluxov (1994) qayd qilganidek, bunday bolalarda jumlati nutq deyarli mavjud bo'lmaydi; biror voqea-hodisani so'zlab berish jarayonida ular alohida-alohida so'zlarni va ayrim hollarda juda ko'p takrorlanuvchi gaplarning bitta-ikkita so'zini aytadilar.

Nutqiy rivojlanishning ikkinchi darajasida esa bolalar fikr ifodalash jarayonida alohida so'zlar va muntazam takrorlanuvchi so'zlar hamda jestlar bilan birga nutqning ayrim fonetik va grammatik vositalaridan foydalanadilar. Bolalar jumlati nutqdan foydalana boshlaydilar, berilgan savollarga javob bera oladilar va kattalar bilan atrofdagi olam ifodalangan rasmlar yuzasidan suhbatlasha oladilar. Biroq bunday nutqiy rivojlanish darajasiga ega bolalar ham amaliy jihatdan bog'lanishli nutqdan foydalana olmaydilar.

Mazkur nutqiy rivojlanish darajasidagi bolalar 2-3, ba'zan 4 so'zdan iborat sodda gaplardan foydalanadilar. Lug'at zahirasi yosh me'yorida sezilarli darajada ortda qoladi: tana a'zolari, hayvonlar va ularning bolalari, kiyimlar, hafta kunlari va kasblarga doir ko'p so'zlarni bilmasliklari namoyon bo'ladi.

Predmetlarni, harakatlarni, belgilarni nomlovchi so'zlarni qo'llash jarayonida qo'pol xatolar ko'zga tashlanadi. Bolalar narsalarning rangi, hajmi va shaklini bilmaydilar va ularni mazmunan yaqin so'zlar bilan almashtiradilar. Grammatik konstruksiyalar, fe'l shaxs-soni va kelishik shakllarini qo'llash jarayonida qo'pol xatolar ko'zga tashlanadi. NTRning ikkinchi darajasidagi bolalar gap konstruksiyalarni qo'llashda jiddiy qiyinchiliklarga uchraydilar. Bog'lovchi va yuklamalar deyarli ishlatilmaydi.

5-6 yoshli bolalarda NTRning eng ko'p tarqalgan turi nutqiy rivojlanishning uchinchi darajasidir. Bunda bolalar kengaytirilgan jumlati nutqdan foydalanadilar, biroq fonetik-fonematik va leksik-grammatik kamchiliklar kuzatiladi.

Nisbiy kengaytirilgan jumladan foydalanish ortida ko'p lug'aviy ma'nolarning noaniq qo'llanilishi yashiringan. Faol lug'at zahirasi katta



qismini ot va fe'l turkumiga oid so'zlar tashkil etadi, predmet va harakatlarning belgisini ifodalovchi (sifat, ravish turkumiga oid) so'zlar deyarli bo'lmaydi. So'z yasalishidan to'g'ri foydalana olmaslik so'zlarning turli variantlarini qo'llashda qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Erkin fikr ifodalash jarayonida asosan keng iste'molda qo'llaniluvchi sodda gaplardan foydalaniladi, murakkab konstruksiyali gaplar deyarli ishlatilmaydi.

Agrammatizm, ya'ni ot va sonlarning ishlatilishida, fe'l shaxs-sonida chalkashliklar mavjudligi kuzatiladi. Ko'makchilarning qo'llanilishida ko'p miqdordagi xatolar kuzatiladi.

Lug'aviy, grammatik va fonetik birliklarning qo'llanishidagi xatoliklar ayniqsa turli shakldagi bog'lanishli morfologik nutqni qo'llash jarayonida: hikoya tuzishda, bayon yozishda, rasmni tasvirlashda yaqqol namoyon bo'ladi.

Lug'at zahirasining cheklanganligi, ona tilining grammatik tuzilishini yaxshi bilmaslik bog'lanishli nutqdan foydalanish hamda nutqning dialogik shakldan matn (kontekst)li shakliga o'tish jarayonini qiyinlashtiradi. Bolalar voqea-hodisalarni mantiqiy jihatdan anglab turib, ularni ifodalashga qiynaladilar va voqealarni ketma-ket sanab o'tish bilan cheklanadilar. Qayta bayon qilish jarayonida bola voqea-hodisalarning mantiqiy ketma-ketligini bayon qilishda chalkashadilar, ma'lum bir qismlarini unutib qoldiradilar, voqea qahramonlarini tushirib qoldiradilar. Bayon-hikoya alohida predmetlarni sanash bilan cheklanadigan bolalar uchun murakkab sanaladi. NTRli bolalarda kengaytirilgan jummalarni tuzish va til xususiyatlarini tushinishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Ularning nutqiga fikrlarning o'zaro bog'liqligi va ketma-ketligidagi buzilish, yaqqol ifodalangan motivsiz vaziyatlilik va fragmentlilik, jumlati nutqdan foydalanishning past darajasi xosdir.

T.B. Filicheva tomonidan NTRli bolalarning yana bir kategoriyasi aniqlangan bo'lib, bunday bolalardagi nutki tulik rivojlanmaganlikning belgilari yashirin bo'ladi va har doim barqaror, tizimli nutki tulik rivojlanmaganlik mavjudligi yuzasidan to'g'ri tashxis qo'yilmaydi. Muallif tomonidan maxsus ishlab chiqilgan metodika asosida chuqurlashtirilgan psixologik-pedagogik tadqiqot tashkil etilgan va natijada bunday guruhdagi bolalarning umumiy nutki tulik rivojlanmaganligidagi spesifik xususiyatlar aniqlangan bo'lib, ular nutqiy rivojlanishning to'rtinchi darajasiga mansubdir.

Mazkur daraja bolalar bilan maxsus tanlangan topshiriqlarni bajarish paytida bajariladigan ish jarayonida sezilmas darajadagi nutqiy buzilish

bilan xarakterlanadi. Nutki tulik rivojlanmaganlikning to'rtinchi darajasi muallif tomonidan nutqiy potologiyaning o'ziga xos yengil shakli sifatida ajratib kursatilgan. Bunda bolalarda yaqqol ifodalanmagan, ammo so'z yasash, so'z o'zgartirish va murakkab strukturadagi so'z va ayrim grammatik konstruksiyalarni qo'llash hamda tovushlarni farqlash va qabul qilish bilan bog'liq til mexanizmlarini egallashdagi barqaror buzilishlar ko'zga tashlanadi.

T.B. Filicheva tadqiqotlari ma'lumotlariga muvofiq NTRning to'rtinchi darajasidagi bolalar nutqining o'ziga xosligi quyidagilardan iborat. Muayyan mavzu, surat yoki syujetli tasvirlar asosida hikoya tuzish jarayonidagi suhbatda mantiqiy ketma-ketlikning buzilishi, ikkinchi darajali detallarda to'xtalib qolish, muhim hodisalarning tushirib qoldirilishi, alohida epizodlarni takroran bayon qilish kabilar aniqlanadi. O'z hayoti bilan bog'liq bo'lgan ijodiy elementlarga boy hikoyalarni tuzish jarayonida bolalar asosan sodda va kam axborot beruvchi gaplardan foydalanadilar. Bu guruh bolalarida ham o'z fikrlarini bayon qilishni rejalashtirish hamda ularga mos keluvchi til vositalarini tanlash jarayonida qiyinchiliklar mavjud bo'ladi.

Shunday qilib, nutki tulik rivojlanmaganlikka ega maktabgacha yoshdagi bolalar bog'lanishli nutqining rivojlanganlik darajasi quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

- 1) sodda konstruksiyali yoki ko'p takrorlanuvchi jummalarni qo'llash;
- 2) lug'at zahirasi qashshoq va passiv;
- 3) olmoshlar, bog'lovchilar va ko'makchilarni elementar ma'nolarda va kam o'rinlarda qo'llash;
- 4) bolalar so'z yasash ko'nikma va malakalariga ega bo'lmaydilar;
- 5) grammatik konstruksiyalarni qo'llashda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadilar.

Normal ontogeneza da bog'lanishli nutq maktabgacha yoshda shakllanadi va maktab ta'limi jarayonida ancha intensiv tarzda kechadi. Nutki tulik rivojlanmaganlikda bog'lanishli nutqning barqaror va yaqqol ifodalangan buzilishi aks etadi. V.P. Gluxov qayd qilib o'tganidek, bolalar ayniqsa hodisalarni ketma-ketlikda bayon qilish jarayonida ko'p qiyinchiliklarga uchraydilar. Uning fikricha, nutki tulik rivojlanmaganlikda kechuvchi bog'lanishli nutqning shakllanmaganligi programmalashtirish operatsiyalarining hamda nutqiy materialni tanlash va uni sintez qilishning buzilishi, ichki nutqning shakllanmaganligi bilan bog'liq. Nutki tulik rivojlanmaganlikka ega bo'lgan bolalarning kengaytirilgan mazmuniy ifodalarida aniqlik, ketma-ket bayon qilishning mavjud emasligi, jummalarning uzuq-yuluqligi, harakatlanuvchi qahramonlarning muhim munosbatlariga

urg'u bermasdan tashqi, yuzaki taassurotlarga urg'u berilganligi bilan farqlanib turadi. Bunday bolalar uchun mustaqil ravishda yoddan hikoya qilish va ijodiy bayonning barcha turlari murakkab hisoblanadi. Namuna asosida matn hosil qilishda ham me'yorda gapiruvchi tengdoshlarinikidan sezilarli darajada ortda qoladi.

Xullas, NTRli bolalarda, yuqorida ham ta'kidlanganidek, bog'lanishli fikr ifodalashning mazmuniy va grammatik tomonlarini o'zlashtirish jarayonida hosil bo'luvchi turli-tuman qiyinchiliklar uchraydi. Ayni vaqtda tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, nutki tulik rivojlanmaganlikka ega bolalar filning murakkab qonuniyatlarini, kengaytirilgan bog'lanishli monologik nutqni ongli ravishda o'zlashtirish bilan bog'liq to'laqonli qobiliyatlarga ega.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vorobeva V.V. Osobennosti svyaznoy rechi shkolnikov s motornoy alaliy. Narushenie rechi i golosa u detey. / Pod red. S.S. Lyapidevskogo i S.N. Shaxovskoy. - M.: Prosveshchenie, 1975.
2. Gvozdyov A.N. Voprosy izucheniya detskoy rechi. – M.: APN RSFSR, 1961.
3. Gluxov V.P. Iz opyta logopedicheskoy raboty po formirovaniyu svyaznoy rechi detey s ONR doshkolnogo vozrasta na zanyatiyax po obucheniyu rasskazyvaniyu. // Defektologiya. №2. 1994.
4. Gluxov V.P. Formirovanie svyaznoy rechi detey doshkolnogo vozrasta s obshchim nedorazvitiem rechi. - M.: Arkti, 2004.
5. Jukova N.S. Protsessy sistemnogo usvoeniya rodnogo yazyka pri narushennoy i normalnom razvitii detskoy rechi. Avtoref. dis. - M., 1975.
6. Jukova P.S., Mastyukova Ye.M., Filicheva T.B. Preodolenie ONR u doshkolnikov. 2-ye izdanie - M.: Prosveshchenie, 1990.
7. Osnovy teorii i praktiki logopedii. / Pod red. R.E. Levinoy. - M.: Prosveshchenie, 1968.
8. Spirova L.F., Yastrebova A.V. Narusheniya rechi u detey. - M., 1985. Kashe G.A. Podgotovka k shkole detey s nedostatkami rechi: Posobie dlya logopeda. - M.: Prosveshchenie, 1985.
9. Filicheva T.B., Tumanova T.V. Deti s obshchim nedorazvitiem rechi. Vospitanie i obuchenie. – M.: Gnom-Press, 2000.

## САЙИД ШАРИФ ЖУРЖОНИЙ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ ФАОЛИЯТИ

**Ваҳобов Хасан Набиевич***Ўзбекистон халқаро ислом академияси  
магистранти*

Бу улуғ зотнинг тўлиқ исми Имом Фозил Аллома Саййид Шариф Абулҳасан Али ибн Муҳаммад ибн Али Журжоний Ҳусайнийдир.<sup>63</sup> Исмидан ҳам кўриниб турибдики, бу кишининг насаблари имом Ҳусайн ибн Али розияллоҳу анҳуга етиб боради.<sup>64</sup>

Саййид Шариф Журжоний Журжоннинг Астробод вилоятига қарашли Току шаҳрида ҳижрий 140 сана, шаъбон ойининг 24-куни (милодий 1340 сана, март ойининг 2-куни) таваллуд топган. Саййид Шариф Журжоний Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васалламнинг сулоаларидан бўлиб, у киши билан Муҳаммад соллalloҳу алайҳи васалламнинг ораларида ўн учта ота бордир. У киши ҳижрий 287, милодий 900 йили вафот этган имом Муҳаммад ибн Зайд Доъий раҳматуллоҳи алайҳининг авлодидандир.

Саййид Шариф Журжоний бошланғич илмларни ўзи туғилган ватанида олди. Сўнгра тахминан ҳижрий 762 санада илм талаб этиш ниятида Ҳиротга сафар қилди. У кишининг бу сафардан кўзлаган нияти машҳур олим Қутбиддин Розий Таҳтонийга шогирд тушиб, у зотнинг мантиқ илми бўйича ёзган «Шарҳуш шамсия» ва «Шарҳул Матолъ» номли китобларини ўзидан таълим олиб, ўқиш эди. Маълум муддатдан сўнг шайх Қутбиддин Розий Таҳтоний Саййид Шариф Журжонийга ёши улғайиб қолганини баҳона қилиб, узр айтди ва Мисрга бориб, ўзининг мантиқ илмида кўзга кўринган шогирди Муборакшоҳдан дарс олишни тавсия қилди.

Саййид Шариф Журжоний шайх Қутбиддин Розий Таҳтоний раҳматуллоҳи алайҳининг тавсиясига амал қилиб, илм илинжида Миср томон равона бўлди. У киши бу сафари давомида Онадўли диёридан

<sup>63</sup> Саҳовий. «ад-Дав ал-Лами ли-Аҳли ал-Қорни ат-Тосий». Дор мактабатул ҳайат, Байрут. –Б. V, 328-30; Садриддин Кумуш. «Саййид Шариф Журжоний». Истанбул, 1984. –Б. 94-112, 129-171; Садриддин Кумуш. «Саййид Шариф Журжоний». Туркия диёнат вақфи ислом энциклопедияси. –Б. VIII, 135-136; Журжонийнинг Ислом оламидаги ўрни ва асарлари ҳақида яна ҳам батафсилроқ маълумот олиш учун Мукаррам Ҳалилнинг мақолалар тўпламга мурожаат қилишингиз мумкин: Мукаррам Ҳалил. «Ижозатномалар ва Саййид Шариф Журжоний». Тарихдан садолар. I/8- 9 (1943). –Б. 9-10; «Саййид Шариф Журжоний II». II/15 (1944). –Б. 9-11; «Саййид Шариф Журжоний III». II/19 (1944). –Б. 1-4; «Саййид Шариф Журжоний IV». II/22-23 (1944). –Б. 1-5.

<sup>64</sup> Али розияллоҳу анҳу билан Фотимаи Заҳро розияллоҳу анҳонинг катта ўғли Ҳасан розияллоҳу анҳунинг авлодларига Шариф, Ҳусайн розияллоҳу анҳунинг авлодларига эса Саййид дейилади. Баъзида ҳар иккисига ҳам Саййид дейилади.

ҳам ўтди. Уша ерда ўзи шуҳратини яхши билган ва ҳақида одамларнинг мақтовини эшитган машҳур олим шайх Жамолиддин Оқсаройидан илм олмоқчи бўлди. Одамлар шайх Жамолиддин Оқсаройини китоб ёзишдан кўра дарс беришга уста, деб мақташган эди. Саййид Шариф Журжоний Оқсаройга бориб, шайх Жамолиддин Оқсарой раҳматуллоҳи алайҳининг вафот этганидан хабар топди.

Сўнгра Саййид Шариф Журжоний шайх Жамолиддин Оқсаройнинг шогирди Мулла Фанорий билан бирга Миср томон юришини давом эттирди. У киши сафар машаққатларини чекиб, охири ўзи кўзлаган Миср диёрига етиб борди.<sup>65</sup>

Саййид Шариф Журжоний Мисрда ўн йилча яшаб, катта олимлардан дарс олди. У киши ақлий илмларни асосан шайх Муборакшоҳ раҳматуллоҳи алайҳидан ўрганди. Нақлий илмларни эса Акмалиддин Бобартий раҳматуллоҳи алайҳидан таълим олди.

Саййид Шариф Абулҳасан Али ибн Муҳаммад ибн Али Журжоний Ҳусайний раҳматуллоҳи алайҳининг ўша даврда талабалиқдаги шериклари ичида шайх Бадриддин Симовий, шоир Аҳмадий ва Тоййиб Ҳожи Пошша каби кейин машҳур бўлган зотлар ҳам бор эди.<sup>66</sup>

Саййид Шариф Журжоний Мисрда турган пайтида катта олим бўлиб етишди ва китоб ёзиш ишларини ҳам бошлаб юборди. У кишининг ҳаёти ва илмий фаолиятини яхшилаб ўрганган тарихчиларнинг таъкидлашларича, Саййид Шариф Журжоний ўша пайтда Қутбиддин Розийнинг «Шарҳу Матолиъ ал-анвор» китобига ҳошия ёзган.

Саййид Шариф Журжоний Мисрда илм олишни тугаллаганидан кейин ўша замонда усмонийлар давлатининг маркази бўлмиш Бурса шаҳри орқали ўз она ватанига қайтди.

Бу ерда Аллома Тафтазоний раҳматуллоҳи алайҳи у зотни ўша ернинг подшоҳи Шоҳ Шужоъга таништирди. Подшоҳ Саййид Шариф Журжонийни «Доруш шифо» мадрасасига мударрис қилиб тайинлади. У зот ушбу даргоҳда ўн йил давомида дарс берди, фатво билан машғул бўлди ва китоблар ёзди. Аста-секин Саййид Шариф Журжонийнинг шуҳрати атрофга тарқалди. У киши айниқса ақлий илмларнинг алломаси сифатида кенг доирада машҳур бўлди.

<sup>65</sup>Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. «Самарқанднинг сара уламолари». –Тошкент, «Ҳилол Нашр» 2014. –Б. 53.

<sup>66</sup>Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. «Самарқанднинг сара уламолари». –Тошкент, «Ҳилол Нашр» 2014. –Б. 54.

Ҳижрий 789, милодий 1378 санада Шерозни забт этган Амир Темур Кўрагоний Саййид Шариф Журжонийни ўзи билан Самарқандга олиб кетди.<sup>67</sup> Амир Темур Саййид Шариф Журжонийни мударрисларнинг бошлиғи мансабига қўйди.<sup>68</sup> Самарқандда ўтган ўн саккиз йиллик давр у зотнинг буюк ҳаётларининг энг самарали йиллари бўлди, десак муболаға қилмаган бўламиз. У киши ўзининг кўплаб асарларини айнан Самарқандда ёзди. Кўпчиликка турли илмлардан дарслар бериб, машҳур шогирдларини тарбиялаб етиштирди. Ўша вақтнинг Аллома Тафтазоний раҳматуллоҳи алайҳи каби машҳур алломалари билан турли илмий мунозаралар, баҳслар ва сўзлашувлар ўтказди.

Амир Темур Кўрагоний Саййид Шариф Журжонийни олимлиги учун ниҳоятда ҳурмат қилар эди. Олимларнинг ичида саййид ва шарифлардан – Набий соллаллоҳу алайҳи васалламнинг насабларидан бўлганлиги учун, яна алоҳида эъзозлар эди. Шунингдек, уламолар орасида ҳам Саййид Шариф Журжонийнинг эътиборлари юқори эди.

Саййид Шариф Абулҳасан Али ибн Муҳаммад ибн Али Журжоний Ҳусайний раҳматуллоҳи алайҳи Самарқандда Хожа Алоуддин Атор Бухорий раҳматуллоҳи алайҳи билан танишиб, бирга бўлдилар. У киши Хожа Баҳоуддин Нақшбанд раҳматуллоҳи алайҳининг халифаларидан эдилар. У киши билан танишув Саййид Шариф Журжонийда тасаввуфга алоҳида аҳамият билан қараш ҳиссини уйғотди ва нақшбандия тариқатига мансуб бўлди.

Саййид Шариф Журжоний Самарқандда нақшбандия тариқатининг яна бир улкан намояндаси Мавлоно Низомиддин Хомуш раҳматуллоҳи алайҳи билан дўст бўлди ва у кишининг тасаввуф мажлисларида фаол иштирок этди.

Ҳижрий 807, милодий 1405 йили Амир Темур вафот этди. Сўнгра Саййид Шариф Журжоний ўз она ватани Шерозга қайтиб кетди ва умрининг охиригача илмий фаолиятини давом эттирди.

<sup>67</sup> Шарофиддин Али Яздий. «Зафарнома». Техрон. –Б. I, 320; Ҳофиз Абру. «Зубдат ат-таворихи Бойсунғурий» ншр. Саййид Камол Саййид Жаводий. Техрон, 1372 х. –Б. II, 669; Абдураззоқ Самарқандий. «Матлаби саъдайн ва мажмаъи баҳрайн». Техрон, 1372 х. –Б. I/2, 598; Ҳофиз Абру. «Зубдат ат-таворихи Бойсунғурий» ншр. Саййид Камол Саййид Жаводий. Техрон, 1372 х. –Б. III, 547; Садриддин Кумуш. «Саййид Шариф Журжоний». Истанбул, 1984. –Б. 135; А.С.Триттон. «Журжоний». –Б. II, 603.

<sup>68</sup> «ал-Фавоидул Баҳиййа фи тарожим ал-Ҳанафиййа». –Б. 128; Мукаррам Ҳалил. «Журжоний II». –Б. 10; Садриддин Кумуш. «Саййид Шариф Журжоний». –Б. 91.

Саййид Шариф Журжоний Шерозда ҳижрий 816 санада, робийъус соний ойининг олтинчисида (м.1413 йил, 14 июль) чоршанба куни вафот этди.<sup>69</sup>

Саййид Шариф Журжоний ўз даврида ҳам, ўзидан кейин ҳам катта таъсир қолдирган ва илмларнинг ривожланиши йўлида улкан хизматлар қилган буюк зотлардан биридир. У зот кўплаб ақлий ва нақлий илмлар бўйича янги китоблар ёзган, аввал ёзилган китобларга шарҳлар ва ҳошиялар битган забардаст олимдир. У киши тафсир, ҳадис, фикҳ, тасаввуф, калом, араб тили, фалсафа, мантиқ, фалакиёт, математика, мазҳаблар тарихи ва бошқа илмларга оид асарлар битган. Шунинг учун ҳам Саййид Шариф Журжоний аллома номини олгандир. Саййид Шариф Журжонийнинг ҳаётини яхшилаб ўрганган олимларнинг таъкидлашларича, у киши ўта заковатли, ҳар бир нарсани диққат билан ва охиригача ўрганадиган зот бўлган. У киши ўта фаросатли, фасоҳатли ва балоғатли сўз устаси бўлиш билан бирга, мунозара олиб боришда ҳам моҳир бўлган.

Саййид Шариф Журжонийнинг ёзган китоблари, хусусан, араб тили, фароиз ва калом илмлари бўйича қолдирган асарлари асрлар оша илм даргоҳларида дарслик бўлиб келган ва келмоқда. Турли илмлар бўйича мутахассис олимлар учун Саййид Шариф Журжонийнинг ўзи устоз ва илмий суянчиқ бўлган. У киши ҳам мударрис, ҳам муфтий бўлган, дарс ўтиб, фатво берган. У кишининг қўлида катта уламолар етишиб чиққан. У кишининг мухлислари ва шогирдлари жуда ҳам кўп бўлган. Саййид Шариф Журжонийнинг шуҳрати ва яхши сифатлари етти иқлимга кенг тарқалган. Номи кишилар орасида дoston бўлган. У кишини амал қилувчи олимларнинг султони деб аташган.

Саййид Шариф Журжоний гўзал хулқли ва тавозели, камбағалпарвар зот бўлган. Асрлар оша у кишининг фикрлари ва илмининг таъсири илмий муассасалар ва олимлар орасида жуда ҳам кучли бўлган. Бунинг далили сифатида тарихчилар Мавароуннаҳр, Туркистон, Онадўли, Эрон ва Ҳиндистонлик уламоларнинг кўпларининг илмий ижозатлари<sup>70</sup> – гувоҳномаларининг санади Саййид Шариф

<sup>69</sup> Хондамир. «Ҳабиб ас-сияр фи аҳбори афроди башар». ншр. Муҳаммад Дабир Сиёкий, Техрон, 1333 х. –Б. III, 547; Мукаррам Ҳалил. «Саййид ШарифЖуржоний II». –Б. 11; Садриддин Кумуш. «Саййид Шариф Журжоний». –Б. 135; А.С.Триттон. «Журжоний». –Б. 603.

<sup>70</sup> Журжонийнинг Ислом оламидаги ўрни ва асарлари ҳақида яна ҳам батафсилроқ маълумот олиш учун Мукаррам Ҳалилнинг маколалар тўпламга мурожаат қилишингиз мумкин: Мукаррам Ҳалил. «Ижозатномалар ва Саййид Шариф Журжоний». Тарихдан садолар. I/8-9 (1943). -Б. 9-10

Журжонийга етиб боришини келтирадилар. Қолганлариники эса Алломай Тафтазоний раҳматуллоҳи алайҳига етиб боради.

Мазкур гапларнинг барчаси тўққизинчи ҳижрий асрдан бошлаб, илм ва маърифат ҳамда Ислом оламининг фикрий ҳаётида Саййид Шариф Журжонийнинг аҳамияти қанчалик улкан бўлганига ёрқин далилдир. Ўша вақтнинг талабига кўра, у зотнинг кўп асарлари шарҳ ва ҳошиялардан иборат бўлган ва илм аҳллари учун аввал битилган асл китобларнинг матнини яхши тушуниб етишга хизмат қилган. Кўпчилик мазкур асл матнлардан кўра Саййид Шариф Журжонийнинг шарҳ ва ҳошияларини ўқиш, ўрганиш ва дарс қилишни афзал билган.

Саййид Шариф Журжоний Басра мактабига мансуб араб тили олимларининг кўзга кўринган арбобларидан бўлган. Бу борада у киши Аллома Замахшарий<sup>71</sup> ва Жамолиддин ибн Ҳожибдан фойдаланган.

Саййид Шариф Журжонийнинг китоблари балоғат ва фасоҳатнинг юқори чўққисидан бўлиши билан бирга, тушуниш осон ва мажоз, истиора ҳамда сажълардан холи бўлган.

Аллома Бадриддин Айний раҳматуллоҳи алайҳи Саййид Шариф Журжоний ҳақида қуйидагиларни айтади: «У зот шарқ мамлакатларининг олими, ўз замонасининг алломаси бўлган. Ўз асрининг обрўси бўлган. У киши билан Алломай Тафтазоний раҳматуллоҳи алайҳининг орасида Амир Темурнинг ҳузурида баҳслашувлар, суҳбатлар бўлиб ўтган».

Имом Суютий ўз шайхи Муҳаммад Кофийчидан «Саййид Шариф ва Қутбиддин Розийлар араб тили илмидан насибалари бўлмаган, улар ҳақимдирлар», деган гапни нақл қилган ва “Мадийнатул илмда” қуйидагиларни айтган: «Бу гап инсофдан чиқидир. Икковларининг араб тили бўйича кўзга кўринган мутахассис бўлиб ажралиб чиқмаганлари уларнинг араб тилининг усталари эмаслигига далил бўла олмайди. Икковларининг таснифотларига инсоф билан назар сол. Араб тилига боғлиқ баҳсларига назар сол. Улар бу борада қилган ишлардан араб тилининг қадимги усталари ҳам ожиз бўлишган».

<sup>71</sup> Маҳмуд Замахшарий. «Кашшоф» (Ношир Муҳаммад Мурсий Омир), Байрут 1397/1977, I, 16-19, 621-622; IV, 267; Юқоридги муаллиф. «Девон» (Ношир Абдусаттор Дайф), Қоҳира 1425/2004, -Б. 79-80, 239, 270-275, 406; Юқоридги муаллиф. «Муфассал», Байрут 1993, I, 17-19; Юқоридги муаллиф. «Робиъул аброр ва нуусул ахбор» (Ношир Салим Нуаймий), Боғдод, 1976, ноширнинг муқаддимаси, I, 5-34; Юқоридги муаллиф. «А Му‘tazilite Creed of az-Zamahsharī: el-Minhāc fī uṣūli‘d-dīn» (Ношир ва таржимон S. Schmidtke), Stuttgart 1997, ноширнинг муқаддимаси, -Б. 7-11; Самоъний. «ал-Ансоб», III, 163-164; Камолиддин Анбарий. «Нузҳату-л-алибба» (Ношир Муҳаммад Абул Фазл Иброҳим), Қоҳира, 1386/1967, -Б. 391-393; Ибн Асир. «ал-Лубоб», I, 506-507; A. J. Lane, A Traditional Mu‘tazilite Qur‘ān Commentary: The Kashshāf of Jār Allāh al-Zamakhsharī (d. 538/1144), Leiden 2006;



Биз ҳам бу борада имом Суютий раҳматуллоҳи алайҳига қўшиламиз. Саййид Шариф Журжоний араб тили бўйича дарсликлар ёзганини ва ўша китоблар у кишининг ҳаётлик чоғларидан ҳозирги кунларгача машриқдаги барча илм толибларининг дарслиги бўлиб келаётганини эслатамиз.

Шу билан бирга, Саййид Шариф Журжонийнинг «ат-Таърифот» номли китоби машриқу мағрибнинг барча олимларини ва толиби илмларини қойил қолдириб келаётган арабий сўзлар қомуси эканини эслатиб ўтамиз.

Аллома Шавкониё Саййид Шариф Журжоний ҳақида қўйидагиларни ёзади: «У кишидан катта уламолар илм олганлар ва уни жуда ҳам улуғлаганлар. Хусусан, ажам ва рум уламолари уни эъзозлаганлар ва у билан бирга Алломай Тафтазоний раҳматуллоҳи алайҳини илмнинг ҳужжати қилиб олганлар. Унинг мусаннафотлари жуда ҳам манфаатлидир, сермаънодир, лафзлари равшандир, такаллуфи ва қийинлиги оздир».

Саййид Шариф Журжонийнинг шогирдлари жуда кўп бўлганлиги аввал ҳам айтиб ўтилди. Биз ушбу ўринда уларнинг ичидан энг кўзга кўринганлари ва шуҳрат топганларидан баъзиларини эслаб ўтамиз:

1. Қозизода Румий.<sup>72</sup>
2. Фатҳуллоҳ Ширвоний.<sup>73</sup>
3. Фаҳриддин Ажамий.<sup>74</sup>

<sup>72</sup>Қозизода Румийнинг асл исми Салоҳиддин Мусо ибн Муҳаммад бўлиб, 1360 йилда, Кичик Осиёдаги Брусса шаҳри(ҳозирги Туркиянинг Бурса шаҳри)да таваллуд топган. 1437 йилда Самарқандда вафот этган. У математик ва астроном бўлган. Хуросон ва Мовароуннаҳрда билим олган. Тахминан 1400 йилда Самарқандга ўқиш ва илмий фаолиятини давом эттириш учун келган. Амир Темур саройининг бош астрономи Мавлоно Аҳмад қўлида ҳам ўқиган. Улуғбек илмий мактабининг яратилишида Қозизода Румийнинг иштироки катта. Хусусан, Қозизода Румий ташаббуси билан Ғиёсиддин Жамшид Коший ва бошқа олимлар Самарқандга таклиф етилган. У Улуғбек мадрасасида математика ва астрономиядан маъруза ўқиган. Қозизода Румийни замондошлари "Афлотуни замон" (ўз даврининг Платони) деб аташган. Улуғбек расадхонаси қурилишининг раҳбарларидан бири. Коший вафотидан сўнг умрининг охиригача унинг ноziри. Қозизода Румий Улуғбекнинг барча илмий тadbирларида, жумладан, "Зижи Қўрагоний" тузишда иштирок етган.

Қозизода Румий арифметикага оид тенгламаларни ечишнинг Коший таклиф қилган итерацион усулига оид рисола ва бошқа асарлар ёзган. Кошийнинг бу муҳим ихтироси бизгача фақат Қозизода Румий ва Мирам Чалабий асарлари орқали (ҳар иккисидан турлича баёнда) йетиб келган. Шунингдек, Махмуд Чағминийнинг "Астрономиянинг қисқа баёни", Жамшиддин Самарқандийнинг геометрия асосларига доир, Масъуд Тафтазонийнинг "Илмлар калити" асарларига Қозизода Румий ёзган шарҳлари кенг тарқалган. Қозизода Румийнинг ўғли Ҳасан Чалабий, невараси Мирам (Мириам) Чалабий ҳам таниқли олим бўлишган. Қаранг: Қори Ниёзий. "Улуғбек ва унинг илмий мероси", Тошкент, 1971 йил. -Б. 58.

<sup>73</sup> Фатҳуллоҳ Ширвоний 1417-йилда бугунги кунда Озарбайжонда жойлашган Ширвон шаҳрида таваллуд топган. Фатҳуллоҳ Ширвоний ҳақида Котиб Чалабийнинг "Қашфу-з-зунун" асарида Шоҳ Фатҳуллоҳ дея зикр қилинган маълумотдан бошқа маълумотга дуч келмайсиз. Қаранг: Котиб Чалабий. "Қашфу-з-зунун", 1-жилд, 39, 67-бетлар

<sup>74</sup> Фаҳриддин Ажамийнинг ёшлиги ҳақида манбаларда маълумотлар деярли учрамайди. Лекин, унинг Саййид Шариф Журжоний олдида тарбия топгани аниқ. Бурсада эронлик олим Бурҳониддин Ҳайдар Ҳаравийдан ҳадис илмини ўқиган ва ундан ижоза олган. 1430 йили Мурод II тарафидан Эдирнэга суфтий қилиб таъйинланди. Ўттиз йилдан ортиқроқ вақт муфтийлик қилган Фаҳриддин Ажамий уламолар орасида шуҳрати баланд бўлган

**Фойдаланган адабиётлар:**

1. Саҳовий. «ад-Дав ал-Лами ли-Аҳли ал-Қорни ат-Тосий». Дор мактабатул ҳайат, Байрут.;
2. Садриддин Кумуш. «Саййид Шариф Журжоний». Истанбул, 1984;
3. Садриддин Кумуш. «Саййид Шариф Журжоний». Туркия диёнат вақфи ислом энциклопедияси. –Б. VIII, 135-136;
4. Журжонийнинг Ислом оламидаги ўрни ва асарлари ҳақида яна ҳам батафсилроқ маълумот олиш учун Мукаррам Ҳалилнинг мақолалар тўпламга мурожаат қилишингиз мумкин:
5. Мукаррам Ҳалил. «Ижозатномалар ва Саййид Шариф Журжоний». Тарихдан садолар. I/8- 9 (1943);
6. «Саййид Шариф Журжоний II». II/15 (1944). –Б. 9-11; «Саййид Шариф Журжоний III». II/19 (1944). –Б. 1-4; «Саййид Шариф Журжоний IV». II/22-23 (1944). –Б. 1-5.
7. Али розияллоҳу анҳу билан Фотимаи Заҳро розияллоҳу анҳонинг катта ўғли Ҳасан розияллоҳу анҳунинг авлодларига Шариф, Ҳусайн розияллоҳу анҳунинг авлодларига эса Саййид дейилади. Баъзида ҳар иккисига ҳам Саййид дейилади.

---

отасидан “Саҳиҳи Бухорий”дан нақл ва ривоятга ижоза олди. Қаранг: Маждий. “Шақоик таржимаси” -Б. 81-83, 177; Маҳмуд Кафавий “Катайбу аълами-л-аҳйар мин фуқоҳои мазҳаби-н-нўъмани-л-мухтар”, Сулаймония кутубхонаси, рақам. 690, вр. 338b-339a; Babinger. “Mahomet II Le Conquérant et son temps, 1432-1481” (trc. H. E. Medico), Париж 1954. -Б. 327.

УДК 34.347.4414

**ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ПРИМИРИТЕЛЬНЫХ  
ПРОЦЕДУР В ГРАЖДАНСКОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ****Давранов Улугбек Джанибекович***1 курс магистратуры (научный руководитель доктор юридических наук, профессор Эсанова З.)*

Примирение сторон является наиболее благоприятным исходом конфликта, так как позволяет снижать нагрузку на судей, сохранить партнерские отношения между сторонами на будущее, минимизировать вероятность возникновения дальнейших противоречий между ними и в целом снижает конфликтность в обществе. Исходя из вышеизложенного, все более актуальным становится развитие института примирительных процедур в гражданском процессе. [1. С. – 332-334]

В гражданском процессуальном законодательстве Республики Узбекистан примирительные процедуры развиты очень слабо и не регламентированы должным образом. До 2019 года в Гражданском процессуальном кодексе Республики Узбекистан не было указано примирительные процедуры. Однако согласно последним изменениям в ГПК, в марте 2019 году появился новая глава 17 под названием «Примирительные процедуры». В новой главе закрепляются положения о примирении сторон спора, а также более подробно описана процедура заключения мирового соглашения. Согласно ст. 166 главы 17 «Суд принимает меры для примирения сторон, содействует им в урегулировании спора на всех стадиях гражданского судопроизводства. Стороны могут урегулировать спор в полном объеме взаимных требований либо в части, заключив мировое соглашение или медиативное соглашение. Мировое соглашение или медиативное соглашение может быть заключено по любому делу искового производства» [2.].

Вышеуказанные процедуры считается недостаточными для раскрытия сущности «примирительных процедур», что не способствует развитию примирительных процедур.

Даже последние изменения в ГПК РУз, не дает полноценного применения примирительных процедур, таких как переговорных и партисипативных процедур и т.д., а лишь ограничивается мировым соглашением и медиацией.

Целью данного исследования состоит в разработке предложений и рекомендаций по дальнейшему совершенствованию гражданского процессуального кодекса в Республике Узбекистан в части примирительных процедур.

Задачи исследования состоят в следующем:

- исследование гражданско-правовых основ применения примирительных процедур в гражданском судопроизводстве Республики Узбекистан;
- изучение других видов примирительных процедур и их применение в гражданско-правовом законодательстве Республики Узбекистан;
- изучение положительного опыта развитых зарубежных стран в применении примирительных процедур в гражданском судопроизводстве;
- разработка предложений по совершенствованию гражданского процессуального законодательства и улучшению правоприменительной практики.

Научная новизна магистерской диссертации заключается в том, что по результатам исследования обоснована, исключении мирового соглашения как одного из видов примирительных процедур, в связи с тем, что само мировое соглашение не является отдельным видом примирительных процедур, а является лишь одним из результатов применяемых примирительных процедур, а также необходимость применения досудебных примирительных процедур, таких как переговоры сторон и партисипативное соглашение, а также введения в гражданский процессуальный кодекс обязательность применения сторонами вышеуказанных досудебных примирительных процедур, до обращения в суд, и приложение к исковому заявлению документ, о соблюдении досудебного порядка урегулирования спора с ответчиком, что по личному мнению автора позволит существенно сократить нагрузку на гражданские суды, и повысить качество рассмотрения дел.

В нынешнем стримительном растущем процессе гражданско-правовых правоотношений, внесенные изменения и дополнения в

Гражданский процессуальный кодекс Республики Узбекистан «О примирительных процедурах» являются неполными и недостаточными.

Так, Глава 17 ГПК Республики Узбекистан, регламентирует два вида внесудебного урегулирования споров: мировое соглашение и медиативное соглашение. В соответствии ч.2 ст. 166 ГПК РУз указано, что «Стороны могут урегулировать спор в полном объеме взаимных требований либо в части, заключив мировое соглашение или медиативное соглашение» [2.]. Следовательно, в данном пункте мировое соглашение рассматривается как разновидность примирительных процедур, что по личному мнению автора является, не достаточно корректным.

Согласно Толковому словарю русского языка под редакцией Т.В. Ефремовой «примирение» означает «мир, согласие после ссоры, вражды» [3.]. Данное толкование вполне четко отражает смысл примирительных процедур – заключение мира, что согласно процессуальным правилам должно быть юридически закреплено составлением и утверждением соответствующего документа. Таким документом является мировое соглашение. Следовательно, полагаем, что заключение мирового соглашения не входит в процесс примирения в качестве составляющей и не является одним из видов примирительных процедур, а является основным результатом их реализации, т. е. примирение сторон завершается заключением мирового соглашения.

Если рассмотреть мировую практику, примирения примирительных процедур в гражданском судопроизводстве, в некоторых странах применение примирительных процедур является обязательным, в некоторых странах она осуществляется на добровольной основе. В частности, в Республике Узбекистан применение примирительных процедур в гражданском судопроизводстве осуществляется на добровольной основе, что по личному мнению и убеждению автора, будет носить ограничительный характер и не дадут существенного результата.

Применение в гражданском процессуальном законодательстве других видов примирительных процедур, таких как переговорной и партисипативной процедуры, которые являются дополнительным механизмом внесудебного урегулирования споров, обеспечивающие защиту и охрану прав лиц.

**Переговоры** – это примирительная процедура, посредством которой стороны урегулируют возникшие разногласия

непосредственно или по содействию своих доверенных лиц без привлечения независимой третьей стороны.

**Партисипативная процедура** - это переговорный процесс урегулирования спора между сторонами с обязательным участием их адвокатов, без участия судьи, в целях достижения ими взаимоприемлемого решения; и реализуемая по добровольному согласию сторон.

По результатам научного исследования, посвященного применению примирительных процедур в гражданском судопроизводстве Республики Узбекистан, автором разработаны следующие предложения и рекомендации:

Внести нижеследующие изменения и дополнения к действующему ныне статью 4 Главы 1, и статью 188 Главы 20, об обязательности соблюдения претензионного или иного досудебного порядка урегулирования споров, если это предусмотрено законом для данных категорий споров, в связи с чем внести дополнение к ГПК для определения категорий споров для которых обязательно соблюдение претензионного или иного досудебного порядка урегулирования споров, а также внести изменения и дополнения в Главу 17, в части исключения мирового соглашения как одного из видов примирительных процедур, так как оно является результатом применяемых примирительных процедур, кроме этого дополнить Главу 17, статьями 166<sup>1</sup> - о видах примирительных процедур, 166<sup>2</sup> -переговоры, 166<sup>3</sup> - медиация, 166<sup>4</sup> - партисипативное соглашение, 166<sup>5</sup> – результаты примирительных процедур.

А также дополнить 1 часть ст.223, пунктом 13 следующего содержания:

**13) по ходатайству сторон в случае их обращения к примирительным процедурам, а также в случае принятия сторонами предложения суда использовать примирительную процедуру.**

Кроме этого, после внесения изменений и дополнений в некоторые статьи ГПК РУз, одновременно должно быть внесено соответствующие изменения и дополнения в Законы РУз “О Медиации”, «Об адвокатуре» и др. законодательные акты Республики Узбекистан.

**ЛИТЕРАТУРА:**

1. Михалкина Е.А. Примирительные процедуры в гражданском процессе: актуальные проблемы. Сборник Верховенство права: человек в государстве. Сборник научных статей, докладов Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. 2019. Стр.332-334.

2. Гражданский процессуальный кодекс Республики Узбекистан. [Электронный ресурс].//Lex.uz. Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz/docs/3517334#3519551> (Дата обращения: 23.05.2021).

3. Ефремова Т. Ф. *Новый словарь русского языка. Толково-словообразовательный.* – М.: Русский язык, 2000. [Электронный ресурс]//2005-2021 Толковый словарь Ефремовой. Дата обновления 23.05.2021. URL: <https://www.efremova.info/word/primirennost.html#.YKp62qgzblU> (Дата обращения: 23.05.2021)

УДК 623.459.64(075)

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РАБОТЫ ЗВЕНА ГАЗОДЫМОЗАЩИТНОЙ СЛУЖБЫ НА ОСНОВЕ СРЕДСТВ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ОРГАНОВ ДЫХАНИЯ И ЗРЕНИЯ

**Курбанбаев Ш.Э.**

(Заместитель начальника Научно-исследовательского института пожарной безопасности и проблем чрезвычайных ситуаций МЧС Республики Узбекистан),

**Мухамедов И.И. Абдуллаев.Э.**

(Академии МЧС Республики Узбекистан)

**Аннотация:** В статье проведён анализ расчётов времени защитного действия средств индивидуальной защиты органов дыхания (СИЗОД) и предложена методика расчётов с учётом работы пожарных в сложных условиях, такие как тушение пожаров и спасение людей в высотных зданиях и объектах с массовым пребыванием людей.

**Ключевые слова:** газодымозащитная служба, газодымозащитник, пост безопасности, углеродный обёртывающий баллон дыхательного аппарата сжатого воздуха.

Ежедневно газодымозащитная служба (ГДЗС) выезжает на место пожара и входит в не пригодную для дыхания среду и каждый год некоторые из них обратно не возвращаются. Факторы, которые приводят к этой дилемме, могут включать: дезориентацию, запутывание, перенапряжение и физические нагрузки. Это происходит во время пожара в непригодной для дыхания среде в помещении или в небольших зданиях, где потребляется три четверти подачи воздуха в баллоне. Однако если их маршрут выхода недоступен или произойдёт непредвиденный случай, то возникает другая проблема что во многих случаях мы, будем использовать те же методические расчёты параметров СИЗОД [1] которые не подходят при ликвидации огня или поиска, пострадавшего в высотных зданиях, а также массового пребывания людей.

В этих методических расчётах параметров СИЗОД, есть один большой недостаток: расход воздуха зависит от нескольких факторов, которые включают в себя уровень пригодности, опыт, рабочую



физическую нагрузку и насколько эффективно человеческое тело метаболизирует кислород. Некоторые из этих факторов вы можете изменить – но другие вы не можете. В качестве примера, 154 атм., 30-минутный баллон содержит 1,27 кубических метров сжатого воздуха (1270 литров), когда манометр показывает 150 атм. Все баллоны будут удерживать свой номинальный объем воздуха при заполнении до номинального давления. В этом вопросе стоит 30-минутный ярлык. Газодымозащитники должны понимать, что это число не связано с деятельностью по борьбе с пожарами. Национальный институт безопасности и гигиены труда (NIOSH) [2] приходит к этому числу, дыхательный аппарат, который имитирует частоту дыхания среднего взрослого мужчины при умеренной нагрузке скорость дыхания 24 вдоха в минуту с объёмом 40 литров в минуту (l/m). Вы можете проверить это, разделив на 40 l/m на литр или кубическую ёмкость баллона. Газодымозащитники в ходе своих обязанностей часто превышают умеренные факторы рабочей нагрузки.

Национальная ассоциация противопожарной защиты (NFA) 1852, стандарт по выбору, уходу и обслуживанию [3], заявляет, что лёгочные автоматы дыхательного аппарата SCBA [4] способны обеспечивать объем воздуха до 103 л / мин.

В следующем примере мы рассмотрим продолжительность 150 атм. с объёмом 40 л/мин, а затем объёмом 60 л/мин, что является более показательным рабочей нагрузки газодымозащитника.

Пример: Циферблат объёмом 150 атм., 30 минут занимает 1270 литров воздуха.

- Деление на 40 л / мин = 31 минут потребляемого воздуха.

- Разделение 1270-литрового баллона на 60 л / мин = за 21 минуту до того, как баллон пуст. Если вы считаете, что это нереально, но это время, рассчитана для физических нагрузок. В этом упражнении два газодымозащитника, проходят сквозь препятствия. Затем они выполняют манёвр с уменьшенным профилем между двумя стеновыми шпильками, чтобы найти манекен. Затем манекен извлекается по тому же курсу в обратном порядке. Среднее время для истощения 30-минутного баллона составляет от 12 до 16 минут. Наименьшее количество времени для истощения 30-минутного баллона составляло шесть минут; лучшее время потребления составляло

21 минуту. Эти расчёты применяются только при физически сложных препятствиях с пребыванием в пригодной для дыханий среде.

Техника дайвинга может научить нас, лучше управлять воздухом. Технический Дайвинг сильно отличается от рекреационного Дайвинга, а также его стратегия управления воздушным движением. Одним из элементов, общих для пожаротушения и технического дайвинга, является то, что они оба происходят во враждебных условиях, которые часто не обеспечивают прямой выход в безопасную зону. Для дайвера это может включать работу под льдом, внутри затонувших кораблей и в подводных пещерах. Проблемы, с которыми дайвер может столкнуться в ситуациях такие как, - дезориентация, запутывание и обрушение. Технический дайвер, как и пожарный, имеет ограниченный воздушный ресурс. Технические дайверы должны справляться с критическими навыками управления воздухом. В любое время, когда прямое восхождение на поверхность невозможно, применяются некоторые принципы управления воздушным движением. Эти дайверы учат, как вычислять свои индивидуальные тарифы на потребление воздуха, чтобы они могли планировать своё погружение и знали, сколько минут их подача воздуха будет длиться в любой момент во время погружения. Это число уникально для каждого дайвера.

Рассмотрим расчёты потребления воздуха, используемого технического дайвинга, чтобы узнать, как он может помочь нам лучше управлять воздухом. Во-первых, мы должны установить расход воздуха (P) для каждого газодымозащитника. Это число говорит нам, сколько воздуха потребляет газодымозащитник в минуту. Это базовая линия для измерения расхода воздуха в минутах при работе. Это число будет варьироваться во время работы пожарного в зависимости от возраста, уровня пригодности, скорости потребления кислорода во время тренировки, уровня стресса и опыта, чтобы назвать несколько факторов (P) также будут варьироваться в зависимости от размера баллона и рабочего давления баллона. Если используются баллоны разных размеров, вам придётся определять удельные расходные нормы для каждого баллона.

Чтобы добраться до (P), запишем время двух газодымозащитников, затрачиваемое на выполнение задачи, и начальное и конечное давление баллона. Убедимся, что баллоны имеют одинаковое давление и полностью заряжены. Для этого примера газодымозащитники

используют 30-минутный баллон 150 атм. заполненного 1270 литров воздуха.

Для эволюций нашего образца два газодымосащитника должны продвигаться в здание и подниматься по лестнице в комнату второго этажа в полном снаряжённом виде. Снаряжение используется для увеличения веса самого газодымосащитника. Вес сделает эволюцию физически более требовательной и даст реалистичный уровень потребления.

Запись результатов нескольких различных типов эволюций даст вам средний уровень потребления воздуха газодымосащитников. Важно, чтобы газодымосащитники продолжали двигаться, выполняя упражнение. Таким образом, уровень потребления воздуха будет более характерным для эволюции, происходящей на фактическом пожаре. Напомните газодымосащитникам, чтобы не использовать какие-либо методы для экономии воздуха, такие как пропустить дыхание. Обратите внимание, что большинство современных манометров дыхательных аппаратов читаются в фунтах на кв. Дюйм. Некоторые производители теперь используют цифровые датчики, которые отображают psi в цифровом виде. Эти цифровые датчики позволяют газодымосащитникам более точно контролировать их использование воздуха по сравнению с аналоговым типом.

Для гипотетического примера пожарные потратили 10 минут на завершение эволюции. Финишное давление регистрируется на их датчиках. В этом случае газодымосащитник ( $P_1$ ) имеет показание давления 75 атм.;

газодымосащитник ( $P_2$ ), 88 атм. Ниже приведены расчёты для двух газодымосащитников.

газодымосащитник ( $P_1$ ): 150 атм. (начальное давление) минус 75 атм., равный 75 атм., оставленный в баллоне. 75 атм., разделённый на 10 минут, составляет 7,5 атм. в минуту газодымосащитника, 150 атм. (номинальное заполняющее давление), разделённое на 7,5 атм. в минуту пожарного, равно 20-минутной продолжительности баллона;

газодымосащитник ( $P_2$ ): начальное давление 150 атм., минус 88 атм., потребляется равным 61 атм. разделённый на 10 минут, равен 6,1 атм. в минуту газодымосащитника, 150 атм. (номинальное заполняющее давление), 6,1 атм. в минуту пожарного, равно 24-минутной продолжительности баллона.

Даже если мы возьмём другой 45-минутный баллон под давлением 306 атм., 66 кубических метров сжатого воздуха (1840 литров) и проходит ту же эволюцию. Манометр этого газодымосащитника достигает отметки 204 атм. за 11 минут. Потребление для этого газодымосащитника составляет 102 атм. Разделение 102 атм. на 11 минут равно 9,2 атм. в минуту пожарного. Мы можем объединить газодымосащитника от 9,2 атм. до 9,5 атм. Это упростит работу и добавит немного консерватизма. Разделив номинальное давление наполнения баллонов (306 атм.) с помощью газодымосащитника (9,5 атм. в минуту), мы видим, что продолжительности баллона равен 32 минуты. Формула остаётся неизменной для всех размеров баллонов.

Теперь, когда у нас есть расчёты на потребление воздуха, мы можем рассмотреть процедуры управления воздухом дыхательного аппарата. В крупномасштабной поисковой операции газодымосащитной службы, на посту безопасности постовой может следить за потреблением воздуха звена ГДЗС, зная тип баллонов дыхательных аппаратов, которые использует газодымосащитники, и уровни потребления, а также использование секундомера. Время выполнения звена ГДЗС определяется газодымосащитника с наивысшим уровнем потребления. Например, один газодымосащитник имеет скорость потребления 10 атм. в минуту, а другой 6,8 атм. в минуту. Контрольным параметром здесь будет элемент с 10 атм. в минуту. Время поворота, чтобы начать выход на баллон 306 атм., будет определяться путём расчёта того, как долго будет продолжаться баллон (306, разделённый на 10 атм., равно 33 минутам). С помощью этих данных на посту безопасности постовой может установить подходящее время для проникновения, выхода и оставления запаса воздуха для непредвиденного случая. В этом случае на посту безопасности постовой может использовать правило третей, используемое дайверами в накладных условиях: треть нашей подачи воздуха, одна треть и одна треть для чрезвычайных ситуаций. В приведённом выше примере это будет 11 минут, 11 и 11 для чрезвычайных ситуаций.

Если вы считаете, что это слишком консервативно, вы можете использовать метод «половина времени плюс пять минут». Для этого вычитите

5 минут от 33, давая вам 28 минут. Половина этого составляет 14 минут.

Для этой операции звено ГДЗС пробивалась до места пожара течений 14 минут, а затем обратно возвращалась. Это оставляет пятиминутное резервное время. При получении информации каждый газодымозащитник проверяет оставшийся воздух. Если он не сможет увидеть манометр, то у поста безопасности все ещё будет хорошая идея о том, чтобы запас воздуха оставался для газодымозащитника. Что ещё более важно, на посту безопасности постовой может сообщить газодымозащитникам об окончании своей миссии и начать выход в заданный срок, учитывая непредвиденный запас воздуха.

Выводы. Управление звена ГДЗС с использованием показателей потребления воздуха дыхательного аппарата принесёт большую пользу операциям быстрого реагирования, а также улучшит энергетическую эффективность и безопасность при ликвидации пожара или поиска, пострадавшего в высотных зданиях, а также массового пребывания людей.

Газодымозащитная служба, которая знает о расходах на потребление воздуха дыхательных аппаратов, может помочь продлить поиск людей.

Каждый газодымозащитник, знающий свой расход, заставляет осознавать, сколько воздуха остаётся, когда срабатывает звуковой сигнал.

### ЛИТЕРАТУРА:

1. Устав аварийной спасательных формирований по организациям и ведению Газоспасательных работ ФГиПН России от 16.05.2003г №373.

Приказ МЧС РФ от 9 января 2013 г. № 3 "Об утверждении Правил проведения личным составом федеральной противопожарной службы Государственной противопожарной службы аварийно-спасательных работ при тушении пожаров с использованием средств индивидуальной защиты органов дыхания и зрения в непригодной для дыхания среде.

2. NIOSH. Национальный институт безопасности и гигиены труда.

3. NFPA 1852: Стандарт для подготовки специалистов по защите дыхательных путей. Quincy, MA: Национальная ассоциация противопожарной защиты.

4. Физиология дыхания и эргономика SCBA. Fire Engineering.

5. Руководство по эксплуатации AirGo/AirGoFix Аппарат

## ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИГА ДОИР ҒАРБ НАЗАРИЯЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИ

**С.Содиқов**

ФарПИ “Ўзбекистон тарихи ва ижтимоий фанлар”  
кафедраси ўқитувчиси

**Аннотация:** Мақолада фуқаролик жамиятига доир классик назарияларнинг ривожланиши илмий жиҳатдан ёритилган, муаммонинг маълум ечим ва тавсиялари келтирилган.

**Таянч сўзлар:** инсон ҳуқуқи, фуқаролик жамияти, давлат институтлари, жамият ва давлат, ҳуқуқий давлат.

Фуқаролик жамияти назарияси инсоният томонидан яратилган сиёсий қарашлар тарихи – жамият ва инсон, сиёсат ва давлат тўғрисидаги назарий қарашлар, шунингдек, илк жамоалардан то ҳозирги давргача бўлган жамиятлар ривожланишининг тажрибаси асосида такомиллашиб борди. Шу билан бирга, фуқаролик жамияти унсурларининг назарий жиҳатлари бундан бир неча минг йил олдин кашф этилганлига эътибор берилса, бу жамият инсоният яратган цивилизацияларнинг энг сўнгги ҳосиласи ўлароқ шакланганлигига ишонч ҳосил қиламиз.

Фуқаролик жамияти унсурлари, шунингдек, фозил жамият қуришга доир назарий изланишлар дастлаб Шарқ Уйғониш даври мутафаккирлари томонидан амалга оширилган. Ҳозирги даврга келиб, Ўзбекистонда кучли фуқаролик жамияти қуриш ислоҳотларининг чуқурлашиб бориши миллий меросимизни ўрганишга бўлган эҳтиёжларни янада кучайтирди. Бунинг сабаби шундаки, биз қурмоқчи бўлган фуқаролик жамияти ривожланган мамлакатлар тажрибасидан андаза сифатида кўр-кўрона кўчириб олинмайди. Балки, бир неча минг йиллик миллий мерос ва тарихий тажрибаларимиздан озиқланади.

Фуқаролик жамиятига хос илк қарашлар ва илмий ўрганишга доир услубий ёндашувлар бир неча асрлар давомида вужудга келди. Жон Лок ва Иммануел Кант каби файласуфлар ҳам “фуқаролик жамияти” деганда, аввало, “давлат”ни тушунишга мойил бўлдилар. Аммо бора-бора фуқаролик жамияти билан мутлақ давлат институтлари ўртасидаги тафовут кўзга яққолроқ ташланаверди. Томас

Гоббс, Жон Локк, Шарль де Монтескье каби олимлар жон-жаҳдлари билан ҳимоя қилган индивидуализм концепцияси эса кун тартибига жамиятнинг эркин фуқароси, шунингдек, шахс эркинлиги масаласини қўйди. Фуқаролик жамияти тўғрисидаги мавжуд концепциялар ўзига кўплаб мураккаб муаммолар тизимини қамраб олди. Бу назарияларни, уларнинг методологик манбалари ва тарихий йўналишларини тадқиқ қилиш жараёнидагина англаш мумкин.

Фуқаролик жамияти тўғрисидаги янги қарашларнинг дастлабки муаммоларидан бири – унинг келиб чиқишидаги табиийлик билан ижтимоий – сиёсий жиҳатларини асослаб бериш эди. Бу даврда инсоннинг икки хил – табиий ва ижтимоий келиб чиқиши тўғрисидаги қарашлар пайдо бўлган эди. Унга биноан, жамият, давлат ва унинг сиёсати табиийлик касб этиши лозим. Жамиятнинг ана шундай табиий бошланишини цивилизацияга эришганлик деб баҳолаш расм бўлди. Натижада, *civitas* (цивитас) – шаҳар, тушунчасидан *civilitas* (цивилитас) – бошқарув, фуқаролик, давлат, сиёсат, фуқаролик жамияти (қадимги Римдагидек) тушунчасига ўтиш бошланди.

Инглиз мутафаккири Томас Гоббс жамият ва давлат ўртасидаги муносабатларни, фуқаролик муносабатлари билан сиёсий муносабатларни уйғунлаштириш мақсадлари ҳуқуқий давлат қуриш муаммоларини кун тартибига қўйишини ёзган эди. Унинг фикрича, “ҳуқуқий давлат барпо этмай туриб, фуқаролик жамияти қуришни тасаввур қилиб бўлмайди [1,114-115]”

